

O'ZBEKISTON

TALABASI

/2026.4 №4 /35/

Mudroq
hamda
uyg'oq

zamonlar

“Kelajak muhandislari”:

festivalda nimalarni ko'rdik?

3030-3656



anons

“Shahar odamlar uchun quriladi!”

Odamlar imkoniyat bor joyga keladi. Masala odamlarni to'xtatishda emas, boshqa hududlarni ham rivojlantirishda. Agar viloyatlarda sifatli ish o'rinlari, transport, ta'lim va jamoat joylari bo'lsa, bosim faqat Toshkentga tushmaydi.

Hissiyotlar laboratoriyasi

Kino san'ati paydo bo'lganidan beri u faqat ko'ngilochar vosita sifatida emas, balki dunyoni anglash shakli sifatida rivojlanib kelmoqda. Chunki inson tabiatan hikoyalarga muhtoj. U o'z hayotini ham, atrofidagi voqelikni ham hikoyalar orqali tushunadi.

Koinot eshiklari ochilgan kun

Turli yillarda Gagarin shaxsiyatiga doim qiziqish bildirilgan. Uning hayoti va faoliyati to'g'risida turli fikrlar o'rtaq tashlangan. Ular qanchalik to'g'ri yoki afsonaga yo'g'rilgani noma'lum, ammo shunday bo'lsa-da, bu faktlar insonlarni ohanrabodek o'ziga tortadi.

“Barcha tentaklilar unga qarshi birlashadi...”

Bu yuristlar orasida shunday qoida bor: ilgari nima qilingan bo'lsa, uni qonunan yana qilish mumkin. Shu sabab ular umumiy adolat va insoniy aqlga qarshi chiqarilgan eski qarorlarni ehtiyotkorlik bilan qayd etib boradilar.

Yashirin tahdid: “Sizga pul kerakmi?”

Hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab 450 millionga yaqin inson qimor o'yinlaridan zarar ko'rmoqda. Xususan, ularning 80 million nafari juda og'ir moliyaviy va ruhiy holatni boshdan kechirmoqda. Internet, mobil texnologiyalar va kuchli marketing tufayli bu sanoat tobora kengayib, ayniqsa yoshlar va bolalar orasida xavfli darajada ommalashmoqda.

Bosh axborot hamkorimiz

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

O'ZBEKISTON TALABASI

Ma'naviy-ma'rifiy, ommaviy-uslubiy metodik jurnal

Bir yilda 10 son o'zbek, qisman ingliz va rus tillarida chop etiladi. 2022-yil 11-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 1590-raqam bilan ro'yxatga olingan. Obuna indeksi: 1393. Adadi: 2000 nusxa. Jurnalda e'lon qilingan materiallardagi dalil va raqamlarga mualliflar javobgar. Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin. Tahririyat manzili: Toshkent shahri Chilonzor tumani Novza ko'chasi 14-uy. “Invest Book” bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Uchtepa tumani Foziltepa ko'chasi 12-B uy, 30.04.2026-yilda chop etishga ruxsat berildi. Jurnal obunasi, sotuvi hamda reklama xizmati yuzasidan +99891 077 75 75 raqami orqali ma'lumot olishingiz mumkin. Maqolalar quyidagi manzil orqali qabul qilinadi: @uzb_talabasi

Jamoat kengashi

Isajon SULTON
Alisher SHODMONOV
Ravshan ERMATOV
Olim TOSHOYEV
Dilorom KARIMOVA
Nodir JONUZOQ
Nazokat AZIM

Abduvali XOLIQOV
Kamoliddin O'RINBOYEV
Gulmira MUSAJONOVA
Jenisbek PIYAZOV
Ayub SHAHOIDDINOV
Iqbol QO'SHSHAYEVA
Bahrom IRZAYEV

Muassis

“INTEGRATION CENTR
UMID” MCHJ

Direktor

Chorshanbi XOLMATOV

Bosh muharrir

Sirojiddin IBROHIM

Navbatchi muharrirlar:

Otash YASHIN
Aziz ABDUMALIK

Jurnal tahririyat
kompyuter markazida
terildi va sahifalandi

Sahifalovchi-dizayner

Rahmatjon YUNUSOV



Mundaraja

“KELAJAKMUHANDISLARI”: FESTIVALDA NIMALARNI KO’RDIK?	02
KO’RINMAYDIGAN YOLG’IZLIK	10
YANGI OLAMLARNI KASHF ETIB... ..	14
YASHIRIN TAHDID: “SIZGA PUL KERAKMI?”	16
ISKANDAR SOLIYEV: “SHAHAR ODAMLAR UCHUN QURILADI!”	20
MUDROQ HAMDA UYG’OQ ZAMONLAR	26
“LAHZANI TUTIB QOL, YASHAB O’T LAHZANI...”	28
TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI: MUTAXASSISLARNING YANGI AVLODINI QARSHI OLING!	32
DUNYONING APRELDAGI MEHMONLARI	36
AYOL RANGI	42
HISSIYOTLAR LABORATORIYASI	46
“BARCHA TENTAKLAR UNGA QARSHI BIRLASHADI...”	50
KOINOT ESHIKLARI OCHILGAN KUN	54
MUHAMMAD SHARIF: JAZO	58
ТРАГЕДИЯ ДУХА В МЕЩАНСКОМ БОЛОТЕ: ОДИНОЧЕСТВО ТВОРЦА ПЕРЕД ЛИЦОМ СИСТЕМЫ	68
TINCH YASHASAK BO’LMAYDIMI?	70




“KELAJAK MUHANDISLARI”



Bilim va g'oya-
ni mab-
l a g' g a
aylantirish – innovatsiya, mab-
lag'ni bilim va g'oyaga chaqish
– ilm. Ikkisi egiz tushuncha. Za-
monaviy dunyoda turmoq uchun
ilm-fan bilan baqamti yurmoq,
yangilanishlarni muttasil kuzat-
moq, turmush tarziga singdirmoq
afzal. Bugun davlat ham, jamiyat

ham innovator, olim, ixtirochi-yu kashshofga birdek muhtoj. Ayniqsa, yosh olim yo ixtirochi o'z tengdoshidan besh-o'n yil oldinga ketib, fanda ilgarilasa, ilmda tengsiz bo'lsa – bu mamlakat yutug'i. 28-30-aprel kunlari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan Toshkentda o'tkazilgan “Kelajak muhandislari” xalqaro festivali ana shunday yosh, tashabbuskor va ijodkor muhandislarni bir maydonga jamlab, ularni o'z salohiyatini namoyon etish, innovatsion loyihalarini keng jamoatchilikka taqdim etishga imkoniyat yaratdi. Biz ham mazkur tadbirda ishtirok etib, texnika ijodkorligi, yuksak texnologiyalar hamda sun'iy intellekt imkoniyatlari o'zaro uyg'unlashgan festival taassurotlari asosida reportaj tayyorladik.

FESTIVALDA NIMIALARNI KO'RDIK?



Festival muhandislikning 9 ta eng dolzarb yo'nalishlarini qamrab olgan bo'lib, unda aviatsiya, agrotexnologiyalar, mashinasozlik, robototexnika, chip dizayn, yashil energetika, arxitektura hamda tibbiyot muhandisligi sohalarida 34 ta respublika-xalqaro darajadagi musobaqa va amaliy sinovlar tashkil etildi.

“Kelajak muhandislari” xalqaro festivalidan asosiy maqsad yoshlarni ilmiy-texnik ijodkorlikka jalb etish, innovatsion g'oyalarini hayotga tatbiq etish uchun imkoniyat yaratish, shuningdek, fan-texnika sohasidagi milliy istiqbolni ta'minlaydigan yangi avlod muhandislarini shakllantirishdir. Shu bilan birga, festival ta'lim tizimi va ishlab chiqarish sohasi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga zamin yaratdi.



Tantanalı ochilish marosimi

Toshkent shahridagi "Alpomish" muz saroyida nufuzli xorijiy mehmonlar, xalqaro ekspertlar hamda soha mutaxassislari ishtirokida "Kelajak muhandislari" xalqaro festivalining ochilish marosimi tantanalı ravishda o'ldi. Festivalni Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining birinchi o'rinbosari Sardor Radjabov kirish so'zi bilan tantanalı ochib berdi.

Ilm-fan va texnologiyalar markaziga aylangan ushbu nufuzli festival doirasida 30 ga yaqin musobaqa va tanlovlar tashkil etilib, 14 ming nafardan ortiq ishtirokchilar bir maydonda jam bo'ldi.

Festival doirasida AQShdagi Jahon savdo markazi prezidenti va bosh direktori Jonathan Freedman, Jahon muhandislik tashkilotlari federatsiyasi ijrochi direktori Moez Chakchouk, Nobel mukofoti sovrindori Serge Haroche, BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi doimiy vakili Akiko Fujii kabi nufuzli xorijiy mehmonlar ham ishtirok etib, o'z nutqlari bilan tadbir mazmunini yana-da boyitdi.

Shuningdek, "Kelajak muhandislari" ilmiy konsorsiumining tashkil etilishi tantanalı e'lon qilindi. Bu O'zbekiston, Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'izistonning yetakchi texnika oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida hamkorlik aloqalarini yana-da mustahkamlashga qaratilgan muhim tashabbus bo'ldi.



musobaqasi, Robo Mission, First Global yo'nalishlarining har biri bo'yicha musobaqalarni kuzatar ekanmiz, ishtirokchilar tomonidan bellashuvga kiritilayotgan turli-tuman robot-qurilmalarning shiddatli ovozlari, ularni boshqarayotgan qatnashchilarning hayajoni, qo'llab-quvvatlayotgan ish-qibozlarning hayqiriqlari bizlarni ham ana shu serzavq davralarning muxlisiga aylantirdi. Bellashuvlarni kuzata boshladik.

**20 dan ziyod
jamoa o'z
elektromobili
bilan keldi**



Robo Sumo yo'nalishida bellashuv maydoniga chiqqan robot-mashina shahd bilan tezkor harakatlanib, qarshisidagi boshqa robotni maydondan surib chiqardi, atrofni olqishlar tutib ketdi. "G'olib" deb topilgan robotni boshqargan yigitchani esa tengdoshlari bir zumda o'rab olib, tabriklay boshladilar.


- Yoshim 14 da. Toshkentdagi "Robbit" akademiyasida o'qiyman. Yarim yildan beri ustozlarimdan robototexnika sirlarini o'rganib kelyapman. Robo Sumo - konstruktorlik loyihasi asosida yig'ilgan kichik o'lchamdagi robotlar kurashining bir turi. Yo'nalish nomi yaponcha Sumo kurashi nomidan olingan. Bellashuv qoidalari ham shunga o'xshash, faqat bu kurash turida insonlar emas, robotchalar o'zaro bellashadi. Sumorobotlar arenadan bir-birini surib chiqarishga harakat qiladi. Ularni boshqarayotgan muhandislarning vazifasi esa, odatda, infraqizil

Begzod gaz isrofini kamaytirib, 10 mln foyda keltiryapti

follower sohibini suhbatga tortdik. Robotingiz chiziqlar bo'ylab aniq va tez harakatlandi. Bunday natijaga qanday erishish mumkin? Umuman, Line Follower robotlari, ularning o'ziga xos jihatlari haqida gapirib bera olasizmi?

- Albatta, robotim Arduino Nano kontrolleri asosida kodlangan. Oddiyroq qilib tushuntiradigan bo'lsam, kontroller unchalik murakkab bo'lmagan robototexnika va dasturlash loyihalarida qo'llanadigan ko'p qirrali qurilma bo'lib, uning vositasida loyihalarni aniq tarzda avtomatlashtirish mumkin. "Line Follower"ga 5 ta line sensor, ya'ni chiziqli datchik o'rnatilgan, robot shassilari faneradan yasalgan, motor kuchi - 1000 rpm ga teng, 4 ta bo'lmadan iborat. Musobaqalarda yaxshi natijalarga erishish uchun esa, eng avvalo, kodlash amaliyotini to'g'ri bajarish kerak. Shuningdek, layn-datchik bir maromda ishlab turishi lozim. Musobaqalarga uzoq va jiddiy tayyorgarlik ko'rdim. Robotimni yasashga ikki hafta vaqt ketdi, test sinovidan o'tkazdim hamda musobaqa talablariga moslashtirdim, - deydi Abdulbosit Abdullayev.

Darhaqiqat, Abdulbosit yosh bo'lishiga qaramay, juda bilimli va mas'uliyatli yigitcha ekan. Yasagan robotning texnik parametrlarini tushuntirar ekan, biz qarshimizdagi o'n olti yoshli navqiron yigitcha misolida yaqin istiqbolda insoniyat tarixidagi navbatdagi texnologik inqiloblarga turtki beruvchi ko'z ko'rib quloq eshitmagan ixtirolar egalari - yurtimiz kelajagining muhandislari ulg'ayib borayotganiga ishonch hosil qildik.



yoki ultratovush sensorlari yordamida raqib robotni aniqlash hamda maydon chegaralarini buzmaganda holda, uni maydondan tashqariga surib chiqarib yuborishga erishishdir. Ko'rib turganingizdek, hozirgina mening robot mashinam bu vazifani a'lo darajada uddaladi, - deydi Abdulaziz Ortiqbayev.

Robotlarning yana bir bellashuvi - Robo follower musobaqalari bo'layotgan arenaga yuzlanamiz. Bu yerda ham yangi avlod muhandislarining bir-biridan o'zgacha ko'rinishdagi "ulov"lari texnik jihatdan mukammalligi va tezkorligini ko'z-ko'z qilayapti. Robo follower - maxsus trayektoriya bo'ylab start chizig'idan finishgacha bo'lgan masofani belgilangan miqdordagi aylanma harakatlar asosida eng qisqa vaqt ichida bosib o'tishga asoslangan musobaqalardir. Line Follower robotlari harakatlanayotgan maxsus trassa ingichka qora chiziqlardan iborat. Robotlarning shu chiziq bo'ylab og'ishmay harakatlanishi uchun esa uni boshqarayotgan yosh muhandislar juda puxta tayyorgarlik ko'rishlari, barcha texnik parametrlarni aniq belgilashlari zarur. Ayni shu musobaqani kuzatish jarayonida ko'z o'ngimizda belgilangan yo'nalishni tez hamda tartib bilan bosib o'tib muvaffaqiyat qozongan Line

Yangi avlod elektromobillari

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipov "Kelajak muhandislari" xalqaro festivali doirasida o'tkazilgan "Yangi avlod avtomobili" musobaqasi jarayonlari bilan tanishdi.

Musobaqada respublikaning turli hududlaridan kelgan 20 dan ortiq jamoa hamda 200 nafardan ziyod yosh muhandislar o'zlari ishlab chiqqan innovatsion elektromobillar bilan ishtirok etdilar.

Asosiy mezon sifatida minimal energiya sarfi evaziga maksimal masofani bosib o'tish qobiliyati belgilangan bellashuv davomida prototiplar 10 kilometrlik yopiq trassa sharoitida sinovdan o'tkazildi. Kuzatuv davomida vazir yosh muhandislar ishlanmalarini yuqori baholab, ularning yaratuvchan g'oyalari va innovatsion yondashuvlari haqida ishtirokchilar bilan suhbatlashdi hamda o'z fikr va tavsiyalarini bildirdi. Musobaqa davomida taqdim etilgan ishlanmalar orasida ayniqsa energiya tejamkorligiga qaratilgan yechimlar ajralib turdi. Bu esa O'zbekistonda muhandislik tafakkuri tobora amaliy va innovatsion yo'nalishga o'tayotganini ko'rsatadi.

Shundan so'ng, vazir Qo'ng'iro'tboy Sharipov festival dasturidan o'rin olgan zamonaviy texnologiyalar va muhandislik yo'nalishidagi bellashuvlarni ko'zdan kechirdi. Jumladan, Tiny Whoop, dron futbol (soccer), robot-sapyor, Robo War, Robo War Mini, gumanoid robotlar, robo futbol, robo sumo, robo follower, WRO RoboMission, chip dizayn, Robo Coders, 3D

Nozima o'z raketasi bilan O'rta Osiyoda birinchi



modellashtirish hamda mexanizmlar estafetasi kabi musobaqalar bilan tanishildi. Shuningdek, yosh muhandislarining innovatsion ishlanmalari, robototexnika yechimlari va amaliy loyihalari ko'zdan kechirilib, ularning bilim va salohiyatini yana-da rivojlantirish muhimligi ta'kidlandi.



Gaz isrofini cheklovchi innovatsion yechim

Festival ishtirokchisi Begzod Rajabov taklif qilayotgan qurilma metan quyish shoxobchalarida kuzaatiladigan muhim muammolardan biriga yechim bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, bunday shoxobchalarda ortiqcha bosim ostidagi gaz havoga chiqarib yuboriladi, bu esa sezilarli iqtisodiy yo'qotishlarga sabab bo'ladi. Begzodning ishlanmasi esa aynan shu isrofini kamaytiradi.

Qurilma yuqori bosim ostida chiqib ketayotgan gazni ushlab qoladi va uni qayta yoqilg'i quyish tizimiga yo'naltiradi. Natijada gaz yo'qotilishining oldi olinib, oyiga o'rtacha 10 million so'mgacha iqtisodiy zarar kamaytirilishi mumkin. Aytishicha, hozirda ushbu qurilma Samarqand viloyatidagi 4-5 ta metan quyish shoxobchasida muvaffaqiyatli joriy etilgan. Unga bo'lgan qiziqish esa kundan-kunga ortib bormoqda. Ha, aytgancha, yosh innovatorimiz Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining 3-bosqich talabasi.

Shovqinsiz va ixcham energiya manbai

“Kelajak muhandislari” xalqaro festivalida Toshkent kimyo-texnologiya instituti magistranti Qilichbek Safarov tomonidan taqdim etilgan innovatsion shamol generatori mutaxassislar va ishtirokchilar e’tiborini tortdi. Mazkur qurilma past tezlikdagi shamollardan samarali foydalanishga mo’ljallangan bo’lib, u Arximed vintiga asoslangan aerodinamik prinsip asosida ishlab chiqilgan. Generatorning asosiy texnik ustunliklaridan biri – atigi 3 m/s tezlikdagi shamolda ham barqaror ishlashi va elektr energiyasi ishlab chiqarish qobiliyatidir. Qurilmaning yana bir muhim afzalligi – past shovqin darajasi. An’anaviy shamol turbinalarida kuzatiladigan aerodinamik shovqin muammosi ushbu ishlanmada sezilarli darajada kamaytirilgan. Natijada generatorni urban hududlarda, jumladan, ko’p qavatli binolar tom qismida joylashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

Loyihaning strategik ahamiyati shundaki, ushbu generatorni quyosh panellari bilan birgalikda ishlatish orqali gibridd energiya tizimini yo’lga qo’yish mumkin. Bunday tizim xonadonlarni mustaqil energiya manbai bilan ta’minlash bilan birga, ortiqcha ishlab chiqarilgan elektr energiyasini tarmoqqa uzatish orqali qo’shimcha iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi.



Raketa yasayotgan ixtirochi qiz

“Kelajak muhandislari» festivalidagi eng gavjum pavilyonlardan biri raketa modellari namoyish etilgan maydon bo’ldi. Quvonarlisi, bu yo’nalishda nafaqat yigitlar, balki ilm-fan va texnologiyaga qiziqqan qizlar ham faol ishtirok etayotgani edi. Raketa modellari yonida turib, o’z loyihalari haqida ishonch bilan gapirayotgan yosh ishtirokchilardan biri Olmazor tumanidagi 278-maktabning 11-sinf o’quvchisi Nozimaxon Murodova.

– 9-sinfdan buyon sun’iy yo’ldoshlarni yasash va ularni osmonga uchirishga qaratilgan TechnoCamp loyihasida faol ishtirok etib kelmoqdaman. Aynan shu tajriba raketa modelsozligiga bo’lgan qiziqishimni yana-da kuchaytirdi. Qiziqish va intilishlarimni payqagan ustozim Kozimjon aka, shu sohaga ishtiyoqi baland bo’lgan o’quvchilarni birlashtirib, “New Stars” jamoasini tashkil etdilar, deydi Nozimaxon.

Nozimaxonning aytishicha, jamoa a’zolari raketa modellari yasab, Qirg’iziston va Qozog’istonda o’tkazilgan musobaqalarda yurtimiz nomidan ishtirok etib, faxrli birinchi va ikkinchi o’rin-

Loyihangizga biroz mehr bering



larni qo'lga kiritgan. Shuningdek, "MSITF-2025" hamda "Kelajak muhandislari-2025" tanlovlari-da ham bir necha bor g'oliblikni qo'lga kiritib, sovrindorlar safidan joy olishga muvaffaq bo'lishgan.

Raketa modellarini uchirishga mo'ljallangan musobaqalarda g'olib parvoz davomiyligiga qarab aniqlanadi. Raketa osmonga ko'tarilgandan so'ng parashyut, lenta, rotoshut yoki aeroplan mexanizmi ochiladi va aynan shu paytdan boshlab vaqt hisoblanadi. Qancha uzoq havoda qolsa, natija shuncha yuqori baholanadi. Odatda bunday raketalar 80 metrgacha balandlikka ko'tarilishi mumkin.

- Tengdoshlarimga bir narsani aytgan bo'lardim: g'oya yoki loyihangizni ishlab chiqishda ideal sharoit kutmang - harakat qiling, vaqt ajrating, sinang, xatolardan saboq oling va o'z g'oya yoki loyihangizga biroz mehr bering. Kichik qadamlar bilan katta o'zgarishlarga erishasiz, albatta. O'z sohangizni chuqurroq o'rganing, zamonaviy texnologiyalarni bilish va jamoa bilan ishlash ko'nikmasi har qanday muvaffaqiyatning asosi bo'la oladi. Zero, "Hech qanday muvaffaqiyat yengil yo'l bilan kelmaydi, agar yengil kelgan bo'lsa, u muvaffaqiyat emas". Eng katta maqsadim - O'zbekistonning faxri bo'lish! Jamoam, ustozlarim va safdoshlarim bilan cheksiz faxrlanaman. Kelajakda xorijiy musobaqalarda ham ishtirok etib, O'zbekiston bayrog'ini baland ko'targan holda raketa modellarimizni munosib darajada namoyish etishni istayman, - deya so'zini yakunladi Nozimaxon.



Shaxmat taktikalari va robot qo'l yaratiladi

O'zbek tilida gaplashuvchi shaxmat doskasi

Sun'iy intellekt hayotimizga faol kirib kelgani sari u bilan bog'liq xavotirlar ham ko'paygandan ko'paymoqda. Ammo tinib-tinchimagan innovator yoshlar sun'iy ongni ishga solib, turli qurilma va vositalar ishlab chiqishdan to'xtamoqchi emas. Shunday yoshlardan biri, innovator Samandar Xudanov "Kelajak muhandislari" xalqaro festivalida o'zining aqli shaxmat doskasi loyihasi bilan qatnashmoqda. Ushbu qurilma shaxmatni o'rganishni osonlashtirish va o'yinchilar mahoratini oshirish uchun ishlab chiqilgan.

Shaxmat doskasidagi RGB LED tizimi figurani qayerga yurish mumkinligini yoritib beradi. Sun'iy intellekt esa boshlang'ich darajadan professional bosqichgacha moslashadi. O'yinchilar AI bilan o'ynab, xatolarini tahlil qilishi va tajribasini oshirishi mumkin. Qurilma o'zbek, rus va ingliz tillarida ishlaydi. Ovozli yordam funksiyasi "noto'g'ri yurish" yoki "shoh" kabi holatlarni aytib turadi. Shuningdek, unda ikki shaxs "navbatma-navbat dona suradigan" rejim hamda "sun'iy intellektga qarshi dona surish" imkoniyati mavjud.

Kelajakda loyiha tarkibiga professional shaxmat taktikalar bazasi va robot qo'l texnologiyasini qo'shish rejalashtirilgan. Ya'ni AI chuqur tahlil qilib, bir necha yurishni oldindan hisoblaydi, eng optimal variantni tanlaydi va donalarni doskada mustaqil ravishda harakatlantiradi.





“Eko daraxt” iflos havoni o'ziga yutadi

* * *

Nurmuhammad MIRAJEV,
“BuxDU Robots and Me” jamoasi a'zosi:
“Biz yoshlarga ko'proq ishonch kerak”

– Sohamizning rivojiga bir omil to'siq bo'lishi mumkin. U ham bo'lsa ishonch. G'oya va loyihalarni joriy etishda men soha vakillarining bizga va loyihalarimizga bo'lgan ishonchi doim mana shunday, yuqori bo'lishini xohlayman. Chet eldan olib keltirilgan mahsulotlarga bo'lgan ishonch kabi, bizning ishlab chiqqan ishlanmalarimizga ham ishonch bildirishlarini istardim. Zero, ba'zi loyihalarimiz chet el mahsulotlaridan qolishmaydi. Biz ishlab chiqayotgan loyihalar O'zbekiston yoshlarining intellekti bo'lib, milliy mahsulotlarimizdir. Bu ishonch nafaqat texnologik rivojlanish, balki mamlakatimizning iqtisodiy o'sishiga ham katta hissa qo'shadi.

Festival davomida nafaqat yurtimiz, balki xorijdan kelgan mutaxassislar, investorlar va yosh muhandislar bilan muloqot qildim. Bu bizga g'oyalar almashish, takliflar olish va kelajakdagi hamkorliklar uchun eshiklar ochdi. Ishtirokim menga katta ilhom va yangidan-yangi maqsadlar berdi, ayniqsa, o'z ishlanmalarimiz orqali yurtimiz taraqqiyotiga hissa qo'shish yo'lidagi ishonchim mustahkamlandi.

/2026.Nº4/35/

Ekologik muammolarga innovatsion yechim

Dehli, Guanchjou, Dakka, Nyu-York, Gonkong va Los-Anjeles shaharlari atmosferaga chiqarilayotgan uglerod dioksidi (CO₂)ning eng yirik ishlab chiqaruvchilari hisoblanadi. Bu shaharlarning har biri atmosferaga yiliga 150 mln tonnadan ortiq uglerod dioksidi chiqaradi. Uglerod dioksidining asosiy texnologiya manbalari sifatida sanoat korxonalarini, transport vositalarini hamda qishloq xo'jaligi sohasini ko'rsatish mumkin. Daraxtlarning kesilishi hamda yashil hududlarning qisqarishi hisobiga atmosferaga chiqarilayotgan chiqindilar miqdori yana-da ortib bormoqda. Afsuski, so'nggi yillarda poytaxtimiz Toshkent ham bu reytingning eng yuqorisida joylashgan “qizil” hududlar qatorida tez-tez tilga olinmoqda. Vaziyat tobora jiddiy tus olayotgan bir paytda muammoning yechimi bormi, degan tabiiy savol tug'iladi. Albatta, havo sifatini yaxshilash uchun, eng avvalo, yashil hududlarni ko'paytirish zarur.

Festivalda namoyish etilgan “Eko daraxt” qurilmasi ekologiyamizda kuzatilayotgan muammolarga innovatsion yechim sifatida taklif qilindi. Ushbu qurilma havodagi chang, tutun va zararli gazlarni o'ziga yutib, atrof-muhitga toza kislorod chiqaradi. Shu bilan birga, u havoda tarqalayotgan bakteriya va viruslardan himoya qilish imkonini ham ta'minlaydi.



O'ZBEKISTON TALABASI

Loyihamiz xorijda qiziqish uyg'otmoqda

* * *

Asadbek AKBAROV, Qo'qon davlat universiteti magistranti:

– “Eko daraxt” loyihamizni yaratishdan asosiy maqsad – bugungi kunda ekologiyada kuzatilayotgan muammolarga innovatsion yechim taklif qilish. Atmosferada kislorod yetishmovchiligi, havodagi chang zarralari hamda zavod va avtomobillardan chiqayotgan zararli gazlar inson salomatligi va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bois biz “Eko daraxt” loyihasini ishlab chiqdik. Ushbu qurilma havodagi zararli gazlar va ifloslangan havoni o'ziga singdirib, natijada tozalangan va kislorodga boy havo chiqaradi. Loyiha ekologik muammolarni kamaytirish, ayniqsa, zararli gazlarning inson salomatligiga ta'sirini pasaytirishga xizmat qiladi.

Ayni paytda loyihamiz xorijda ham qiziqish uyg'otmoqda. Xususan, Hindiston tomoni bilan hamkorlik bo'yicha muzokaralar olib boryapmiz, hozir shartnoma va kelishuvlar jarayonidamiz.



* * *

Juda qizg'in va yangiliklarga boy tarzda o'tgan “Kelajak muhandislari” xalqaro festivali ta'rif etilayotganidek, nafaqat muhandislik sohasidagi innovatsion texnologiyalar namoyishi, balki texnikaviy ijodkorlik salohiyati, ixtirochilik qobiliyati hamda ilmiy-texnik tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan yoshlar bayramiga aylanib ketdi. Festivalning tantanali yopilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi rahbari o'rinborsari Ilhom Siradjev, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipov, Qishloq xo'jaligi vaziri Ibrohim Abdurahmonov hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri Sherzod Hidoyatov ishtirok etib, yosh muhandislarni qutladilar.

Shuningdek, marosim davomida tanlov va musobaqalarda yuqori natija ko'rsatgan ishtirokchilar taqdirlanib, ularga pul mukofotlari, qimmatbaho sovg'alar hamda yetakchi kompaniyalarda amaliyot o'tash imkoniyatlari berildi.

Aziz ABDUMALIK



KO'RINMAYDIGAN YOLG'IZLIK

Bugun odamlar orasida yashaymiz. Suhbatlashamiz, kulamiz, o'qiyamiz, ishlaymiz. Tashqaridan qaraganda hammasi joyidadek ko'rinadi. Ammo ba'zan insonning qalbida hech kim ko'rmaydigan, hech kim sezmaydigan bir bo'shliq paydo bo'ladi. Bu – ko'rinmaydigan yolg'izlik. Yolg'izlik har doim ham yolg'iz qolgan paytda bilinmaydi.

Ba'zan, u eng gavjum joylarda ham keladi. Masalan, universitet yo'lagida talabalar kulib gaplashib turadi, kimdir darsga shoshadi, kimdir do'stlari bilan hazil-lashadi. Shu odamlar orasida bir talaba ham yuradi. Tashqaridan qaraganda u ham boshqalardek: qo'lida telefon, yuzida odatiy sokinlik, darsga kiradi, javob beradi, kulib ham qo'yadi. Ammo ichida aytilmagan gaplar, hech kimga ko'rsatmaydigan charchoq, tushuntirib bo'lmaydigan bo'shliq yashaydi. Menimcha, bugungi davrning eng og'ir jihati ham shunda: inson ko'pincha dardini yashirishni o'rganib olgan. "Yaxshimisan?" degan savolga "ha, yaxshiman" deb javob beradi. Lekin bu javob har doim ham haqiqat bo'lavermaydi. Gohida "yaxshiman" degan so'z ortida "meni tushuning", "meni tinglang", "men ham charchadim" degan ovozsiz iltijo yashiringan bo'ladi. Zamonaviy hayot bu holatni yana-da kuchaytirdi. Telefonlar, ijtimoiy tarmoqlar, tezkor yozishmalar bizni bir-birimizga yaqinlashtirgandek tuyuladi. Ammo samimiy suhbat, ko'zga qarab gaplashish, chin dildan hol so'rash kamayib bormoqda. Minglab obunachisi bor insonning dardini eshitadigan bitta yaqin odami bo'lmasligi mumkin. Har kuni o'nlab xabar oladigan odam kechasi o'zini baribir yolg'iz his qilishi mumkin. Demak, aloqa ko'paygani bilan yaqinlik har doim ham ko'paymaydi.



Bir voqea ko'p narsani anglatadi. Talabalardan biri har doim darsda faol, hamma bilan yaxshi muomalada, yuzidan tabassum arimaydigan yigit edi. Ko'pchilik uni juda baxtli, tashvishi yo'q inson deb o'ylardi. Bir kuni u darsdan keyin jim o'tirib qoldi. Yoniga bir kursdoshi borib: "Bugun boshqacharoqsan, rostini ayt, yaxshimisan?" deb so'radi. Shunda u avval kuldi, keyin esa ko'zlari namlandi. Chunki unga maslahat emas, tanqid emas, aynan shu oddiy savol kerak ekan. Ba'zan insonni qutqarish uchun katta gaplar emas, chin dildan berilgan bitta savol kifoya qiladi. Shu o'rinda bir narsaga munosabat bildirish kerak: biz ko'pincha insonning tashqi ko'rinishiga qarab xulosa chiqaramiz. Kulib turgan odamni baxtli, jim turgan odamni befarq, kamgap odamni sovuq deb o'ylaymiz. Aslida esa har bir insonning ichida biz bilmaydigan bir olam bor. Kimdir oilasidagi muammo bilan kurashayotgan bo'lishi mumkin, kimdir o'ziga ishonchini yo'qotgan, kimdir do'stlardan uzoqlashgan, kimdir esa shunchaki tushunilishni kutayotgan bo'ladi.

Ko'pincha ko'rinmaydigan yolg'izlik sokin insonlar qalbida yashaydi. Ular ko'p gapirmaydi, dardini oshkor qilmaydi. Balki ular hech kimni bezovta qilishni istamas. Balki bir vaqtlar tushunilmagani uchun yana ochilishdan qo'rqqar. Balki ularga ham faqat bir mehrli savol, bir samimiy suhbat yetishmayotgandir.

KO'NGIL BEKATI

Lekin yolg'izlik — hukm emas. Bu holatdan chiqish mumkin. Eng avvalo, inson o'zidan qochmasligi kerak. Ba'zan biz hammaga yaxshi ko'rinishga urinib, o'z ichki holatimizni inkor qilamiz. Aslida esa tuza-lish o'z holatini tan olishdan boshlanadi. “Ha, men charchadim”, “ha, ichimda bo'shliq bor”, “ha, menga samimiylik yetishmayapti” deb o'ziga rost ayta olgan odam allaqachon yengillik tomon birinchi qadamni qo'ygan bo'ladi.

Ko'rinmaydigan yolg'izlikdan chiqishning yana bir yo'li — o'zini butunlay yopib qo'ymaslik. Har doim ham ko'p odam kerak emas. Ba'zan bitta ishonchli insonning o'zi kifoya. Yaqin do'st, opa-singil, aka-uka, ota-ona, ustoz — kim bilandir ichidagi gaplarni bo'lishish qalbdagi yukni yengillashtiradi. Aytilgan dardning og'irligi kamayadi. Ichda yig'ilib qolgan sukut esa insonni ko'proq charchatadi. Yana bir oddiy holatni olaylik. Ba'zi talabalar yangi muhitga kelganda o'zini begona his qiladi. Yangi guruh, yangi shahar, yangi odamlar — hammasi qiziqarli ko'rinsa-da, ichki moslashish oson kechmaydi. Shunday paytda kimdir “kel, birga dars tayyorlaymiz”, “bugun birga ovqatlanamiz”, “senga yordam kerak emasmi?” desa, bu oddiy e'tibor o'sha inson uchun katta tayanchga aylanishi mumkin. Demak, mehr har doim katta ishlar bilan emas, kichik harakatlar bilan ham ko'rinadi. Bunday holatda hayot bilan aloqani uzib qo'ymaslik juda muhim. Inson siqilgan payt-



da hammadan va hamma narsadan chekinishni xohlaydi. Lekin aynan shunday paytda kichik odatlar qalbgaga taskin beradi: ertalab sayr qilish, kitob o'qish, kundalik yozish, sevimli mashg'ulot bilan shug'ullanish, tabiat qo'ynida yurish, ibodat qilish, biroz sukutda o'zini tinglash. Bular oddiy narsalardek tuyuladi, ammo aynan shu oddiylik ko'pincha insonni ichki qorong'ilikdan olib chiqadi. Yolg'izlikdan chiqishning yana



bir yo'li — boshqalarga yaxshilik qilish. Bu g'alati tuyulishi mumkin, ammo inson boshqalarga mehr berganida o'z qalbida ham iliqlik paydo bo'ladi. Kimningdir holidan xabar olish, yaxshi so'z aytish, yordam qo'lini cho'zish, bir insonni tinglash — bularning barchasi nafaqat boshqani, balki o'zimizni ham davolaydi. Chunki mehr ulashgan insonning qalbi ham bo'sh

qolmaydi. Menimcha, bugun jamiyatimizga eng kerak narsa — samimiy e'tibor. Biz ko'p narsani muhokama qilamiz, ko'p narsaga baho beramiz, lekin ba'zan yonimizdagi insonning ko'ziga qarab, uning holatini sezishni unutamiz. Holbuki, insonni ba'zan katta yutuqlar emas, kichik mehrlar ruhlantiradi. Bir og'iz iliq so'z, bir samimiy suhbat, bir daqiqalik tinglash kimningdir ichki dunyosida katta o'zgarish yasashi mumkin. Shuni unutmash kerak: har bir jim turgan inson baxtsiz emas. Ammo har bir tabassum ortida ham xotirjam qalb yashamaydi. Shuning uchun bir-birimizga biroz mehrliroq, biroz e'tiborliroq bo'lishimiz kerak. Balki kimningdir "yaxshiman" degan javobi ortida yordam so'rovi yashiringandir.

Ko'rinmaydigan yolg'izlik insonni sindirish uchun emas, ba'zan uni o'ziga qaytarish uchun ham keladi. U inson qalbiga bir haqiqatni eslatadi: mehrsiz yashab bo'lmaydi, samimiyatga ehtiyoj doim bor, tushunilish esa har bir yurak uchun muhimdir. Eng muhimi — hech kim bu holatda abadiy qolib ketmaydi.

Har bir qorong'ilikning oxiri yorug'lik bilan tugaydi. Har bir siqilgan qalb ham bir kun yengil tortadi. Ba'zan bunga vaqt kerak bo'ladi, ba'zan suhbat, ba'zan esa shunchaki bitta mehrlu inson. Muhimi, inson umidni qo'yib yubormasligi kerak.

Yolg'izlik ko'rinmaydi. Ammo uni yengish mumkin. Buning uchun ko'z emas, qalb uyg'oq bo'lishi kerak. Chunki ko'rinmaydigan yolg'izlikning eng katta davosi — ko'rinadigan mehrdir.

Firdavs RUSTAMOV
O'zMPU talabasi



YANGI



OLAMLARNI

KASHF ETIB...

K

o'p til bilish insonning dunyoqarashini kengaytiradi, chunki har bir til alohida madaniyat, alohida fikrlash tarzi va o'ziga xos ruhiyatdir. Men uchun tillar shunchaki vosita emas, balki turli xarakterga ega, turli his-tuyg'ular bilan to'yingan alohida

dunyolardir.

Inson dunyoga kelganida unga birinchi bo'lib bitta til beriladi - ona tili. U shunchaki so'zlar yig'indisi emas. U bolalik xotiralari, ilk eshitilgan allalar, yurakka yaqin va samimiy ohangdir. Men uchun bu o'zbek tilidir. Uning har bir so'zida ajdodlarimning nafasi, har bir maqolida esa asrlar davomida yig'ilgan donishmandlik bor.

Ammo hayot faqat bitta xonadan iborat emas. U ko'plab eshiklari bor ulkan bir imoratga o'xshaydi.

Har bir yangi til esa ana shu imoratning yana bir eshigini ochadi.

MDH davlatlari - o'nlab xalqlar, yuzlab lahjalar, minglab tarixlar tutashgan ulkan makon. Shu kenglikda rus tili o'ziga xos ko'prik vazifasini bajaradi. O'zbek, qirg'iz, qozoq, rus, ukrain va belorus xalqlari bir joyda uchrashganda, ularni ko'pincha aynan shu til yaqinlashtiradi.

Rus tili menda alohida bir kayfiyat uyg'otadi: sokin, chuqur, ammo nihoyatda mazmunli bir olam. Ayniqsa, badiiy kitoblar bilan yuzlashganimda bu holat yana-da yaqqol seziladi: har bir jumla ichida tuyg'ular, ichki kechinmalar bor.

Rus tilini bilish men uchun faqat so'zlarni tushunish emas. Bu keng va rang-barang insoniy olamga kirish, uning adabiyati, ruhiyati va ichki tovushini anglash imkonidir.

Ingliz tili haqida ko'p gapirilgan, ko'p yozilgan. Ammo uni shunchaki "kerakli til" deb atash yetarli emas. U bugun insoniyatning umumiy tiliga aylangan. Ilm-fan maqolalari, texnologiya yangiliklari, adabiyot durdonalari, sayohat yo'riqnomalari – barchasi shu tilda. Go'yo butun dunyo bitta tarmoq orqali bog'langandek. Shu oqim ichida bo'lish meni oldinga undaydi, izlanishga majbur qiladi, har kuni biroq bo'lsa ham o'sishga chorlaydi.

Ba'zi tillar faqat kommunikatsiya vositasi emas, ular o'zida alohida bir estetika, bir go'zallik olamini yashiradi. Fransuz tili ana shunday tillardan. Maktab partasida uning ilk so'zlarini o'rganar ekanman, men faqat grammatikani emas, balki musiqa tinglayotgandek bo'lardim.

Vaqt o'tib bu hissiyot yana-da chuqurlashdi. Podkastlar, qo'shiqlar, filmlar – bular men uchun oddiy mashg'ulot emas, balki estetik zavq manbaiga aylandi. Shunda tushundimki, biror tilni o'rganish uchun albatta amaliy sabab bo'lishi shart emas. Ba'zan uning jozibasi, nafisligi, ichki musiqasining o'zi yetarli. Ayrim bilimlar foyda uchun emas, balki go'zallikni his qilish uchun o'rganiladi.



AYRIM BILIMLAR GO'ZALLIKNI HIS QILISH UCHUN O'RGANILADI

Italyan tili – men nafaqat o'rganayotgan, balki o'zimni bag'ishlab yashayotgan til. Bu til meni tarix bilan yuzma-yuz keltiradi. Unda so'zlashganimda o'zimni go'yo qadimiy shaharlarda sayr qilayotgandek his qilaman. Har bir ko'cha, har bir bino o'z hikoyasini pichirlyotgandek. U menga Rim tarixini, Renessans san'atini, buyuk sivilizatsiyaning nafasini his qilishni o'rgatdi. Bundan tashqari gid-tarjimon sifatida Italiyadan kelgan mehmonlarga yurtimizni tanitar ekanman, bu lahzalarda ikki madaniyat bir-biriga yaqinlashadi, ikki tarix bir nuqtada uchrashadi.

Tillar o'rganish mening uchun to'xtamaydigan safardir. Har bir til yangi bir eshik. Va har eshik ortida yangi bir dunyo, yangi bir madaniyat, yangi bir hayot.

Sevinch KELDIYOROVA

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi



Yashirin talabid: "Sizga pul kerakmi?"

Internet va raqamli texnologiyalarning tobora rivojlanib borishi foydalanuvchilarga turli to'siqlarsiz saralanmagan va salbiy axborotni olish imkonini bermoqda. Internet platformalari, messenjer va ko'ngilochar ilovalarning kundan-kunga ko'payib borishi bir tomondan ijobiy o'zgarishlarni olib kelayotgan bo'lsa, boshqa tomondan bir qator ko'rinmas xavflarni ham keltirib chiqarmoqda. Ana shu xavflar orasidagi eng jiddiylaridan biri bu onlayn qimor o'yinlaridir.

"The Guardian" nashri tomonidan e'lon qilingan maqolada keltirishicha, hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab 450 millionga yaqin inson qimor o'yinlaridan zarar ko'rmoqda. Xususan, ularning 80 million nafari juda og'ir moliyaviy va ruhiy holatni boshdan kechirmoqda. Internet, mobil texnologiyalar va kuchli marketing tufayli bu sanoat tobora kengayib, ayniqsa, yoshlar va bolalar orasida xavfli darajada ommalashmoqda. Onlayn kazino va sport o'yinlariga pul tikish eng tez o'sayotgan yo'nalishlar bo'lib, ruhiy va jismoniy salomatlik, moliyaviy muammolar, oilaviy nizolar hamda jinoyatchilik xavfini oshirmoqda. Mutaxassislar sanoatning chuqur raqamli marketingi, sport homiyligi va ilmiy bahslarga bosimi orqali zararli oqibatlarni yashirayotganidan xavotirda. Qimor o'yinlari tobora global muammoga aylanayotgan bir paytda, uni sog'liqni saqlash masalasi sifatida ko'rib chiqish va qat'iy tartibga solish zarurligi ta'kidlanmoqda, deyiladi xabarda.



Qimor o'yinlarining qurbonlari soni kundan kunga ortib borar ekan, hukumatlar turli so'rovnomalar o'tkazib, bu holat oldini olish choralarini ilgari surmoqda. Xususan, Kanada Ruhiiy Salomatlik Markazi tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko'ra, so'nggi uch oy ichida o'smirlarning qariyb 10 foizi onlayn qimor o'ynagan. Ispaniyada 12-17 yoshdagi 3772 nafar o'smir ishtirokida o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra, 6,5 foiz respondentlar onlayn qimor o'yinlarida qatnashganliklarini bildirgan. Indoneziyada o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, onlayn qimor o'ynagan o'smirlar orasida stress, xavotir, depressiya va impulsiv xatti-harakatlar ko'proq uchrayotgani aniqlangan. Bu o'smirlar o'z muammolarini yashirishga intiladi, ko'proq yolg'izlanadi va ijtimoiy izolyatsiyaga duchor bo'ladi. Kanada o'tkazilgan keng qamrovli ilmiy izlanishda qimor o'ynovchi yoshlarning 43,6 foizi depressiyadan, 31,1 foizi kuchli stressdan, 68,8 foizi esa xavotirdan aziyat chekayotgani qayd etilgan. Demak, har uch qimorboz yoshdan ikkitasi hayotiy motivatsiyadan mahrum, hissiy beqarorlik va yolg'izlik botqog'iga botgan.

Xo'sh, dunyo miqyosida bu kabi holatlar avj olib borar ekan, O'zbekistonda holat qanday?

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda qimor bilan bog'liq jinoyatlar soni 2019-yilda 1 454 ta bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 3 372 taga yetgan. 2022-yilning birinchi yarmida esa 2 325 ta holat qayd etilgan. 2023-yilda O'zbekiston fuqarolari tomonidan onlayn qimor o'yinlariga sarflangan mablag'lar rasmiy ma'lumotlarga ko'ra taxminan 1 milliard AQSH dollarini tashkil etishi, biroq, norasmiy baholashlarga ko'ra, bu raqam 7-8 baravar ko'proq bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan. 2024-yilda esa bu son yana-da ko'payganligi va qimor o'yinlaridan zarar ko'rganlar soni tobora ortayotgani ma'lum qilingan. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (NAPP) ma'lumotlariga ko'ra, har yili

Ilk g'alabalar aldovli umidlarga ko'madi

mamlakatdan 300\$ milliondan 1\$ milliardgacha mablag' onlayn qimor o'yinlari orqali xorijga chiqib ketmoqda. Xususan, qimor o'yinlari ortidan kelib chiqayotgan jinoyatlar soni ham ortgan. "Gazeta.uz" saytida e'lon qilingan maqolada 2024-yilning birgina avgust oyida Toshkent shahrining Yakkasaroy tumanida 12 nafar xorijlik va 18 nafar O'zbekiston fuqarosi onlayn qimor o'yinlarini o'tkazishda gumonlanib qo'lga olindi. Uch oy davomida 900 ming dollar miqdoridagi mablag' aylanmasi aniqlangan.

"Daryo.uz"ning maqolasida esa, O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining qarori bilan onlayn qimor, lotereyalar va bukmekerklik faoliyatini tashkil etish uchun litsenziyalar olish bo'yicha batafsil talab va shartlar tasdiqlanganligi keltirilgan. Yangi qoidalarga ko'ra, onlayn o'yinlar, lotereyalar va pul tikish faoliyati bilan shug'ullanuvchilar Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan litsenziya olishlari kerak. Litsenziyalar besh yil muddatga amal qiladi, yangi litsenziyaning narxi 18,75 million so'm (taxminan 1500 dollar) etib belgilangan. Litsenziyaga o'zgartirish kiritish uchun 9,375 million so'm (730 AQSh dollari) yig'im talab qilinadi. Tashkilotchilar xizmatlar ko'rsatish uchun faqat O'zbekiston milliy internet segmentidagi domenlardan foydalanishlari mumkin.



Onlayn o'yin dasturlari va tasodifiy raqamlarni yaratish texnologiyalari litsenziyalovchi organ tomonidan tayinlangan vakolatli organlar va sinov laboratoriyalari tomonidan sertifikatlangan bo'lishi kerak. O'yinchining qimor o'yinlari va lotereyalardagi ishtiroki litsenziyalangan platformalar orqali, shaxsni tasdiqlash va tranzaksiyalarni elektron shaklda amalga oshirilsa, qonuniy hisoblanadi. O'zbekiston hukumati o'yinchilar qaydlari, cheklovlar va tranzaksiya limitlarini boshqarish uchun pul tikish va o'yinchilarning yagona davlat reestrini yuritadi. 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar, shuningdek, fuqarolarning yoshi, sog'lig'i va daromad manbalari kabi omillarga qarab belgilanadigan toifalari uchun ishtirok etish taqiqlanadi. Qimor o'yinlari taqiqlangan shaxslar ro'yxati, shu jumladan o'z-o'zidan qimor o'yinlariga moyilligi yoki sud qarori bilan cheklovi borligi qayd etilgan shaxslar ro'yxati saqlanib qoladi.

Bugun ijtimoiy tarmoq va messenjerlarda qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarning reklamasi shu qadar ko'pki, nafaqat yoshlar, balki yoshi katta insonlar va hatto oliy ma'lumotlilar ham bu ish bilan shug'ullanmoqda. X ijtimoiy tarmog'i foydalanuvchilarining biri hamkasbi ushbu o'yinlarga 472 million so'mi qoridoda pul tikkani va kasodga uchraganini yozib qoldirgan. Ushbu voqea natijasida hamkasbi hozirda uyini sotuvga qo'ygani va oilasi ajrashish yoqasida ekanini ma'lum qilgan. Shuningdek, foydalanuvchilardan ushbu o'yinlarga ishonmaslikni va o'ynayotganlarga bu ishni to'xtatishlarini so'ragan.

Shu o'rinda qimor o'yinlari va kazinolarning qanday tartibda ishlashi va ularning qanday turlari borligini ta'kidlab o'tish zarur.



Yutqazgan ham, yutgan ham yana o'ynaydi

Qimor o'yinlari - bu shunchaki omadini sinab ko'rish emas, balki inson ongini asta-sekin o'z girdobiga tortuvchi, ko'zga ko'rinmas, ammo ruhni zanjirlaydigan xavfli jarayondir. Dastlab hayajon, qiziqish, g'alabaniing lazzati bilan boshlanadi. Yurak urishi tezlashadi, ko'zlar chaqnaydi, tanada adrenalin to'lqinlanadi. Bu ilk g'alabalar odamni aldovli umidlarga ko'madi. Gohida kichik yutuqlar katta orzularga eltuvchi zinapoya bo'lib ko'rinadi. Lekin aslida bu tepasida jozibali chiroqlar porlaydigan, ammo oxiri zulmatga ketadigan yo'ldir.

Kazinolarda o'yin uchun mo'ljallangan avtomatlar bo'ladi. Ular foydalanuvchilarga hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Avtomatning ekranida simvollar aylanadi, o'yinchi ilgakni tepadan pastga tushirishi kerak. Hozirgi texnologiya rivojlangan zamonda telefon ekraniga barmog'ingizni tekkizsangiz kifoya. Bir xil belgilar chiqqanda foydalanuvchiga pul mukofoti beriladi. Agarda aksincha bo'lsa, mag'lub bo'ladi. Odatda foydalanuvchilar o'yinda bir xil chiqadigan raqamlar omadga bog'liq deb o'ylashadi. Ammo bu bevosita kompyuterga bog'liq. Agar ular xohlasagina siz go'lib bo'lasiz. Mutaxassislarning bergan ma'lumotiga ko'ra, onlayn kazino va qimor o'yinlari insonlarga estetik zavq beradi. Shu sababli bu o'yinlarga qaram bo'lish judayam oson. Turli ruhiy holatni boshdan kechirgan inson birinchi yutuqdan so'ng ishonchi to'laqonli oqlanadi va yana o'ynash ishtiyoqi paydo bo'ladi. Bir marotaba o'ynagandan so'ng ijtimoiy tarmoq va platformalardan ham aynan shu turdagi kontentlar qidiriladi. Mos kelmagan kontentlarni o'tkazib yuborish orqali inson miyasi ekranni pastga tortaveradi. Natijada u yana qimor va tavakkalga asoslangan o'yinlarning reklamasi yoxud targ'ibotiga giriftor bo'ladi.

Qimor o'yinlarining turlari qanchalik ko'p bo'lishiga qaramay ularning barchasi bir maqsadda ishlab chiqilgan. O'zbek mediiasi segmentida qimor o'yinlari natijasida joniga qasd qilgan, oilasi bilan

ajrashgan, farzandlari va yaqinlariga zarar bergan shuningdek, uy-joyidan butunlay mahrum bo'lgan ko'plab qahramonlar ko'rsatilishiga qaramay ushbu o'yinga mukkasidan ketgan minglab yoshlar topiladi. Xususan, ushbu kompaniyalar nafaqat odatiy tashviqot yo'lidan balki, mashhurlar va san'atkorlarning yuzidan, xususan, auditoriyasi katta insonlardan ustalik bilan foydalanishmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyasi rivojlanganligi sababli deep-feyklar judayam ko'paygan. Ko'p hollarda esa, bloggerlarning o'zi ma'lum pul evaziga ushbu o'yinlarni reklama qilishmoqda. Xususan, instagram ijtimoiy tarmog'ida ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi bir qator mashhurlar va katta auditoriyaga ega insonlar bor. Qilayotgan ishining salbiy oqibatlarini o'ylamay, moddiy evaziga ushbu o'yinni targ'ib qilayotganlarga nisbatan hozirga qadar hech qanday chora ko'rilmagan.

Ushbu o'yinlarning reklama matnlarida asosan "tez fursatda boy bo'lishni istaysizmi?", "uydan chiqmay pul toping", "sizga pul kerakmi?" kabi jumlar ishlatilganligi bois insonlarning diqqatini juda tez o'ziga jalb qila oladi. Moddiy qiyinchilikni boshdan kechirayotgan aksariyat kishilar bu kabi reklamadan keyin uni o'ynash istagida bir marta bo'lsin ushbu platformalardan foydalanishi mumkin. "Reklama to'g'risida"gi qonunda qonunchilikning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan, fuqarolarning hayotiga yoki sog'lig'iga va atrof-muhitga zarar yetkazuvchi yoxud zarar yetkazishi mumkin bo'lgan, shuningdek, xavfsizlik vositalariga e'tiborsiz bo'lishga undovchi harakatlarga da'vat qilish mumkin emasligi keltirilgan. Ammo bu kabi reklamalar shu qadar ko'payib ketayotganligi qonunchilikda yangi normalar kiritish zaruriyatini ko'rsatmoqda.

"Bu safar yutaman, oxirgi marta o'ynayman"



Psixologik jihatdan qimor o'yinlari insonni ich-ichidan yemiradi. Miyada "mukofot tizimi" deb ataluvchi neyrobiologik tizim haddan ortiq faollashib, zavq gormonlari – dofaminlar miqdorini ko'paytiradi. Bu esa insonni yana o'ynashga, yutishga, hayajonni qayta boshdan kechirishga undaydi. O'yin oxirida yutqazganlar ham, yutganlar ham bir xil holatga tushadi – ular yana o'ynashni istaydi. Bu davrda shaxs uchun real hayot ikkinchi o'ringa tushadi, oilasi, do'stlari, ish joyi, hatto sog'lig'i ham ortda qoladi. Qimor esa uning yangi olamiga aylanadi – yolg'on umidlar, orzular va tinimsiz ruhiy tushkunliklar olamiga g'arq bo'lishadi.

O'yin davom etar ekan, inson o'zini yo'qota boshlaydi. Har bir pul tikish go'yoki o'zining kelajagiga qo'yilgan garovga aylanadi. "Bu safar, albatta, yutaman", "oxirgi marta o'ynayman" degan o'z-o'zini aldaydigan fikrlar ongni qamrab oladi. Ammo har bir yutqazish yurakdagi ishqibozlikni, umiddan tug'ilgan ilinjni sekin-sekin o'ldirib boradi. Natijada inson o'zini aybdor his qiladi, o'zidan uyaladi, yashirini, yolg'izlikka mahkum bo'ladi. Ayrim hollarda bu holat chuqur depressiyaga, hatto o'z joniga qasd qilishgacha olib boradi.

Shu bois qimor o'yinlariga qarshi kurashish uni faqat qonun bilan cheklash emas, bu inson ruhini saqlab qolish uchun kurashdir. Har bir jamiyat bu muammoni anglab, uni ildizidan yulib tashlashga harakat qilmasa, bu millat fojiasiga aylanishi hech gap emas.

Otabek USMON



ISHKANDAR SOLIYEV:

“SHAHAR
ODAMLAR
UCHUN
QURILADI!”

Taraqquiyot uchun hech bir soha e'tibordan chetda qolmasligi zarur. Ayniqsa, bu odamlarning emin-erkin yashashi, toza nafas olib, yo'llarda xavfsiz harakatlanishi, o'z qo'llari bilan qurgan shaharlarning umrboqiy bo'lishi uchun xizmat qiladigan soha bo'lsa, yana ham yaxshi. Ayni shu mavzuda urbanist Iskandar Soliyev bilan suhbatlashdik.

– Iskandar aka, nega urbanistika sohasini tanlagansiz? Qishloq xo'jaligi sohasi ham mamlakat uchun foydali-ku!

– Menimcha, urbanistika bu — faqat bino yoki yo'l qurish emas, balki odamlarning kundalik hayot sifatini shakllantirishdir. Siz ertalab uydan chiqib ishga, maktabga yoki parkka qanday yetib borishingiz ham urbanistika bilan bog'liq. Shu jihati meni qiziqtirgan. Qishloq xo'jaligi ham juda muhim soha, albatta. Lekin oliy o'quv yurtida soham shaharsozlik yo'nalishida bo'lgani uchunmi, men shaharlarda yashayotgan millionlab odamlarning hayoti qanday tashkil qilinayotgani bilan ko'proq qiziqdim. Ayniqsa, Toshkentdagi ayrim mantiqsiz yechimlarni ko'rib, "buni yaxshiroq qilish mumkin-ku!" degan savol paydo bo'la boshlagan. Bu qiziqish keyinchalik professional faoliyatga aylandi.

– Urbanist sifatida ishingiz nimalardan iborat? Qayerda ishlaysiz, kimlar bilan?

– Urbanistning ishi faqat chizma chizish emas. Bu transport, ekologiya, iqtisodiyot, piyoda harakati, jamoat joylari va inson psixologiyasigacha bog'liq bo'lgan kompleks ish. Men turli loyihalar ustida ishlayman: ko'chalarni qayta tashkil qilish, jamoat transporti infratuzilmasi, jamoat hududlari konsepsiyalari, dizayn-kod va master-rejalar. Davlat tashkilotlari, xalqaro byurolar, arxitektorlar, muhandislar va investorlar bilan hamkorlik qilaman. Ba'zan esa eng katta ish — oddiy odamga shahar nima uchun aynan shunday ishlashini tushuntirish bo'ladi.

– Odatda shaharning yangi loyihasini ishlab chiqish qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi? Bizda bunday ishlar risoladagidek kechadimi?

– Normal urbanistik loyiha avval hududni o'rganishdan boshlanadi: transport oqimi, piyoda harakati, ekologiya, demografiya, iqtisodiy faollik va hokazo. Shundan keyin konsepsiya ishlab chiqiladi. Bu jara-



Shaharni yangilash. Xotirasini yo'qotmaslik kerak

yonga urbanistlar, arxitektorlar, transport muhandislari, ekologlar, iqtisodchilar va sotsiologlar jalb qilinishi kerak. Eng muhimi — aholi fikri. Chunki shaharda oxir-oqibat odamlar yashaydi. Afsuski, bizda ko'pincha loyiha avval tayyor bo'lib, odamlarning fikri keyin so'raladi yoki umuman so'ralmaydi. Bu esa keyinchalik muammolar tug'diradi.

– Shu vaqtgacha Toshkent shaharsozligi uchun ko'p martalab takliflar berdingiz. Biror-tasini inobatga olishdimi?

– Ha, ayrim g'oyalirim va takliflarim turli darajada inobatga olingan. Masalan, jamoat transporti ustuvorligi, piyoda infratuzilmasi, ko'cha dizayni va ayrim jamoat hududlari bo'yicha takliflar muhokamalarga sabab bo'lgan. Menimcha amalga oshganlaridan O'zbekiston ovozi ko'chasi hamda Shota Rustaveli ko'chalaridagi o'zgarishlarni aytsa bo'ladi. Lekin urbanistikada natija darrov bilinmaydi. Ba'zan bir g'oya yillar o'tib amalga oshadi. Men uchun eng muhimi jamiyatda bu mavzular haqida fikrlash boshlangani.

- **Shaharni aslida kim shakllantiradi: urbanistlarmi, siyosatchilarmi yoki biznesmenlar?**

- Aslida, hammasi shakllantiradi. Lekin ideal shaharda muvozanat bo'lishi kerak. Biznes iqtisodiy faollik yaratadi. Siyosatchilar qaror qabul qiladi. Urbanistlar esa uzoq muddatli oqibatlarni tushuntiradi. Muammo qachon boshlanadi? Shahar faqat qisqa muddatli manfaat asosida rivojlansa. Shahar 5 yil uchun emas, kamida 50-100 yil uchun quriladi va rivojlanib boradi. Aynan shu jarayonda faqat qaysidir soha vakillari o'ziga barcha yuklamalarni tortib olmasa yaxshi bo'ladi.

- **Qaysi bir arxitektura yoki ko'cha dizayni sizni xotirjam qiladi?**

- Menga inson masshtabidagi ko'chalar yoqadi. Daraxt soyasi bor, piyoda o'zini xavfsiz his qiladigan, birinchi qavatlar faol bo'lgan ko'chalar. Toshkentda eski mahallalarning ayrim qismlari yoki daraxtli ko'chalar hali ham yaxshi atmosfera beradi.

- **Toshkentni qaysi jihatlari bilan o'zgacha shahar deya olasiz? Har qanday yangilanish, renovatsiyalarga qaramasdan Toshkentda qaysi tarixiy obyektlarni saqlab qolish kerak?**

- Toshkentning eng katta boyligi uning yashil va insoniy masshtabdagi shaharligida edi. Shuningdek, modernizm arxitekturasi, eski mahallalar, kanallar va daraxtli ko'chalar shaharning identiteti hisoblanadi. Shaharni yangilash kerak, lekin xotirasini yo'qotmaslik kerak.

Shaharni mashina oynasidan his qilib bo'lmaydi

- **Shahar odamlar bilan gavjum bo'lishini yoqlaysizmi?**

- Urbanizatsiya tabiiy jarayon. Odamlar imkoniyat bor joyga keladi. Masala odamlarni to'xtatishda emas, boshqa hududlarni ham rivojlantirishda. Agar viloyatlarda sifatli ish o'rinlari, transport, ta'lim va jamoat joylari bo'lsa, bosim faqat Toshkentga tushmaydi. Shahar gavjum bo'lishi yomon emas. Yomon narsa shuki, infratuzilma bunga tayyor bo'lmasligi. Aholi ko'pligi esa shahar rivoji va iqtisodi uchun juda muhim omil.

- **Qayerdadir o'qib qolgandim: "Toshkentda shuncha qurilish bo'lyapti, baland-baland binolar qurilyapti, lekin o'tgan asr uchun qurilgan kanalizatsiya tizimi endi dosh berolmaydi". Siz bunga qanday qaraysiz?**

- Bu juda jiddiy masala. Ko'p joylarda yangi qurilish sur'ati infratuzilma modernizatsiyasidan tezroq ketmoqda. Faqat uy qurish yetarli emas. Suv, kanalizatsiya, elektr, drenaj, maktab, bog'cha — bularning hammasi birga rejalashtirilishi kerak. Aks holda, shahar tizimi bosim ostida qoladi.

- **Shahardagi yashil zonalar, daraxtlar, bog'larni tashkil etishda eng avval nimalarga e'tibor qilish kerak. Chunki baribir kesib tashlayapmiz-ku!**

- Daraxt bu — dekor emas, infratuzilma. Toshkent issiq shaharga aylanib boryapti. Daraxtlar esa mikroiklimni ushlab turadi, changni kamaytiradi va soya beradi. Va yana hokim, vazir va quruvchilarga yoqadigan so'z daraxt — atrof muhitning narxiniyam qimmatlashtiradi, odamlarga jozibali qiladi, yoz kunlaridayam ko'chaga kunduz vaqti chiqishingizga imkoniyat yaratadi. Muammo shundaki, daraxt 30 yilda ulg'ayadi, kesish esa 30 daqiqada bo'ladi. Demak jabrini uzoq vaqt tanamizda his qilamiz.

- **O'zingiz ko'chada harakatlanish uchun qaysi transportdan foydalanasiz?**

- Ko'pincha piyoda yuraman, avtobus, velosiped, metro va taksidan foydalanaman. Shaharni mashina oynasidan emas, piyoda ko'proq his qilish mumkin. Va qaysidir ma'noda shaharni tirband qilmaslik uchun o'zim harakat qilaman.



– Trotuarda velosiped, skuterlar harakati qanchalik to'g'ri? Piyodaga turotuarda ham tinchlik yo'q hisob. Yo'l qoidalari darsligida velosipedchi u bilan bir yo'nalishda ketayotgan avtomobil haydovchisini keyingi harakati haqida ogohlantirish uchun o'ng yoki chap qo'li bilan ishora qilishi ko'rsatilgan. Mana shu qoida nega ishlamaydi?

– Ideal holatda shunday bo'lishi kerak. Velosiped va skuterlar uchun alohida xavfsiz infratuzilma bo'lishi kerak. Chunki piyoda eng himoyasiz qatnashchi. Bizda ko'p infratuzilma yetishmagani uchun konflikt paydo bo'lyapti. Bu qoidalar veloinfratuzilmasi rivojlangan shaharlarda faol qo'llaniladi. Ya'ni son ko'paysa, odamlar ham yo'ldan foydalanishda ma'lum qoidalarga amal qilishni boshlashadi.

– Bugun eniga cho'zilib ketayotgan avtomobil yo'llarimizdan velosiped, skuterlar uchun joy ajratishning imkoni bormi?

– Bor. Ko'p hollarda muammo joyda emas, prioritetda. Shaharlarning katta qismi avtomobil uchun haddan tashqari ko'p joy ajratib yuborgan. Va qolgan ishtirokchilarga ham qizg'anchilik qilmasdan joy ajratish, aslida, mas'ul odamlarning vazifasi.

– Toshkentda avtobuslar uchun alohida ajratilgan yo'llar qurildi, velosiped, skuterda yurish uchun ham yo'lak paydo bo'ldi. Bu qanday amalga oshdi?

– Bu asta-sekin jamoat transportining muhimligini tushunish bilan bog'liq. Bir avtobus 60–100 odam tashiydi. Bitta mashina esa ko'pincha 1–2 odam. Shahar ko'proq odamni samarali tashiydigan transportni ustuvor qilishi kerak.

– Urbanistlar shaharlarni zichlashtirish kerakligi haqida gapirishadi, bu qanaqa zichlashtirish? Buning natijasida shaharda havo serkulyatsiyasi buzilmaydimi?

– Zichlashtirish degani har joyga baland bino tiqish emas. Bu transportga yaqin joylarda aralash funksiyali, piyoda yurish mumkin bo'lgan hududlar yaratish degani. Agar to'g'ri loyihalansa, havo aylanishi ham saqlanadi. Muammo tartibsiz va nazoratsiz qurilishda.



Shaharni zichlashtirish nima degani?

– Mashina turargohlari uchun ham shaharda juda ko'p joylar band qilinadi. Unumdor bo'lgan yerlar betonlab tashlanishi mumkin. Bunga eng to'g'ri yechim bormi?

– Shaharni cheksiz parkovka bilan ta'minlab bo'lmaydi. Mashina qancha ko'p joy olsa, odam uchun shuncha kam joy qoladi. Yechim — jamoat transporti, pullik parkovka siyosati va aralash transport tizimi.

– Toshkentdagi yo'l o'tkazgichlarning piyodalar uchun qanchalik nafi tegadi?

– Agar magistralda tezlik juda yuqori bo'lsa yoki boshqa yechim bo'lmasa, kerak bo'lishi mumkin. Lekin shaharning ichida piyodani zinadan tushirib-chiqarish ko'pincha noto'g'ri yechim. Yaxshi shahar piyodani emas, mashinani sekinlashtiradi.



- **Avtomobil yo'llari o'rtasiga panjara qo'yish ham, nazarimda, piyodalar uchun manfaatli bo'lmasa kerak. Piyodalarning shaharda istalgan joydan yo'lni kesib o'tishiga qanday qaraysiz?**

- Agar odamlar doim panjaradan oshib o'tayotgan bo'lsa, demak muammo odamda emas, dizaynda. Urbanistikada "desire path" degan tushuncha bor — odamlar o'ziga qulay yo'lni tanlaydi. Va yana, inson biologiyasi shunday tuzilgan, miyya tanani kamroq energiya sarflashga undaydi va iloji boricha qisqaroq joyda kesib o'tishga undaydi.

- **Toshkentning ayrim ko'chalaridagina nogironligi bor kishilar uchun gapiruvchi svetofor yoki taktik yo'laklar qilingan. Nega hamma joyda ham emas?**

- Chunki uzoq yillar davomida shaharlar hamma uchun emas, "o'rtacha sog'lom odam" uchun loyihalangan. Aslida esa qulay shahar hamma uchun qulay bo'lishi kerak. Shahar ichida panjara va yer osti, yer usti ko'priklari bo'lmasligi sabablari ham shu yerda yashiringan.

- **Ko'pchilik shaxsiy transportga ega bo'lishni katta qulaylik sifatida ko'radi. Agar jamoat transporti emin-erkin harakatlansa, tez yordam mashinalari uchun yo'llar ochiq bo'lsa, uzoq joylarga taksi, poyezd, samolyotda bemaol borish mumkin bo'lsa, shaxsiy mashinaga ega bo'lish ishtiyoqi kamayadimi shunda?**

- Ha, ko'p hollarda kamayadi. Dunyoning rivojlangan shaharlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, odamlar mashinadan voz kechishni emas, alternativ paydo bo'lishini xohlaydi. O'zbekistonda ham ushbu qoidalar ishlaydi, deb ishonaman. Albatta, sovet tuzumidan qolgan eski fikrlashlar bor edi, ya'ni avtomobilga hayotning eng muhim narsasidek qarash, lekin vaqt o'zgarayapti va odamlar avtomobilga shunchaki harakatlanish vositasidek qarashni boshlayotgandek.

- **Yugurish marafonlari uchun ma'lum vaqtga shaharning ayrim markaziy ko'chalari yopib qo'yiladi. Harholda, bunaqa marafonlarni haydovchilar ochiq chehra bilan qabul qilmaydi. O'zingiz ham marafonlarda ishtirok etib turasiz. Siz qanday fikrda?**

- Bu shaharning faqat avtomobillar uchun emasligini eslatib turadi. Bir necha soatlik noqulaylik evaziga odamlar shaharning boshqacha muhitini his qiladi. Va bunday bayramona tadbirlar ko'proq bo'lishi tarafdoriman, shahar jonli muhitni his qilsa, yaxshi albatta.

- **Toshkentga tramvaylarni qaytarish kerakmi? Bu endi o'zini oqlaydimi?**

- Ayrim yo'nalishlarda — ha. Tramvay katta yo'lovchi oqimini ekologik va samarali tashiy oladi.

Muammo — uni noto'g'ri loyihalashda. Va tramvay uzoq yillik rejalashda eng ekonomik tanlov bo'ladi. Elektrobustlarni esa hali portlamagan bomba desa ham bo'ladi. Chunki hali ularning batareyalarini utilitatsiya qilish davri ham keladi, o'shanda bu masala odamlarni yaxshigina o'ylantiradi.



**Shaharlar
"o'rtacha sog'lom
odam" uchun**

- Idealda katta avtomagistraldan tortib, mahallaning ichki yo'llaridagi asfaltlar qancha muddatgacha buzilmasdan, teshilmasdan xizmat qilishi kerak?

- Bu material, iqlim, yuklama va qurilish sifatiga bog'liq. Lekin sifatli qurilgan yo'l yillar davomida katta ta'mirsiz ishlashi mumkin. Va yana javobgarlikka tortish ham yordam beradi deb o'ylayman. Chunki agar inson, amaldor agar qurgan ko'prigi yoki betonli trotuarlari tezda yaramasdan buzilib ketsa, qamoqqa tushishi va javob berishini bilsa, ishlari uzoq muddat xizmat qiladi, deb o'ylayman.

- Faqat Toshkent shahri emas-u, boshqa viloyatlardagi shaharlarimiz haqida ham gapirsangiz. Ularni kelajakda qanday muammolar kutyapti?

- Hozir viloyatlarda ham avtomobilga qaramlik kuchaymoqda. Agar hozirdan piyoda, jamoat transporti va yashil hududlarga e'tibor berilmasa, ertaga Toshkentdagi muammolar u yerda ham takrorlanadi. Va asosiysi, qolgan shaharlarni teng rivojlantirishimiz kerak, aholi migratsiya qilishi kelajakda ushbu shaharlarni tez rivojlanishiga to'sqinlik qilishi aniq. Chunki odamlarsiz shahar mavjud bo'la olmaydi, iqtisodi ham yurmaydi.

- O'zingiz tug'ilib o'sgan Andijondagi shahar-sozlik shu vaqtgacha qanaqa yutuqlar, kamchilik va mantiqsizliklar bilan davom etib keldi?

- Andijonda ham juda jonli shahar muhiti bor. Lekin transport bosimi, tartibsiz reklama, piyoda infratuzilmasi muammolari mavjud. Aytay desam kamchiliklar juda ko'p va ijobiy o'zgarishlar Andijonda juda kam, unisini ham qiylanib topsangiz kerak va topish uchun yaxshigina ter to'kish zarur. Shunga qaramay, odamlarning ko'cha hayoti faol bo'lgani — katta potensial.

Odamlarsiz shahar mavjud bo'la olmaydi

- Orzungizdagi shahar qanday bo'lishi kerak?

- Men uchun ideal shahar boy yoki kambag'al bo'lishidan qat'i nazar, odam o'zini hurmat qilgan his qiladigan shahar. Unda piyoda yurish qo'rqinchli emas, daraxt soyasi bor, bolalar xavfsiz harakatlana oladi va jamoat transporti qulay ishlaydi. Va eng muhimi, shahar odam uchun quriladi, faqat mashina uchun emas.



MUDROQ HAMIDA UYG'OO ZAIMONLAR

chiqqan har bir harf ozodlikka o'qilgan duoga o'xshardi.

Jadidchilikni shakllantirishda ko'plab millat ziyolilari faol qatnashdi. Jamiyatni o'rta asrchiilik illatlari, madaniy qoloqlik va mustamlaka zulmidan, xurofotdan ozod qilish, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlatchilik asoslarini bunyod etish

jadidchilik harakatining asosiy maqsadi edi. Turkistondagi jadidchilik harakatiga Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Cho'lpon, Pahlavon Niyoz Hoji, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda, Abdulla Qodiriy, "Yosh buxoroliklar", "Yosh xivaliklar" tashkiloti rahbarlari boshchilik qilishgan. Jadidlar jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh qilish, mavjud tartiblarni o'zgartirish yo'lidan bordilar.

Zamonlar bor - mudroq. Zamonlar bor - uyg'oo. Va yana shunday zamonlar bo'ladiki, u davrlarning yuragida yuraklar uradi. Har bir urish - uyg'onishga chorlaydi. Bizning tariximizda ana shunday uyg'onish nidosi bo'lgan, zulmat ichra nur yoqqan, qalamni qilichdan o'tkir bilgan insonlar bo'lgan - ular jadidlar edi. Ular - tong oldidan yoqqan chiroq, zulmatni yorib chiqmoqchi bo'lgan umid nuri, xalqning uyg'onish xayoli edi.

Jadidlar shunchaki ziyolilar emas edi. Ular ma'rifatni, ilmni, tafakkurni qurol qilgan oriflar edi. Ular ko'ngillarni uyg'otmoqchi bo'ldi. Zulmat ichra nur yoqmoq - eng og'ir ish. Ammo ular boshladi. So'z bilan, qalam bilan, maktab bilan, darslik bilan. Jadidlar uchun maktab bu shunchaki ta'lim maskani emas edi - bu uyg'onish qasri, qalblar qal'asi edi. Ular har bir harakatida xalqning taqdiri, millatning ertasi uchun yonib yashagan fidoyilar edi. Ular zim-ziyo kechada paydo bo'lgan yulduzlar, qalblarga tushgan shafaq, uyg'onish xabarchilari edi.

Ular orzularini daftar sahfalarida pishirdi, ularning qalamidan





“Millatga xizmat imondandir” degan ishonch ularni boshidan oxirigacha yetaklab bordi. Ular xalqni uyg‘otmoqchi bo‘ldi, lekin ovoz ko‘tarmay. Dastlab bolalarning nighohida, maktab daftarlarida, darslik sahifalarida uyg‘otdi. Bu jadidchilikning boshlanishi edi. Jadidchilikning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktablari edi. Zero, “yangi” ma‘noni beruvchi “jadid” istilohi kirib kelishining o‘zi aynan yangi usuldagi maktablar bilan bog‘liq. 1895–1910-yillar orasida Turkistonning Toshkent, Samarqand, Qo‘qon kabi barcha yirik shaharlarida, qishloqlarida Buxoro amirligi va Xiva xonliklarida o‘nlab “usuli saviya” maktablari ochildi. 1903-yillardan jadidchilik matbuoti uchun maxsus darsliklar tuzila boshlandi, lekin bu ishlar g‘oyat qiyin kechdi. Biroq mustabid hukumat va mahalliy mutaassiblarning qarshiligiga qaramay, jadidlarning sa‘y-harakatlari bilan “usuli jadid” maktablarining tarmog‘i kengayib bordi. Chinakam ma‘rifat o‘chog‘iga aylangan, madaniy tanazzuldan saqlanish va jamiyat ma‘naviyatini mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etgan yangi usul maktablarining soni 1917-yil boshlariga kelib 92 tani tashkil etdi.


Ular ochgan maktab oddiy maktablar emas – bu xalq uchun yangi dunyoga ochilgan eshik edi. Yangi usuldagi maktablar – jadidchilik harakatining ilk mevasi bo‘ldi. U yerda harflar o‘rgatildilar, lekin har bir harf bilan millatning o‘zligiga yetaklaydigan yo‘l chizildilar. Bu maktablarda yurt sevgisi o‘rgatildilar. Bunda Ismoil G‘aspirali, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi fidoyilar yetakchi bo‘ldi.

Jadidlar o‘qitdi, yozdi, sahna qo‘ydi, matbuot chiqardi. Ular sahnada “Padarkush”ni qo‘ydi – jaholatga qarshi faryoddek yangradi. Ular “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Oyna”, “Sadoi Turkiston” kabi gazeta-jurnallarni chop etdi – har bir son millat ko‘zini ochuvchi nurlardek edi. Ular ilmni yuksaltirdi, tafakkurni kuchaytirdi, el dardini so‘z qildi. Lekin bu harakat zulmatga yoqmaydi. Uyg‘onayotgan millat – qulaydigan imperiyalarga tahdid. Sho‘ro hukumati jadidlardan

qo‘rqdi. Ular quolsiz edilar, ammo g‘oya bilan qurollangan edilar. Va aynan shu g‘oya ularni “xavfli” qildi. 1937-yillar kelganda, ularning deyarli barchasi qatl etildi, surgun qilindi, yo‘q qilindi. Tarix sahifalaridan emas, ammo xalq yuragidan siqib chiqarilmoqchi bo‘lgan bu fidoyilar izlari bugun yana tiklanmoqda. Ammo g‘oya o‘lmaydi. Qalamni qatl etib bo‘lmaydi. Jadidlarning ruhi, ularning orzusi bugun ham biz bilan. Har bir maktabda, har bir darslikda, har bir til o‘rganuvchi bolaning nighohida ularning orzusi yashab turibdi.

Bugun biz erkinlik, ma‘rifat, taraqqiyot haqida bimalol gapira olamiz. Ammo shuni unutmasligimiz kerak: bu imkon bizga osmondan tushgani yo‘q – bu yo‘lga jadidlar o‘z qalbini, jonini, hayotini qo‘ydi. Istiqloq, ma‘naviyat, madaniyat haqida so‘z yuritish ekanmiz, shu qadriyatlar uchun jonini fido qilgan jadidlar siymosini unutmasligimiz kerak. Bizning zamonaviylik sari tashlagan har bir qadamimiz – ularning qoni bilan sug‘orilgan yo‘ldir.

Jadidlar bizning ma‘rifat tongimiz, tafakkur ildizimiz, tariximizning iftixori, ozodlikka intilgan vijdonimiz edi. Ular yoqqan chiroq bugun ham yo‘limizni yoritmoqda.



Sevilyadagi Maestranza buqalar ringida chiqish qilayotgan chavandoz. aprel oyi
Muallif: Marselo del Pozo/Reuters
↘

Shimoliy Koreyaning Pxenyen shahrida Ukrainaga qarshi urushda Rossiya tomonida halok bo'lgan Shimoliy Koreya askarlarini xotirlash uchun Chet el harbiy operatsiyalaridagi jangovar qahramonliklar memorial muzeyining ochilish marosimidan lavha. aprel oyi
Manba: Koreya markaziy axborot agentligi
↗



NASAning Oyg'a uchish bo'yicha Artemis II missiyasi, Orion ekipaj kapsulasi bilan birga Space Launch System raketasidan iborat bo'lib, AQShning Florida shtatidagi Kanaveral burnidagi Kennedi kosmik markazidan uchirildi. aprel oyi
Muallif: Joy Shkipper/Reuters
↙

Sulh bitimi davom etayotgan bir paytda, eronlik bolalar bozorida o'ynab yuribdi. 21-aprel.
Muallif: Majid Asqaripur/WANA
↙

ANI

tutib qol,

Sidneydagi portda Britaniya qirolligining "sobiq a'zosi" Shahzoda Garri va tilini chiqarib turgan it. 17-aprel. Muallif: Jonatan Bredi



Sayyohlar Xitoyning Nantong shahridagi ko'prik ostidan o'tayotgan qayiq va gilos gullarini tomosha qilmoqda.

aprel oyi
Manba: Xinhua



Shri-Lankaning Kolombo shahridagi yo'l bo'yida jilmayib turgan yeryong'oq sotuvchi. aprel oyi

Muallif: Ishara S. Kodikara



Vengriyaning Xolloko etnografik qishlog'ida Pasxa xalq festivali paytida yigitlar yosh ayollarga chelaklarda sovuq suv quyishmoqda.

aprel oyi
Muallif: Piter Komka



yashab o't lahzani...

Prezident Donald Tramp Pasxa quyovining yonida turib, Vashingtondagi Oq uyda 2026-yilgi Oq uyning Pasxa tuxumlari ruletida ishtirok etmoqda. 6-aprel
Muallif: natan Hovard/Reuters
↗



Tehron ko'chasida bir ayol Isroilga qarshi devoriy rasm yonidan o'tmoqda. 20-aprel.
Muallif: Majid Asqaripur/WANA
↘

Livanning Bayrut shahridagi Korniche al-Mazraa hududida Isroil hujumi sodir bo'lgan joyda yonib ketgan mashinalar uyumi. 8-aprel.
Muallif: Marko Dyurika/Reuters
↗



NASA astronomi va Artemis II missiyasining mutaxassisi Kristina Koch Orion kosmik kemasining asosiy kabinasidan Yerga qarab turibdi, ekipaj esa Oyga qarab harakatlanmoqda. 2-aprel
Manba: NASA
↘



Livan va Isroil o'rtasida 10 kunlik sulh kuchga kirgandan so'ng, Livanning Tir shahri yaqinida, ko'chirilgan odamlar o'z uylariga qaytish uchun yo'l olishayotganida, bolalar mashinadan qo'l silkimoqda. 17-aprel
Muallif: Aziz Tohir/Reuters
↖

Sidney Qirollik milliy bog'idagi Era plyajida qoyalarga chiqib qolgan o'lik kashalotni tomosha qilayotgan ayol.
25-aprel.
Muallif: Jessika Xromas/The Guardian
↗



Livanning Bayrut shahridagi Korniche al-Mazraa hududida 10 kunlik sulh e'lon qilingan paytda bir oila Isroil havo hujumi sodir bo'lgan joyga sayr qilmoqda.
19-aprel.
Muallif: Luiza Guliamaki/Reuters
↘



G'azo sektorining janubidagi Xon Yunusda shamolli kunda falastinliklar ayol lagerdagi chodirni sozlamogda.
aprel oyi
Muallif: Hasib Alvazir/Reuters
↖

Qurollangan shaxs xavfsizlikni buzishga uringanidan so'ng Prezident Tramp va uning ayoli Maxfiy xizmat agentlari tomonidan kechki ovqatdan shoshilinch ravishda chiqarib yuborildi.
Shu vaqtda zaldagi boshqa mehmonlar o'z jonini asrash uchun o'zini stol ostiga panalamogda.
aprel oyi
Muallif: Evan Vuchi/Reuters
↘



Ukraina poytaxti Kiyevda Rossiya raketa hujumi natijasida zarar ko'rgan qayta ishlanadigan materiallar ombori hududida o't o'chiruvchi ishlamoqda.
16-aprel
Muallif: valentin Ogirenko/Reuters
↖



TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI:

MUTAXASSISLARNING



YANGI AVLODINI QARSHI OLING!

Bugungi dunyoda qishloq xo'jaligi endi faqat hosil yetishtirish bilan o'lchanmaydi. Global iqlim o'zgarishi, suv resurslari taqchilligi, oziq-ovqat xavfsizligi, raqamli texnologiyalar va xalqaro bozordagi raqobat agrar sohani tubdan o'zgartirmoqda. Bu esa o'z navbatida yangi avlod mutaxassslariga ehtiyojni kuchaytiryapti. Zamonaviy agronom endilikda faqat nazariy bilim emas, balki

texnologiya, muhandislik, ekologiya va boshqaruv ko'nikmalariga ham ega bo'lishi kerak. Toshkent davlat agrar universiteti jamoasi ham ana shu jihatlariga e'tibor qaratgan holda, kelajakdagi natijalar uchun bugundan harakat qilmoqda. Universitetda ta'limni ishlab chiqarish bilan bog'lash, ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga yaqinlashtirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va agrar sohani raqamlashtirish bo'yicha bir qator yangi yondashuvlar shakllanmoqda.

Universitet rektori Narzullo Oblomurodovning aytishicha, asosiy vazifa bozorga shunchaki diplomli emas, balki tayyor, real ishlab chiqarish muammolarini hal qila oladigan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. “Bugungi qishloq xo‘jaligi sohasi butunlay yangi yondashuvni talab qilmoqda. Talaba faqat auditoriyada o‘tirib kuchli mutaxassis bo‘lib qolmaydi. U dalada, klasterda, laboratoriyada, ishlab chiqarishning ichida bo‘lishi kerak. Bizning asosiy maqsadimiz agrar soha uchun zamonaviy fikrlaydigan, texnologiyani tushunadigan va amaliy tajribaga ega kadrlarni tayyorlash”, – deydi rektor.

So‘nggi yillarda universitet faoliyatida aynan amaliyotga yo‘naltirilgan ta‘lim modeli ustuvor yo‘nalishga aylangan. Xususan, universitet bitiruvchilari ish-siz qolmasligi uchun maxsus tizim yo‘lga qo‘yilgan. Dual ta‘lim asosida talabalar 10 dan ortiq korxonada va tashkilotlarda tayyorlanmoqda. “Kelajakka qadam” markazi tomonidan 81 ta biznes loyiha ishlab chiqilib, 45 nafar talabaga imtiyozli kredit ajratilgan. “Yangi agronom” dasturi orqali bitiruvchilarga tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limlarida ish va 3 yil davomida 2 ming dollarlik kafolatli maosh berilishi belgilangan. E‘tiborli jihati shundaki, talaba real ishlab chiqarish jarayonida qatnashadi. Ular paxta va g‘alla yetishtirishning zamonaviy usullari, agrotexnik tadbirlar, hosildorlik monitoringi va agrotexnologiyalar bilan



To‘rt kun ishda, bir kun universitetda

ishlaydi. “Qishloq xo‘jaligini mexanizasiyalashtirish” hamda “Agromuhandislik” yo‘nalishlari talabalar uchun o‘qish va ishlashni parallel olib borish imkoniyati yaratilgan. Joriy yilning 2-martidan boshlab 3-bosqichdagi 53 nafar talabaning 50 nafari bilan shartnoma tuzilib, ular 4+1 shaklida ta‘lim olmoqda.



Ya‘ni haftaning to‘rt kuni ishlab chiqarishda, bir kuni universitetda o‘tmoqda. Talabalarga o‘rtacha 2,5 million so‘m ish haqi to‘lanayotgani ham tizimning amaliy samaradorligini ko‘rsatadi. 2026/2027-o‘quv yilidan boshlab yana 60 nafar talabani “Chirchiq Agro-Tech klaster”da dual ta‘lim tizimiga jalb qilish rejalashtirilgan. Bitiruvchilar, asosan, agronomiya, o‘simliklar himoyasi, veterinariya, agromuhandislik, oziq-ovqat texnologiyasi, suv xo‘jaligi va klaster tizimlarida ishga joylashmoqda.





Grantlar \$3.9 mln.dan \$4.5 mln.ga yetkaziladi

Global iqlim o'zgarishi sharoitida agrar ta'lim nazariyadan ko'ra ko'proq amaliyot, raqamli texnologiya va ekologik barqarorlikka asoslanishi kerak. Universitetda bu jarayon o'z aksini topmoqda: meteorologiya va iqlimshunoslik, atrof-muhit va suv resurslarini boshqarish, geoaxborot tizimlari va texnologiyalari kabi yangi mutaxassisliklar ochildi. Quyosh panellari o'rnatilib, "Yashil oliygoh" loyihasi amalga oshirilmoqda. "Kelajakdagi agrar mutaxassis nafaqat yer bilan ishlashni, balki ekologik barqarorlik va zamonaviy texnologiyalarni ham chuqur tushunishi kerak. Bugungi agrar ta'lim shu talabga moslashmoqda", - deydi Narzullo Oblomurodov.

/2026.Nº4/35/

Universitetda qishloq xo'jaligini raqamlashtirish va ilmiy tadqiqotlarni ishlab chiqarish bilan integratsiya qilishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Aqlli issiqxona, geoaxborot tizimlari, raqamli agrotexnologiyalar, innovatsion laboratoriyalar va tuproqshunoslik laboratoriyasi hamda O'zbekiston-Xitoy olma bog'i tashkil etilgan. 2026-yilda universitet huzurida Agroinnovation Hub va Agroinnovation Lab tarmog'ini yaratish rejalashtirilmoqda. Shuningdek, qishloq xo'jaligida zamonaviy muhandislik yechimlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga ixtisoslashgan ilg'or agromuhandislik maktabini tashkil etish ko'zda tutilgan.

Ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish va amaliyotga tatbiq etish borasida ham o'zgarishlar kuzatilmoqda. Universitetda xo'jalik shartnomalari va xalqaro grantlar hajmini oshirish, ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga kengroq joriy etish ustida ish olib borilmoqda. 2026-yilda ilmiy loyihalar qiymatini 19,5 milliard so'mga yetkazish rejalashtirilgan.

Bugungi kunda universitetda 516 nafar professor-o'qituvchi faoliyat yuritadi. Ilmiy salohiyat 72,2 foizni tashkil etadi. Bu yerda 3 nafar akademik, 90 nafar fan doktori va 280 nafar PhD faoliyat olib bormoqda. Ilmiy va akademik faoliyatning xalqaro yo'nalishi ham kengaymoqda. Universitet Xitoy, Rossiya,

Turkiya, Yaponiya, Koreya, Polsha, Litva, Slovakiya, Italiya va Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan hamkorlik olib bormoqda. Ayni paytda 13 ta qo'shma ta'lim dasturi faoliyat yuritmoqda. Universitetda 7 ta xorijiy til markazi



O'ZBEKISTON TALABASI



faoliyat yuritadi. Xitoy tili markazida muntazam ravishda xitoylik mutaxassislar ishlaydi. Yapon tili markazi esa JICA ko'magida tashkil etilgan. 2026-yildan boshlab Yaponiyaning YUIME, MITU-MOTO va NINAITE tashkilotlari orqali talabalarni amaliyot va ishlash uchun Yaponiyaga yuborish rejalashtirilgan. Xalqaro grantlar va ta'lim eksporti ko'rsatkichlari ham o'sib bormoqda. 2025-yilda xalqaro grantlar hajmi 3,9 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilda bu ko'rsatkichni 4,5 million dollarga yetkazish maqsad qilingan. Ta'lim eksporti hajmini esa 0,6 million dollardan 1,2 million dollarga oshirish rejalashtirilgan.

Universitetda bugungi kunda 14 ming 160 nafar talaba tahsil olmoqda. Ularning 6891 nafari kunduzgi, 5285 nafari sirtqi, 500 nafari kechki, 647 nafari magistratura, 354 nafari qo'shma ta'lim va 483 nafari masofaviy ta'lim shaklida o'qiydi.

So'nggi yillarda universitet infratuzilmasida ham katta o'zgarishlar amalga oshirilgan. Talabalar uchun 400 o'rinli yangi talabalar turar joyi qurildi, sport maydonlari, suzish havzasi, "Renessans" ma'ruza zal-

lari, zamonaviy kutubxona va madaniyat saroyi talabalar ixtiyoriga havola qilindi. TTJ larda oshxonalar, kir yuvish xonalari va lokal isitish tizimlari tashkil qilingan. 2026-yil oxirigacha 5 qavatli 1400 o'ringa mo'ljallangan yangi o'quv binosi, zamonaviy futbol stadioni hamda 720 o'rinli ko'p qavatli avtoturargohni foydalanishga topshirish rejalashtirilgan. Shuningdek, universitet hududidagi ichki yo'llar, suv va elektr ta'minoti tizimlarini modernizatsiya qilish ishlari ham davom ettiriladi. Talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni sport, san'at va intellektual faoliyatga jalb qilish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. 2025-yilda universitetda "Besh muhim tashabbus" doirasidagi minglab ma'naviy-ma'rifiy, yuzlab sport sog'lomlashtirish tadbirlari, intellektual o'yin va boshqa loyihalar amalga oshirilgan. "AgroEssay", "Zakovat va munozara", "AgroMedia", "Innovation" kabi klublar faoliyat yuritmoqda.

Universitet rahbariyati oldidagi asosiy maqsadlardan biri – Toshkent davlat agrar universitetini xalqaro reytinglarda yuqori pog'onaga olib chiqish. Kelgusida TOP-500 universitetlar bilan hamkorlik, raqamli agrotexnologiyalar va amaliyotga asoslangan ta'lim modeli orqali universitetning global nufuzi va ilmiy salohiyatini yana-da oshirish rejalashtirilgan. Bugungi TDAUda kuzatilayotgan o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, universitet agrar ta'limning yangi modelini shakllantirishga urinmoqda. Bu modelda auditoriya, laboratoriya, dala, klaster va ishlab chiqarish o'zaro bog'langan yagona tizim sifatida qaralmoqda. Universitet bu yo'lda qanday natijalarga erishishini vaqt ko'rsatadi. Ammo bugunning o'zidayoq Toshkent davlat agrar universitetida agrar ta'limni zamonaviy ishlab chiqarish, ilm-fan va innovatsiyalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan sezilarli jarayon boshlanganini ko'rish mumkin.

**Otabek
TURDIYEV**



(ULAR BILAN
BOG'LIQ QIZIQ
VOQEALAR)

Dunyoning apreldagi mehmorlari

Leonardo da Vinci

Buyuk italyan musavviri va olim. 1452-yilning 15-aprelda Florensiya(hozirgi Italiya)ning Vinchi shahrida tug'ilgan. "Da Vinci" familiya emas, balki "Vinchilik Leonardo" degan ma'noni bildiradi, xuddi al-Farg'oniy kabi.

Asarlarida diniy mazmuni xilma-xil insoniy hissiyotlar ko'zgasiga aylantiradi. Yuz ifodasini berishda o'ta mahoratli bo'lib, yuzdagi nim tabassum bilan ham odamlar chehrasini jonlantirib, ularning ichki dunyosini ifodalagan. Masalan, uning "Mona Liza" asari shunga xos. Eng qimmat surati – "Dunyo xaloskori" 2017-yilda rekord darajada, 450 million dollarga sotilgan. Biroq sotilgan bu asarning soxtaligi haqida gapirishadi. Da Vinci mexanik olim sifatida yer qazuvchi mashina, uchish apparatlari, suv osti kemasi, to'quvchilik va boshqa dastgohlar loyihalarini chizgan. Yon daftarlaridan vertolyot, parashyut, tank va g'avvoslar kiyimining ilk chizmalari topilgan. Bill Geyts Leonardoning "Lester kodeksi" nomli ilmiy daftarini 1994-yilda 30 million dollardan qimmatroqqa sotib olgan. Da Vinci chapaqay bo'lgani uchun u o'z eslatmalarini o'ngdan chapga qarab, faqat ko'zguna o'qiladigan qilib yozgan. Olimning muskul va suyaklarni o'rganish uchun 30 dan ortiq inson jasadini yorib ko'rganligi haqida ma'lumotlar bor.



William Shekspir

1564-yil 23 yoki 26-aprelda Angliyaning Stratfor-upon-Avon shahrida tugʻilgan. Ingliz dramaturgi, shoir va aktyor, dunyoning eng mashhur dramaturglaridan biri. Uning saqlanib qolgan asarlari taxminan 39 ta pyesa, 154 ta sonet, 2 ta narrativ sheʼr va boshqa asarlardan iborat. Eng qisqa pyesasi “Xatoliklar komediyasi” – 1 770 satr, eng uzuni esa “Hamlet” – 4 042 satrdan iborat. Oksford ingliz tili lugʻati Shekspirning ingliz tiliga taxminan 3 000 ta yangi soʻz kiritganligini eʼtirof etgan. U oʻz asarlarida 24 000 dan ortiq turlicha soʻzlardan foydalanган. Bu oʻsha davr uchun ham, hozirgi zamon uchun ham hayratlanarli darajada katta koʻrsatkich. “Romeo va Juletta” mashhur sevgi qissasi ham Shekspirdan oldin italyan yozuvchilari tomonidan yozilgan. Ammo Shekspir unga chuqur sheʼriyat va drammatizm olib kiradi. Uning pyesalari asosan uch guruhga boʻlinadi: Komediya (masalan, “Yoz tunidagi tush”), Fojialar (“Gamlet”, “Otello”, “Qiroli Lir”, “Makbet”) va Tarixiy xronikalar (“Genrix V”). Shekspir oʻz qabrining daxlsiz qolishini juda xohlagan. Shu sababli uning qabr toshiga: «Suyaklarimni qoʻzgʻatgan odam laʼnatga qolsin» degan maʼnodagi ogohlantirish yozilgani uchun shu kungacha hech kim uning qabrini ochishga botinolmagan.

Adolf Gitler

1889-yilning 20-aprelda Avstriyaning Braunau-am-Inn qishlogʻida tugʻilgan. Kelib chiqishi avstriyalik boʻlgan nemis siyosatchisi. Milliy-sotsialistik nemis ishchilar partiyasining yetakchisi, Ikkinchi jahon urushi davrida Germaniya qurolli kuchlarining bosh qoʻmondoni. Uning haqiqiy familiyasi Shicklgruber boʻlgan. 16 yoshida Gitler notoʻliq oʻrta taʼlim beradigan Linsdagi maktabni tamomlaydi. Vena badiiy sanʼatlar akademiyasiga kirishga urinishlari omadsiz boʻladi. Onasining vafotidan soʻng Gitler Venaga koʻchib oʻtadi. U yerda uysizlarga beriladigan boshpanalarda yashab, kam maoshga kun koʻradi. 1919-yilda fashistlar partiyasiga aʼzo boʻlib, 1921-yilda uning rahbariga aylangan. 1933-yil 30-yanvarda Germaniya konsleri etib tayinlangan. 1934-yilda prezidentlikni bekor qilib, oʻzini mutloq diktator (Fyurer) deb eʼlon qilgan. Uning buyrugʻi bilan 6 million yahudiy va millionlab boshqa insonlar tizimli ravishda qirilgan. Nyurnberg sud jarayonida asosiy natsist harbiy jinoyatchi deb topilgan. Gitler gʻoyalarining aksariyati avtobiografik kitobi – “Mening kurashim”da bayon etilgan.





Charli Chaplin

1889-yilning 16-aprelida Londonda tugʻilgan. Jahon kinosi tarixidagi eng mashhur komik aktyor, rejissyor va kompozitor. Ovozsiz kino davrining muhim shaxslaridan. Chaplin faoliyatini 1897-yil myuzikxoll sahnalarida chiqishdan boshlagan. U kambagʻal oilada tugʻilgan. Onasi ruhiy kasalxonaga tushgach, bolalar uyi va koʻchalarda yashagan. “Sargardon” obrazini 1914-yilda tasodifan oʻylab topgan: keng shim, tor jaket, katta poyabzal va tross tayoqcha uning ramziga aylangan. Birgina sahna mukammal chiqishi uchun Chaplin yuzlab dubllar olgan. Bir safar 3 soniyali sahna uchun 342 marta dubl qildirgan.

Uning “Katta shahar chiroqlari”, “Yangi zamonlar” va “Buyuk diktator” filmlari nihoyatda mashhur. Chaplin ijodkor sifatida sanʼatga insonni hayot bilan bogʻlab turuvchi eng buyuk kuch, deb qaragan. 1928 va 1972-yillar maxsus „Oskar“ mukofotiga sazovor boʻlgan. Birinchi marta oʻtkazilgan Oskar taqdirlash marosimida Chaplin “Sirk” filmi uchun maxsus mukofot bilan taqdirlangan. 1950-yillarda siyosiy qarashlari tufayli AQSh hukumati uni “komunist” deb hisoblab, mamlakatga qaytishini taqiqlagan. Shundan soʻng u Shveysariyada yashagan. AQShdan haydalganidan 20 yil oʻtib, unga kinematografiyaga qoʻshgan hissi uchun Faxriy Oskar berishadi. Chaplin marosimga kelganida, zaldagi barcha odamlar uni 12 daqiqa davomida tik turib olqishlashgan – bu Oskar tarixidagi eng uzoq davom etgan qarsaklardir. 1977-yili u vafot etganidan uch oy oʻtgach, ikki nafar jinoyatchi uning jasadini Shveysariyadagi qabridan oʻgʻirlab ketadi. Oʻgʻrilar Chaplinning rafiqasidan 600 ming dollar miqdorida pul talab qiladi. Aktyorning ayoli: “Erim buni eshitganda oʻta kulgili deb hisoblagan boʻlardi”, – deb pul toʻlashdan bosh tortgan. Politsiya oʻgʻrilarni qoʻlga oladi, Chaplin jasadi qayta oʻgʻirlanmasligi uchun qabr ustiga qalin beton quyib tashlangan. Charli Chaplin jami 11 nafar farzandning otasi boʻlgan. Uning eng kenja farzandi tugʻilganda aktyor 73 yoshda edi. Bir safar Chaplin “Charli Chaplin qiyofadoshlari” tanlovida hech kimga bildirmasdan, yashirincha qatnashgan. Qizigʻi, haqiqiy Chaplinga 3-oʻrin nasib qiladi. Biroq Chaplin “Men kun boʻyi tinmay ishlayman, nega endi borib oʻz tanlovimda qatnashishim kerak?” deya bu voqea haqiqatga toʻgʻri kelmasligini aytgan.



Abdulla Qodiriy (Julqunboy)

1894-yilning 14-aprelida Toshkentda tugʻilgan. XX asr yangi oʻzbek adabiyotining ulkan namoyandasi, oʻzbek romanchiligining asoschisi. Otasi Qodirboboning boshidan oʻtgan sarguzashtlar Qodiriyning tarixiy romanlari yuzaga kelishiga turtki bergan. Qodirbobo rus bosqini paytida Toshkent mudofaasida qatnashgan. “Biz jasorat soʻrar edik, lekin berish qayerda?! Jasoratimizning qolgʻan-qutqanini ham olmoq mudaosida edilar”, – deb yozadi Julqunboy “Qizil bayroq” gazetasida. Qodiriyning “Uloqda” hikoyasi oʻzbek realistik adabiyotining choʻqqisi, realizistik hikoyaning eng yaxshi namunasi hisoblanadi. Qodiriy shoʻro hokimiyatining dastlabki yillarida oʻzbek adabiyotidagi birinchi romani – “Oʻtkan kunlar”ni taqdim qilib, xalqning milliy ongini uygʻotmoqchi, XIX asr oʻrtasidagi mudhish tarixiy jarayonlar haqida soʻz ochib, bu ayanchli haqiqatdan xalqqa saboq bermoqchi boʻldi. 1928-yilda yozilgan “Mehrobdan chayon” asari esa, garchi markazda Anvar va Raʼno tursa-da, maqsad sajdagohdan chiqqan, oʻsha dargohga nomunosib munofiq, qallob, tuban, hasadgoʻy, eʼtiqodsiz kishilarga ishora edi. “Soʻz soʻylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak. Yozguchining oʻzigina tushunib, boshqalarning tushunmasligi katta ayb”, – deb yozadi Abdulla Qodiriy “Mushtum”ning 1925-yildagi sonlaridan birida. Qodiriy shoʻro mafkurachilariga maʼqul kelmagan “ideologik buzuqliklar va xatolar”ga toʻla, “siyosiy tuturiqsiz” asarlari ortidan hibsga olinadi, kitoblari yoqib yuboriladi, oʻzini esa Choʻlpon, Fitrat kabi qatl qilishadi. “Yaxshiliqqa oʻrgangan bir banda osonliq bilan oʻz yaxshiligʻini qoʻymaydir. A, yomon-chi, Xudo panoh bersun, it suyak chaynamasa, tishi qichiydir”, – deydi u maqolalaridan birida.

Oyatullo Ali Xomanaiy

1939-yil 19-aprelda Eronning Mashhadida tugʻilgan. Eronlik siyosiy va diniy arbob. Eron Oliy Rahbari. 1963-yildan bir necha marta qamoq va surgunda boʻlgan. 1979-yilgi shohga qarshi inqilobda Mashhaddagi islom harakatiga boshchilik qilgan. 1981-yil oktabridan Eron Islom Respublikasi prezidenti, Oliy mudofaa kengashi raisi. 1989-yil 4-iyundan Eron Islom Respublikasi Oliy Rahbari sifatida faoliyat yuritgan. U kelib chiqishi va millati boʻyicha ozarbayjoniy. Xomanaiy fors, ozarbayjon va arab tillarini bilgan. Ingliz tilida soʻzlasha olgan. Bir nechta kitoblarni arab tilidan fors tiliga tarjima qilgan. Oʻzi ham bir qancha kitoblar yozgan. U “Baʼzi vaqtlar uyimizda tushlik yoʻq edi. Onam qiyinchilik bilan bizga ovqat tayyorlardi. Tushligimiz non va mayizdan iborat edi”, – deydi yoshligini eslab. 2026-yil 28-fevral kuni Isroil va AQSh hujumlari oqibatida Eron oliy rahnamosi, mamlakatni 37 yildan buyon boshqarib kelayotgan 86 yoshli Oyatulloh Ali Xomanaiy halok boʻldi. Oʻldirilganidan keyin Eronda 40 kunlik motam eʼlon qilingan. 2026-yil mart oyida uning oʻrnini oʻgʻli Mojtaba Xomanaiy egallagan.





Botir Zokirov

1936-yil 26-aprelda Moskvada tugʻilgan. Xonanda, aktyor, rassom. 30 yoshga toʻlmay turib, Oʻzbekiston xalq artisti boʻlgan. Oʻzbek zamonaviy professional estrada ijrochiligidan asoschisi. Botir Zokirov oʻta taʼsirchan tembrli, shirador ovozga ega boʻlgan. Ijro etgan qoʻshiqlarining aksariyatini lirik-dramatik asar darajasiga koʻtara olgan. Uning yaratgan barcha qoʻshiqlari shu kungacha sevib tinglanadi. Ayniqsa, “Ra’no”, “Umid”, “Arabcha tango”, “Maftun boʻldim”, “Majnuntol”. “Bolamning sal oʻjarroq va tortinchoq fe’li bor edi. Oxirgi kasal boʻlganida dori olishga puli qolmabdi. Tortinib, hech qaysimizga aytmagan. Sezib qolib pensiyamni eltib berdim. Oʻshanda juda xijolat boʻldi bolaginam... Men Botirjonimning konsertlariga kirolmadim. Uning nolasiga yuragim dosh berolmaydi”, – degan ekan Botir Zokirovning onasi Shohista aya. Aytishlaricha, buyuk turk adibi Nozim Hikmat uning qoʻshiqlari shaydosi boʻlgan. Botir Zokirovning rassom sifatida “Avtoportret”, “Saraton”, “Gumbazlar”, “Bolalik koʻchasi”, “Chor minor” kabi asarlari bor. “Qoʻshiqlarimda oʻz ifodasini topolmagan fikrlarimni, tuygʻularimni boʻyoqlarda aks ettirishga urinaman. Koʻpchilik “Manzara”lar betobligimda qogʻozga tushgan”, – degan edi xonanda. Botir Zokirovning aytishicha, “Agar yurakda ishtiyoq boʻlsa, qilayotgan ishingga ishonsang, sanʼatning barcha turlarida oʻz kuchingni sinab koʻrsang boʻladi”. U Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan. Aktyor sifatida esa “Gullar ochilganda”, “Olovli yoʻllar”, “Dahoning yoshligi” filmlarida rol ijro qilgan. “Bu amaldorlar sanʼatni lavozimi vajidan mulohaza qilmaganda u qadar xavfli emas. Dahshatlisi, ularning kaltabinligi, daqqi didi maʼlum bir darajaga koʻtariladi, mezonga aylanadi. Shu uchun ham ularni hurmat qilmayman, hatto salom-alik qilishni xohlamayman”, – degan edi Botir Zokirov. 2024-yili Oʻzbekiston Davlat konservatoriyasi yonida Botir Zokirovning haykali ochildi.



Muhammad Yusuf

1954-yilning 26-aprelida Andijon viloyati Marhamat tumanida tugʻilgan.

Oʻzbekiston xalq shoiri. Uning ilk sheʼrlari 1976-yildan “Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati” gazetasida bosila boshlagan. Uning, ayniqsa, “Lolaqizgʻaldoq”, “Ulugʻimsan, Vatanim” sheʼrlari haligacha mashhur. Muhammad Yusuf sheʼriyati haqida gap ketssa, samimiylik va mayinlik, musiqiy ravonlik, tuygʻular tiniqligi, soʻzning badiiy imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanishi, ruhiyat manzaralarini loʻnda ifodalashi tilga olinadi. Yozuvchi Muhammad Ali Muhammad Yusuf haqida shunday deydi: “Oʻtgan asrning saksoninchi yillarida Yozuvchilar uyushmasida katta mushoira boʻldi. Qorachadan kelgan bir yigitcha minbarga chiqib, taniqli shoirlar qatorida sheʼr oʻqidi, oʻqidi-yu, uloqni olib ketgani bilindi! Bu yosh shoir Muhammad Yusuf edi, uning sheʼri doʻppiga bagʻishlangandi. “Bosh qolmadi doʻppiga loyiq” satrini keltirganda, zal olqishlarga toʻldi. Nazokat bilan aytilgan, chuqur ramziy maʼnoga ega bu sheʼr oʻzbeklikni, oʻzbekni ulugʻlovchi, gʻururimizni yuksakka koʻtaruvchi timsol sifatida jaranglangandi. Ha, shoir doʻppiga loyiq odamlar boʻlishini, shularning safida shahdam yurishni orzu qildi”. Shoirning ayoliga koʻra, Muhammad Yusuf yangi koʻylak kiyishni yoqtirmas, oldin togʻoraga solib yuvdirib, ohorini toʻkib, soʻng kiygan ekan.

Jeki Chan

1954-yilning 7-aprelida Hong Kongda tugʻilgan. Jahonga mashhur jangari sanʼat ustasi, aktyor va rejissor. U 150 dan ortiq filmlarda suratga tushgan hamda akrobatik jang uslubi va komik personajlari bilan tanilgan. Jeki yetti yoshida Pekin opera akademiyasiga berilgan va u yerda oʻn yil davomida jang sanʼati, akrobatika hamda ashula aytishni oʻrgangan. Jeki Chan professional vokalchi boʻlib, 20 dan ortiq musiqiy albom chiqargan va oʻz filmlarining saundtreklarini koʻpincha oʻzi kuylaydi. U kanton, mandarin, ingliz, nemis, koreys, yapon va tay tillarini yaxshi biladi. Jeki barcha xavfli tryuklarni oʻzi bajargani sababli, dunyodagi deyarli hech bir sugʻurta kompaniyasi uning filmlarini sugʻurtalashni xohlamaydi. Tasvirga olishlardagi tryuklari ortidan tanasidagi deyarli barcha suyaklarini sindirib olgan. Kinematografiyaga qoʻshgan ulkan hissasi uchun 2016-yilda unga faxriy “Oskar” mukofoti topshirilgan.



Robert Oppenheimer

1904-yil 22-aprel Nyu Yorkda tugʻilgan. Amerikalik mashhur fizik olim. Ilmiy ishlari kvant mexanika, kosmik nurlar fizikasi, nisbiylik nazariyasi, elementar zarralar fizikasi, neytron yulduzlar nazariyasiga oid. Ikkinchi jahon urushi yillarida Los-Alamosdagi yadro laboratoriyasiga rahbarlik qilgan, atom bombasining yaratilishida faol ishtirok etgan. Atom bombasi keltirgan vayronagarchiliklarni koʻrgach, u yana-da kuchliroq boʻlgan vodorod bombasi yaratilishiga keskin qarshi chiqqan. Atom energiyasidan faqat tinch maqsadlarida foydalanish tarafdori boʻlgani uchun 1954-yilda maxfiy ishlar bilan bogʻliq boʻlgan barcha vazifalaridan chetlatilgan. Fizika rivojiga ulkan hissa qoʻshganiga qaramay, u uch marta Nobel mukofotiga nomzod qilib koʻrsatilgan, ammo hech qachon gʻolib boʻlmagan. 1954-yilda “Sokin urush” davridagi kommunistik kayfiyatlarga qarshi kurash doirasida Oppenheimerning maxfiy hujjatlar bilan ishlash ruxsatnomasi olib qoʻyilgan. Urushdan keyin, 1947-yilda Oppenheimer Prinstondagi Ilgʻor tadqiqotlar instituti direktori etib tayinlandi, Eynshteyn esa u yerda professor edi. Ularning xonalari bir yoʻlakda joylashgan boʻlib, Eynshteyn umrining oxirgi yillarida ular haqiqiy doʻstga aylanishgan. Keyinchalik Oppenheimerdan barcha ayblovlar olib tashlanadi va toʻliq oqlanadi. Rasmiy uzr soʻrashning ramziy maʼnosida Robert Oppenheimerga Fermi mukofotini prezident Jonsonning oʻzi shaxsan topshiradi. Oradan toʻrt yil oʻtib, Robert Oppenheimer tomoq saratoni kasalligidan vafot etadi. U 1939-yilda yulduzlarning gravitatsion siqilishi haqida ilmiy ish chop etgan. Bu ish keyinchalik koinotdagi “qora tuynuklar” mavjudligini isbotlovchi ilk nazariyalardan biri boʻlgan.

**Internet manbalari asosida Manzura
Abduhakimova tayyorladi**

AYOL



RANIGI

Ojodkor hamisha nimagadir intilib yashaydi. Nimanidir oshkora yo pinhona izlaydi. O'zini, hayotining mazmunini, insoniyatni qiynab kelgan azaliy va abadiy savollarning javobini topgisi, xalqning dardiga malham, ozurda qalbiga taskin bo'lgisi keladi ijodkor insonlarning. Haqiqiy ijodkor xalqining bo'g'zidan chiqmay qolgan fig'oni, ko'zlaridan oqmay qolgan yoshi, tuta olmagan azasidan so'zlamok istaydi. Ijodkor umri mana shunday mushkul, sermashaqqat izlam bilan o'tadi.

“Akademnashr” nashriyoti tomonidan adabiyotga dadil qadamlari bilan kirib kelayotgan yangi avlod ijodkorlarining asarlari chop etilayotgan ruknning “Izlam” deb nomlanishi ham bejiz emas. Nashriyot bu yangi, jarangdor ovozlarning qalbida, shuurida jo'sh urayotgan “izlam”ini anglagan, tushungan holda ayni nom bilan ularning to'plamlarini chop etmoqda.

“Izlam”ning ikkinchi faslida kitoblari chop etilgan yosh adiblarimiz qatorida “Qirq birinchi kun” hikoyalar to‘plami muallifi Mohi Ra (Mohira Eshpo‘latova)ning borligi faol kitobxon, adabiyotsevar o‘laroq meni behad quvontirgandi. Sababi muallif o‘z ijodiy dunyosini, badiiy mahoratini, rivoyat uslubini shu kitobdan joy olgan hikoyalari orqali yetarli darajada namoyon eta olgan.

Kitobni o‘qirkanman, aksar qahramonlarning yelkasidagi og‘ir yuk, huzun ta‘sir o‘tkazmay qolmadi. Ochig‘i bu qadar tushkun kayfiyat, bunday chuqur ta‘sir kutmagandim. Sahifadan sahifaga, hikoyadan hikoyaga ko‘chib borarkan, ularda taqdiri bayon etilgan kishilarning chorasizlik, umidsizlik, kasallik, cheksiz uqubat girdobiga tushib qolishlari meni chuqur qayg‘uga soldi.

Darvoqe, kasallik! Ularning ko‘plari kasal. Nega, ajabo? Bir muallifning bir kitobida nega buncha o‘xshash qahramonlar bor ekan?

Nega musiqa, pianino? Qiziqarli, to‘g‘rimi?

Mana shu jihatlar mutolaa davomida o‘quvchida yozuvchi o‘z-o‘zini takrorlagandek tasavvur paydo qiladi. Ammo chuqurroq mulohaza qilinsa, umumiy jihatlari bor bu qahramonlar taqdirleri, hayot tarzi tubdan farqliligini ham sezasiz. Diqqatingizni tortgan mayda o‘xshashliklar esa muallifning ong ostiga muhrlangan allaqanday shaxsiy xotiralar, hissiyotlar, qalbini iztirobga solgan faqat ungagina ayon kechinmalar bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Mundarijaning eng boshi va oxiridan joy olgan xatlar alohida diqqat-e‘tibor jalb etadi. “Katena” va “Qizim To‘marisga” deb nomlangan bu ikki asar orqali muallif o‘zining, o‘zi orqali butun jamiyat xotin-qizlarining muammolari, hasratlarini baland ovozlarda aytib bermoqchi bo‘lgandek.

Aslida, ayni mana shu jihat Mohi Ra ijodining o‘ziga xos tomoni, desak ham bo‘ladi. U har bir qiz-ayol erkin, baxtli, hech qanday to‘siqsiz, bosimsiz hayot kechirishini, o‘z qarorlarini o‘zi qabul qilishini, o‘z so‘ziga, o‘z shaxsiyatiga ega bo‘lishini juda-juda istaydi. Asarlari orqali buni o‘z kitobxonlariga (balki, butun insoniyatga) ham uqtirmoqchi bo‘ladi. Muxtasar qilib aytish mumkinki, “Qirq birinchi kun” hikoyalar to‘plamining bosh g‘oyasi – erk, ayollar erki. So‘zimizning isboti o‘laroq to‘plamdagi bir nechta hikoyani ko‘rib chiqsak.

Muallif ayollarning hasratlarini baland ovozda aytib bermoqchi





“Olov raqsi”. Gulkelidi... Maishat, oltin-u zarlar, bazmi Jamshidlar, hashamat ichra qullikdan battar ruhiy azoblardan o'zini qutqarib olgan, raqsi butun dunyosi bo'lgan go'zal qiz. Uning Jangchiga aytgan so'zlari bir ayol jinsi uchrashi mumkin bo'lgan butun azob, bor kamsitish-u xo'rliklarga isyondek go'yo: “Shamolni qafasga solib bo'lmaydi-ku, qullikda tiriklik bo'lar, ammo sen bilan men bir paytlar orzu qilgan baxt bo'lmaydi-ku!”

Yakun hamda xulosa sifatida to'plam nomiga aylangan “Qirq birinchi kun” hikoyasiga nazar tashlaylik. Bosh qahramon Nozimani dunyodagi barcha odamlardan ajratib turuvchi ramziy “o'ziga xosligi” – qanotlari bor. Ota-onasi uning “kelajagi”dan, odamlar u haqida nima deyishidan tashvishda. Olimlar uni davolash

“Zarnigor”. “U sahnalarga qanchalik yarashgan bo'lardi-ya...”

Hech qanday musiqa maktabini ko'rmagan, ajdodlari baxshi o'tmagan bu favqulodda xushovoz qizning gul umri jahon sahnalarida emas, kattakon yuk mashinasining ustida tarvuz sotib o'tmoqda. Afsus... Undan ham achinarlisi uning go'zal ovozidan bahramand bo'lgan kam sonli, joiz bo'lsa, bu ovozni qadrlaydigan yagona odam ham unga yordam berolmaydi. Ro'parasida o'jiz qarab turishdan boshqa hech narsani eplolmaydi, zotan, o'zining hayotiy muammolari oz emas... Asar tan olinmaslik, yo'l berilmaslik azobiga duchor etilgan, bebaho iste'dodi turmush mashaqqatlari yo'lida xazon qilingan ayolning, qishloq ayolining siniq qalbiga haykal qo'yadi.

“Tugallanmagan kuy”. Zarnigorga biroz teskari xarakterdagi navbatdagi qahramon – Safiya... Hikoya davomida zolim ota-onadan qochishni, iste'dodi bilan sohasining bilimdonlarini lol qoldirishni, mashhurlikni, tanilishni eplay olgan, hayot qiyinchiliklaridan zoda bo'lsa-da sevimli kasbida, o'z prinsiplarida mahkam turgan bu qizning oniy mag'lubiyati, aniqrog'i, kichik chekinishini o'qiymiz. Shu kungacha Safiya nimalar yashaganini bildik, ammo kelajagi-chi? U xuddi hikoyaning nomi kabi: tugallanmagan... Safiyaning o'z ta'biricha: “Ooo, mening porloq kelajagim, ayni paytda unda yashayapmanmi yo hali yetib borolmadimmi?” Bu savolning javobini – “Tugallanmagan kuy”ning yakuni”ni muto'ladan so'ng har bir o'quvchi o'zicha yaratadi.

bahonasida tibbiyot va inson evolyutsiyasida yangilik qilmoqchi, dunyoga mashhur bo'lmoqchi, boy bo'lmoqchi. Qanotli qizning sevgan yigiti ham bir zumda begonaga aylana qoldi. O'zgacha bo'lish kulfati Nozimaning butun hayotini ag'dar-to'ntar qilib yubordi. Bularning barchasi u o'zini kasal deb hisoblashi, o'zgacha inson ekanligini shunchaki qabul qila olmasligiga sabab bo'ldi. Qanotlari uning kemtik, nuqson jihati edi go'yo. Go'yo Yaratgan jamiki maxluqlarini bir-biridan farqli, betakror yaratmagandek...

**Asar tan
olinmagan qishloq
ayolining siniq
qalbiga haykal
qo'yadi**

Jahon adabiyot nazariyasida “o‘zgachalik”, “boshqachalik”(“otherness”) tushunchasi bor. Bu nazariyaning yorqin misoli sifatida Meri Shellining bugun o‘zbek kitobxonlari orasida mashhur bo‘lgan “Frankshteyn” asarini keltirish mumkin. Nazariya individlarning turfa xilligi, u yoki bu jamiyatda ustun bo‘lgan biror xususiyat, sifat, fazilatga ega bo‘lmaslik, aslida, normalligini tushuntiradi. Aslida, insonlar va jamiki maxluqotlar bir-biridan farqli va ular o‘zlarini ana shu farqlar orqali chuqurroq anglaydilar, farqlar bilan ularning har biri butun, alohida, mustaqil mavjudotdirlar. Ammo, afsuski, har doim ham buni anglab yetavermaymiz. Nozima prototipidagi insonlarga hayotda juda ko‘p duch kelish mumkin. Imkoniyati cheklangan shaxslar, qora tanlilar, muhojirlar... Bunday kishilar deyarli har kuni “o‘zgachalik”, “ortiqcha”lik jabrini tortadi, g‘alati ko‘z qarashlar, qo‘l uchida ko‘rsatishlar, kamsitishlarga uchraydi.

Hikoyani yana boshqa tomondan tahlil qilish mumkin. O‘sha qanot – ayollarning nuqson sanalgan, ammo o‘ziga xosligi bo‘lgan barcha xislatlari ramzi.

Qullik, erksizlik – o‘limdan-da qo‘rqinchli. Mohira esa o‘z qahramonlari obrazida butun insoniyatni ana shunday qaramlik, notenglik, nohaqlik, kamsitilishlardan xalos etmoqchidek, go‘yo.

Ayollar huquqlari, gender tengligi yoki feminizm mavzusi ochilarkan, aytib o‘tilishi lozim bo‘lgan yana bir alohida jihat bor. E’tiborimni tortgan bu narsa kitobning rangi. U – pushti. Avvalo, pushti rang ayollikni, ayollarga xoslikni bildiradi. Shu bilan birga feminizmga ayollarga nisbatan gender stereotiplari va rollarini zo‘rlab yuklashga qarshi norozilik, isyon belgisi hamdir. O‘ylaymanki, bu ham shunchaki tasodif emas. Mohira Eshpo‘latova esa jamiyatimiz uchun og‘riqli bo‘lgan katta ijtimoiy muammoni yuksak badiiy mahorat bilan o‘z asarlarida namoyon etgan. Uning ijodidan ziyoli, kuchli, erkin va nazokatli ayol rangini, hidini sezish mushkul emas. Jamiyatimizda bunday kayfiyatdagi ayollarning, ayol yozuvchilarning ko‘payishi quvonarli hodisa. Menimcha, “Qirq birinchi kun” to‘plami, ayniqsa, qizlarimiz o‘qib chiqishi zarur bo‘lgan to‘plamdir.

Muhammadali PO‘LATOV

Ayol yozuvchilarning ko‘payishi quvonarli hodisa



Hissiyotlar

LABORATORIYASI

“A

gar kino 2-3 ming yillik tarixga ega bo'lganida edi, u san'at taraqqiyotining umumiy qonunlari ta'sirida qolgan bo'lur edi. Aslida, kino bor-yo'g'i 60-yillik tarixga ega. Shuning uchun u bunday ta'sirdan xoli. Kino hali yosh, adabiyot, teatr, musiqa, rassomlik esa qadimiy san'atlardandir. Yosh go'dakning tarbiyasi uni o'rab olgan katta kishilarga taqlid qilish bilan amalga oshirilganidek, kino o'z taraqqiyotining dastlabki pallasida ko'hna san'atlarning ta'sirida qoldi”.

Fransuz kino tanqidchisi va kino nazariyotchisi

Andre BAZENning 1962-yilda yozilgan “Kino nima?” kitobidan olindi.

Kino san'ati san'at turlari ichida eng yoshi bo'lishiga qaramasdan, insoniyat madaniyatining eng ta'sirchan va keng tarqalgan ko'rinishlaridan biriga aylanib ulgurgan hodisadir.

Agar tarixiy nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, kinoning rasmiy tug'ilgan kuni sifatida 1895-yil 28-dekabr qabul qilinadi. Shu kunda Aka-uka Lui va Ogyust Lyumerlar Parijning “Grand-kafe” yerto'lasida dunyodagi birinchi pullik kinoseans namoyish etishgan. Jahon kinosining asoschilari hisoblangan Lyumerlarning eng asosiy ixtirosi — sinematograf (cinématographe) apparatidir.

Shu asnoda, 2026-yilga kelib kino san'ati taxminan 130-131-yillik tarixga ega bo'lgan eng yosh san'at turlaridandir. Shunga qaramasdan, 130 yildan ortiq tarixga ega bo'lgan kino musiqa, adabiyot





Inson hikoyalarga muhtoj

yoki teatr kabi ming yillik an'analarga ega san'atlardan ancha keyin paydo bo'lgan bo'lsa-da, tez fursatda insoniyatning eng sevimli ma'naviy ehtiyojlaridan biriga aylandi. Buning sababi uning o'ziga xos sintetik tabiatida: kino tasvir, ovoz, adabiyot va sahna ifodasini bir nuqtada birlashtira oldi (Adabiyot fikrni so'z orqali yetkazsa, musiqa tuyg'uni ovoz orqali ifoda etsa, kino shu ikkisini ham o'z ichiga olib, insonga to'liq joziba taqdim eta oldi).

Bugun kino faqat hikoya aytish vositasi emas, balki jamiyatning kayfiyatini, insonning ichki dunyosini va davr ruhini aks ettiruvchi global tilga aylangan. Shu jihatdan u, boshqa san'at turlariga nisbatan kechroq paydo bo'lgan bo'lsa ham, ular bilan tenglashibgina qolmay, ko'p hollarda ulardan ham ilgarilab ketgan madaniy fenomen sifatida qaraladi. Kino shunchaki tasvirlar ketma-ketligi emas. U — inson tafakkuri, xotirasi va hissiyotining sintezi. Unda vaqt, makon va ma'no birlashadi. Kinosan'ati paydo bo'lganidan beri u faqat ko'ngilochar vosita sifatida emas, balki dunyoni anglash shakli sifatida rivojlanib kelmoqda. Chunki inson tabiatan hikoyalarga muhtoj. U o'z hayotini ham, atrofidagi voqelikni ham

hikoyalar orqali tushunadi. Kino esa ana shu hikoyalarning eng ta'sirchan shakllaridan biridir.

Inson nega kino ko'radi?

Bu savolga bir nechta javob bor va ular bir-biri bilan bog'liq:

Birinchi sabab — chalg'ish va dam olish. Hayotning tezligi, mas'uliyatlar va doimiy bosim insonni vaqtincha boshqa dunyoga "ko'chish"ga majbur qiladi. Kino bu imkoniyatni beradi: u seni o'z voqeligingdan chiqarib, boshqa voqelikka olib kiradi. Ammo bu faqat yuzaki javob. Chunki inson faqat qochish uchun emas, tushunish uchun ham kino ko'radi. Kino insonning o'zi bilan muloqoti. Ekrandagi qahramonlar, ularning tanlovlari va taqdiri orqali tomoshabin o'zini ko'radi. U o'z qo'rquvlari, orzulari va ichki ziddiyatlari bilan yuzma-yuz keladi. Shu ma'noda kino tashqi voqea emas, balki ichki jarayondir.

Kino insonga nima beradi?

Kinoning ta'siri bir nechta asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi:

1. Kino — hissiyotlar laboratoriyasi

Inson hayot davomida faqat bir marta yashaydi, lekin kino bizga yuzlab boshqa hayotlarni yashab ko'rish imkonini beradi. Biz qahramonlar bilan birga qo'rqamiz, sevamiz va izzatirob chekamiz. Mashhur shved kinorejissori Ingmar Bergman aytganidek:

“Hech bir san'at turi kino kabi bizning vijdonimizga ta'sir qila olmaydi, u to'g'ridan to'g'ri hissiyotlarimizga borib taqaladi va qalbimizning eng qorong'i burchaklarini yoritadi”.

Bu degani, kino san'ati insondagi empatiya (o'zgani tushunish) tuyg'usini rivojlantiradi. Boshqa bir millat, madaniyat yoki ijtimoiy qatlam vakilining dardini ekran orqali his qilish bizni bag'rikenglikka o'rgatadi.





2 Tajriba doirasini kengaytiradi

Inson bir umr ichida cheklangan hayot kechiradi. U barcha holatlarni shaxsan boshidan kechira olmaydi. Kino esa unga boshqa taqdirnlarni "sinab ko'rish" imkonini beradi. Siz urushni ko'rmagan bo'lsangiz ham, uni his qilishingiz mumkin. Siz boshqa madaniyatda yashamagan bo'lsangiz ham, uni tushunishingiz mumkin.

3 Dunyoqarashning kengayishi va intellektual izlanish

Yaxshi film shunchaki hikoya so'zlamaydi, u savol beradi. U insonni borliq, adolat va erkinlik haqida mushohada yuritishga majbur qiladi. San'atshunoslar kinoni "vizual falsafa" deb atashadi. Masalan, buyuk rus rejissori Andrey Tarkovskiy kinoning vazifasini shunday ta'riflagan:

"Kinoning maqsadi – insonni o'limga tayyorlash, uning qalbini shudgor qilib, ezgulikka moyil qilishdir.

Haqiqiy tomoshabin: Kino – insonning o'zini anglashiga yordam beruvchi, hissiyotlarini uyg'otuvchi, shuningdek, Aristotel yozgani-

dek, ruhan poklanish – katarsisga olib keluvchi san'at ekanini tushunmog'i darkor. Aynan katarsis orqali inson qalbida ezgulik, go'zallik kurtak yozadi va u botinimizda neki yaxshi fazilat bo'lsa, barchasini kashf etadi. San'atning asl vazifasi ham shu."

Kino bizga dunyoni faqat o'z derazamizdan emas, balki butunlay boshqacha nuqtai nazardan ko'rishni o'rgatadi. U idrok chegaralarini kengaytiradigan intellektual vositadir.

4 Empatiyani rivojlantiradi

Yaxshi kino sizga hukm chiqarishni emas, tushunishni o'rgatadi. Qahramonlar orqali siz boshqalarning dunyoqarashini his qilasiz. Bu esa, insonni kamroq keskin, ko'proq anglovchan qiladi.

5 Fikrlashga majbur qiladi

Ayniqsa falsafiy yoki murakab filmlar tayyor javob bermaydi. Ular savol qoldiradi. Bu savollar esa, insonni fikrlashga, tahlil qilishga, o'z pozitsiyasini qayta ko'rib chiqishga undaydi.

Muraktab filmlar savol qoldiradi

6. Estetik zavq va psixologik terapiya

Kino bu — rang, ovoz va harakat uyg'unligi. Inson go'zallikka ehtiyoj sezadi. Sifatli kadr, mahoratli operatorlik ishi va musiqa inson ruhiyatiga terapevtik ta'sir ko'rsatadi. Kinosan'ati orqali biz stressdan xalos bo'lamiz, ichki ziddiyatlarimizga yechim topamiz yoki shunchaki go'zallikdan bahra olamiz.

Biroq har qanday kino bir xil emas. Bu yerda muhim farq bor:

- iste'mol kinosi
- san'at kinosi

Iste'mol kinosi tez ta'sir qiladi, lekin tez unutiladi. U asosan hissiyotlarga o'ynaydi va tomoshabinni faol emas, passiv holatda qoldiradi.

San'at kinosi esa aksincha: u sekin ochiladi, lekin chuqur ta'sir qiladi. U tomoshabindan ishtirok talab qiladi — o'ylashni, his qilishni, savol berishni.

Asl kino bu tasviriy san'at adabiyotning ekranga ko'chgan variantidir. Kinosanoat va kinosan'at boshqa-boshqa oqimlardir. Biri kassa (pul), biri esa haqiqiy san'atning eng yosh avlodi. Kinoda ssenariyning kuchi, ranglar garmoniyasi, aktyorlarning plastik harakati, qadam tashlashi, nur-soyalar uyg'unligi va ritmga tushishi juda muhim sanaladi.

Shu sababli kinoni qanday ko'rish ham muhim. Filmni "fon" sifatida ko'rish mumkin, yoki uni anglashga harakat qilish mumkin. Birinchi holatda kino vaqtni oladi, ikkinchi holatda esa insonni o'zgartiradi. Har bir inson kinoni o'z tajribasi, o'z fikri va o'z hissiyotlari orqali qabul qiladi. Shuning uchun bir xil film turli odamlarda turlicha ta'sir qoldiradi, u sizga tayyor ma'no bermaydi, balki sizga ma'no izlash imkonini beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kino ko'rish shunchaki vaqt o'tkazish emas, bu ichki sayohatdir. Har bir buyuk film bizni avvalgidan ko'ra biroz bo'lsa-da boshqacharoq, teranroq insonga aylantiradi. Kinosan'ati bizga inson bo'lish nima ekanligini eslatib turadigan tirik ko'zgudir. Kino begona taqdirar orqali o'zligimizni izlash jarayonidir. U ko'p narsa, ya'ni: yangi fikrlar; yangi savollar; va ba'zan yangi o'zimizni... Ehti-mol, biz kinoni aynan shu sababli ko'ramiz — hayotni yaxshiroq tushunish uchun!



Jahongirmirzo ABDULLAYEV

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va
boshqaruvi akademiyasi
tinglovchisi

“BARCHA TENTAKLAR unga qarshi birlashadi...”

Robin VILYAMIS:

Agar dunyoni ayollar boshqarganida, urushlar bo'lmasdi, har 28 kunda juda jiddiy muzokaralar bo'lardi, xolos.

Qolgan hamma narsani noto'g'ri qilib bo'lganingizdan keyin siz qilishga ulgurmaydigan ishlar to'g'ri ishlardir!

Doimiy ishga ega bo'lish g'oyasi jozibador tuyuladi.

Ayol hech qachon yadro bombasi yasamaydi. Odamni o'ldiradigan qurol ham qilmaydi — yo'q, yo'q. Ular seni bir muddat o'zingni yomon his qildiradigan qurol o'ylab topadi.

Pompey devorlariga bir qarab qo'y, internet hayoti aslida o'sha yerdan boshlangan.

Odamlar “satira o'ldi” deyishadi. U o'lmagan — u Oq uyda yashab turibdi.

Mashhur komediyachi bo'lishning yomon tomoni — vaqti-vaqti bilan kimdir kelib, senga eski latifani aytmoqchi bo'ladi. Menga latifa aytma, bu mening ishim.

Jorj V. Bushning biznes etikasi haqida ma'ruza qilishi moxov odamning yuzni parvarish qilish darsini berishiga o'xshaydi, bu umuman mos kelmaydi.

Hech qachon xunuk odam bilan janjal boshlamang, chunki ularning yo'qotadigan narsasi yo'q.

Komediya optimizmni ijro qilishdir.

Ikkinchi tuzatish bizga qurol ko'tarish huquqini beradi, lekin artilleriya ko'tarish huquqini emas.

Men muhabbatga ishonaman, u ajoyib. Ayniqsa uchinchi marta bo'lgani yana-da qadrliroq, deyarli mo'jizadek.

Senga shunday fikr keladi: ishlashni to'xtatsang, odamlar seni unutadi. Bu esa juda xayfli xatolik.

Bahor tabiatning, kelinglar, bazm qilamiz, deyish usuli.



Vladimir NABOKOV.

Hech narsa meshchancha
qo'pollikchalik odamni mast
qilolmaydi.

Romanni kino ssenariysiga
aylantirish allaqachon
tugallangan va romga solingan
kartina uchun qaytadan
eskizlar chizishga o'xshaydi.

Dunyoda men jamoaviy
faoliyatdek jirkanadigan
boshqa narsa yo'q. Bu shunday
umumiy hammomki, unda
jun bosgan-u sirpanchiq
odamlar bir-biriga aralashib,
o'rtamiyonalikni ko'paytiradi.

Hayotdan zavqlanish
uchun undan haddan ortiq
zavqlanmaslik lozim.

She'riyat aqlga sig'maydigan
sirlarni aqlga sig'adigan so'zlar
orqali his etish san'atidir.

Ba'zi odamlar, men ham
shular jumlasidanman, baxtli
yakunlarni yoqtirmaydi.
O'zimizni aldangandek his
qilamiz. Asl me'yor — musibat.

Hayot buyuk bir tong otishidir.
Nega endi o'lim undan ham
ulug'roq tong bo'lmasligi kerak?



Men bachkana taqrizchilarni
va umuman, o'qiyotganda labini
qimirlatib o'qiydigan odamlarni
ortiqcha vaqt va mehnatdan
qutqarishni istardim.

Mening nafratlanadigan
narsalar oddiy: ahmoqlik,
zulm, jinoyat, shafqatsizlik va
yig'loqi musiqa.

Ma'noning evolyutsiyasi,
ma'lum ma'noda,
bema'nilikning ham
evolyutsiyasidir.

Men faqat bitta kuchni haqiqiy
deb bilaman — san'atning
didsizlikni yengishini, nozik
tasavvurning qo'pol kuch
ustidan g'alaba qilishini.

Aqli joyida odam qanday
qilib psixoanalitik huzuriga
borishini tasavvur
qilolmayman.

Shunday aforizmlar borki, ular
samolyotga o'xshaydi: faqat
harakatda bo'lsagina havoda
tura oladi.

*Daho — qorni
tushida ko'ra olgan
afrikalikdir.*

Jonatan SVIFT.

Dunyodagi eng yaxshi shifokorlar — Doktor Parhez, Doktor Sukunat va Doktor Quvnoqlik.

Qonunlar o'rgimchak to'riga o'xshaydi: mayda pashshalarni tutadi, ammo ari bilan qovog'arilar uni yorib o'tib ketadi.

Biz bir-birimizdan nafratlanishga yetadigan darajada dindormiz, ammo bir-birimizni sevishga yetadigan miqyosdagi dindorlikka hali erishmadik.

Biz bir-birimizni shu qadar yaxshi ko'ramizki, chunki dardlarimiz bir xil.

Qiziq, birinchi bo'lib o'pishni qaysi ahmoq o'ylab topgan ekan?

Hurmatsiz muhabbat injiq va beqaror bo'lgani kabi, muhabbatsiz hurmat ham sovuq va jonsizdir.

Siyosat, odatda tushunilganidek, buzilish va aynishdan boshqa narsa emas.

Jannatda nima qilishlarini bilmaymiz, ammo nima qilmasliklarini bizga juda aniq aytishadi.

Dono odamning puli yuragida emas, boshida bo'lishi kerak.

Hech bir dono odam yana yosh bo'lishni orzu qilmagan.

Zakovating bilan bolaga qarshi kurashma. Baribir, g'olib bo'lolmaysan.

Ixtiro — yoshlik iste'dodi, hukm esa qarilik fazilatidir.

Va'dalar ham, pirog po'stlog'i ham buzish uchun qilinadi.

Istaklarimizda voz kechib ehtiyojlarni kamaytirish haqidagi g'oya, oyoq kiyim kerak bo'lganda oyoqni kesib tashlashga o'xshaydi.

Ishonchsizlik — yengib bo'lmasa, hech bo'lmasa yashirilishi kerak bo'lgan nuqsondir.

Boylikka ko'milgan odamlar uchun boshqalarning ehtiyojmand bo'lishini tasavvur qilishdan qiyin narsa yo'q.

Odamlarning, bolalarning va boshqa jonivorlarning ko'ngilochar mashg'ulotlarining aksariyati urushga taqliddir.



Bu dunyoda o'zgarmaydigan yagona narsa beqarorlikdir.

Bu yuristlar orasida shunday qo'ida bor: ilgari nima qilingan bo'lsa, uni qonunan yana qilish mumkin. Shu sabab ular umumiy adolat va insoniy aqlga qarshi chiqarilgan eski qarorlarni ehtiyotkorlik bilan qayd etib boradilar.

Haqiqiy dahoning paydo bo'lganini bir belgidan bilsa bo'ladi: barcha tentaklar unga qarshi birlashadi.

Har bir inson uzoq yashashni istaydi, ammo hech kim qarishni xohlamaydi.

Kambag'al xalqlar och bo'ladi, boy xalqlar esa kibrlanadi; ochlik bilan kibr esa doim bir-biriga qarshi turadi.

Katta kuchga ega bo'lib, ammo katta orzuga ega bo'lmaslik — tabiat o'z maqsadini to'liq amalga oshirmaganidan dalolat.

Dono inson umrining keyingi qismini yoshligida orttirgan ahmoqliklari, xurofotlari va yolg'on qarashlarini davolash bilan o'tkazadi.

Hayotni boshqarishda qanchalik mohir bo'lmasin, hech kim qarilik va tajribadan yangi narsani o'rganmay qolmaydi.

Hech narsani kutmaydigan odam baxtli, chunki hech qachon hafsalasi pir bo'lmaydi.

Hokimiyatning o'zi ne'mat emas; u faqat begunohlarni himoya qilish uchun ishlatilgandagina qadrli.

Satira shunday oynaki, unga qaragan odam odatda o'zidan boshqa hammaning yuzini ko'radi.

Bitta dushman yetkazadigan zarar, o'nta do'st qiladigan yaxshilikdan ortiq bo'lishi mumkin.

Yolg'on maqtovdek odobsizlik namunasi yo'q. Davradagi hammani maqtab chiqsang, hech kimni xursand qilolmaysan; faqat bir-ikkitasinigina maqtsang, qolganlarni ranjitasan.

Men ertalabgacha uxlab yotib buyuklikka erishgan biror odamni bilmayman.

Asosan men "inson" deb ataladigan maxluqdan nafratlanaman. Garchi Jonni, Piterni, Tomasni va boshqalarni chin dildan yaxshi ko'rsam ham.

O'limdek tabiiy, zarur va umumiy hodisa insoniyat uchun yovuzlik sifatida yaratilgan bo'lishi mumkin emas.

Omadning qudratini faqat baxtsizlar tan oladi; baxtiyorlar esa barcha muvaffaqiyatlarini aql yoki xizmatlariga bog'laydi.

Tanqidga nishon bo'lish mashhur odamning jamiyatga to'laydigan solig'idir.

KOINOT ESHIKLARI OCHILGAN

ASRLAR QA'RIDAN YANGRAGAN PARVOZ XABARI KUN

XX asr insoniyat uchun yuksak taraqqiyot asri bo'ldi. Bu asrda inson suv ostiga tushdi, osmonda uchdi, undan oshib o'tib ochiq koinotga chiqdi. Gap koinot haqida ketganda har qanday insonning xayoliga avvalo Yuriy Gagarin keladi. Bundan roppa-rosa 65 yil muqaddam odam bolasi ilk bor fazoga ko'tarilgan edi. 1961-yilning 12-aprel kuni sodir bo'lgan ushbu tarixiy voqea guvohlari garchi oramizda kam qolgan bo'lsa-da, ammo bu haqda eshitmagan, o'qimagan odam bo'lmasa kerak. Fazogir haqida juda ko'p maqolalar yozilgan, hujjatli va badiiy filmlar ishlangan. Turli yillarda Gagarin shaxsiyatiga doim qiziqish bildirilgan. Uning hayoti va faoliyati to'g'risida turli fikrlar o'rtaqa tashlangan. Ular qanchalik to'g'ri yoki afsonaga yo'g'rilgani noma'lum, ammo shunday bo'lsa-da, bu faktlar insonlarni ohanrabodek o'ziga tortadi. Bugun aynan mana shular haqida so'z yuritamiz.



Birinchi sinfga o'n yoshida borgan Gagarin



uriy Gagarin
1934-yil 9-martda
Rossiyaning Smo-
lensk viloyati
Klushino qish-
log'ida dunyoga

keladi. 1941-yil sentabrda 1-sinfda o'qiy boshlaganida uning qishlog'iga nemislar bostirib keladi, maktab yopiladi. 1943-yilda sovet armiyasi qishloqni ozod qilganidan so'ng maktab qayta ochiladi va qariyb o'n yoshida Gagarin birinchi sinfga o'qishga boradi.

1949-yilda Gagarin 6-sinfni tugatib, Lyubersk hunarmandchilik maktabiga o'qishga kiradi. Shu bilan birga, u yosh ishchilarning kechki maktabida o'qiy boshlaydi. 1951-yilda har ikkala maktabni a'lo baholar bilan bitirgan Gagarin Saratov sanoat texnikumiga o'qishga kiradi. 1954-yilda Gagarin Saratovdagi Mudofaaga ko'maklashuvchi tashkilot qoshidagi aeroklubga qatnay boshlaydi. Bu yerdagi bir yillik ta'lim davomida u uchuvchilik sir-asrorlarini o'rganadi.



Hosmonavt 70-72 kg bo'lishi lozim edi

1955-yilda Gagarin harbiy xizmatga chaqiriladi. Uni Orenburgdagi Kliment Voroshilov nomidagi harbiy uchuvchilar tayyorlaydigan 1-aviatsiya harbiy bilim yurtiga jo'natishadi. U yerda Gagarin taniqli uchuvchi-instruktor Yadgar Akbulatovdan tahsil oladi. 1957-yilda bilim yurtini a'lo baholar bilan tugatib, so'ng Murmanskdagi 769 va 122-aviatsiya qiruvchi polklarida harbiy uchuvchi sifatida xizmat qila boshlaydi.

1959-yil 5-yanvarda KPSS Markaziy qo'mitasining 22-10-sonli, 22-mayda Ministrlar Sovetining 569-264-sonli «Birinchi kosmik parvoz uchun kosmonavtlar tanlab olish haqida»gi qarorlari chiqadi. 1959-yil 9-dekabrda kosmonavtlikka nomzod sifatida ro'y-xatga olishlarini so'rab iltimosnoma yozgan Gagarinni Moskvaga tibbiy ko'rikdan o'tish uchun chaqirishadi. U ko'rikdan muvaffaqiyatli o'tadi va nomzodlar safiga qo'shiladi. Nomzodlar, 25-30 yoshda, bo'yi 170 santimetrdan yuqori, 70-72 kilogramm og'irlikda bo'lishi lozim edi. 1960-yil 11-yanvarda HHK bosh qo'mondoni Konstantin Vershinin buyrug'i bilan nomzodlar orasidan tanlab olingan 20 nafar uchuvchi maxsus harbiy qismga o'tkaziladi. O'sha yil 25-martdan boshlab ular kosmonavtlarni tayyorlash dasturi bo'yicha muntazam mashg'ulotlarga kirishadi.

Rejaga ko'ra, ilk parvozda SSSR Ministrlar Sovetining alohida konstruktorlik byurosi boshlig'i Sergey Korolyov uchishi lozim edi. Ammo, nomzodlar orasida favqulodda iste'dodlilarni ko'rgan Korolyov kosmosga uchadigan kosmonavtni ular orasidan tanlashini bildiradi. Gagarin mashg'ulotlarda o'zini har tomonlama ko'rsatadi. Korolyov unga jiddiy e'tibor bera boshlaydi.



So'nggi tayyorlov bosqichi



Bu orada nomzodlar guruhidan ol-tita uchuvchini alohida ajratib olishadi. Ular orasida Gagarin ham bor edi. Bu guruhni Jukovskiy shaharchasidagi kosmonavtlarni tayyorlash markaziga olib borishadi. U yerda sinovchi-

uchuvchi Mark Gallay boshchiligida mashg'ulotlar davom ettiriladi.

1961-yil 17-18 yanvar kunlarida nomzodlar ilk parvozda kosmosga uchishi lozim bo'lgan "Vostok" kosmik kemasining maketidan foydalanib imtihon topshiradi. Nomzodlarning to'rttasi imtihondan a'lo bahoga o'tadi. Ularga Gagarin komandir etib tayinlanadi. 1961-yil 3-aprelda KPSS Markaziy qo'mitasi bosh kotibi Nikita Xrushchov kosmosga parvoz masalasida maxsus yig'ilish o'tkazadi. Unda Dmitriy Ustinov parvozga tayyorgarlik haqida hisobot beradi. Yig'ilishda parvozni amalga oshirish haqida qaror qabul qilinadi.

O'sha paytda Korolyov juda shoshilayotgan edi. SSSRning kosmosga odam uchirishi haqida xabar topgan AQShliklar ilk parvozni 20-aprelga mo'ljallaydi. Parvozni ulardan oldin amalga oshirish muhim edi. Shu uchun parvozni 11 yoki 17 aprelda amalga oshirishni mo'ljallashadi. 8-aprelda SSSR Mudofa texnikalari bo'yicha davlat qo'mitasi boshlig'i Konstantin Rudnev boshchiligida so'nggi yig'ilish o'tkaziladi. Unda "Vostok" kosmik kemasi parvozga shay ekanligi haqida hisobot beriladi va koinotga Gagarinning uchishi tasdiqlanadi. German Titov zaxiradagi kosmonavt etib belgilanadi.

Gagarin tish-tirnog'iga qadar kommunist edi



"Sehrlanib qolgandekman!"

U 1961-yil 12-aprel kuni Moskva vaqti bilan soat 09:07 da "Vostok" kosmik kemasida fazoga parvoz qiladi. 1 soat-u 48 daqiqa davomida Yer orbitasini aylanib chiqadi. Bu insoniyat tarixidagi buyuk g'alaba edi. Yuriy Gagarin parvoz paytidagi hissiyotlarini bort magnitofoniga yozib qoldiradi. Mana, aynan o'sha lahzalarda Gagarinning tilidan yangragan so'zlar:

"...Men Yer ustidagi bulutlarni ko'ryapman. Ular juda kichkina, pag'a-pag'a. Ana ularning soyalari! Bu chindan go'zallik. Benihoya go'zal! Diqqat! Ufqni ko'ryapman. Mana Yer. O, naqadar ajoyib! Ana, Yerning yuza qismini egallagan kamalakning bir uchi Yerga tomon ingan. Buni ta'riflab berolmayman. Juda ham go'zal. Men xuddi tush ko'rayotganga o'xshayman. Ko'zlarimga ishonolmayman. Xuddi sehrlanib qolgandekman!"

Keyinchalik uning bu hayratomuz xitoblarini juda ko'p G'arb gazetalari ko'chirib bosishdi.



Kosmik kema osmondagi "eshik"dan o'tmasa, yonib ketadi

"Biz osmon eshiklarini ochsak..."

Ma'lumki, insoniyat ming yillardan beri ko'kka parvoz qilib, cheksiz koinot sirlarini kashf etishga intilib keladi. Ana shu orzular zamirida turli afsona va rivoyatlar shakllangan. Gagarin bu afsonani haqiqatga aylantirdi.

Darhaqiqat, bundan bir necha asr ilgari insonning koinotni zabt etishi shunchalik ushalmas orzu edi. Ammo Yaratganning buyuk mo'jizasi bo'lgan Qur'oni karimda koinot bilan bog'liq juda ko'p oyatlar nozil qilingan, ammo ularning sir-sinoati hali bani basharga ma'lum emasdi. Jumladan, Qur'oni karimning "Hijr" surasi 14-15-oyatlari zamiridagi mazmun-mohiyat ham:

"Va biz ularga osmondan bir eshik ochsak, ular (u yerdan) ko'tarilishda davom etsalar ham "bizning ko'zlarimiz bog'landi, (ya'ni hayratda qoldik) biz balki sehrlangan qavmdirmiz", deyishadi.

Birlashgan Arab Amirliklarida yashovchi olim va jurnalist, professor Adnan Sharif bir maqola yozgan. Unda Qur'oni karimdagi ushbu oyat va Gagarinning parvozidagi holat bir-biriga qiyoslangan. Adnan Sharifning yozishicha, XX asrning eng buyuk kashfiyotlaridan biri – Gagarinning parvozi va uning koinotdagi hissiy holati aynan ushbu oyatlarda 14 asr ilgari o'z aksini topgan edi.

Professorning yozishicha, "Hijr" surasida "ular Allohga ishonmaslar, holbuki ilgari ishonar edilar" mazmunidagi oyat ham kelgan. Gagarin mansub bo'lgan jamiyatda ateistik mafkura hukmronlik qilgani, Sovet tuzumi qaror topmasidan ilgari uning hududidagi davlatlarda islom va nasroniylikka izchil amal qilingani, masjid va cherkovlar faoliyat ko'rsatgani ham tarixdan yaxshi ma'lum. Gagarin ham Sovet davlatida tug'ilib o'sdi. U tish-tirnog'iga qadar kommunist edi va umrining oxiriga qadar o'z kamol topgan davlat mafkurasiga sadoqat bilan xizmat qildi.

"Qaytaruvchi osmonga qasam..."

Bu hodisa ikki karra Sovet Ittifoqi Qahramoni uchuvchi-kosmonavt Pavel Popovichga hikoya qilinganda, u ham nihoyatda ajablangan, oyatlardagi aniqlikdan hayratini yashirmagandi:

"Yaratganning kalamidagi "...biz osmondan bir eshik ochsak", deyilgani juda qiziq. Chunki, olimlar aynan shu, "osmondan bir eshik"ni topish uchun juda katta hisob-kitoblarni amalga oshirishgan. Aslida, ko'pchilik osmon ochiq, uning istagan nuqtasidan koinotga parvoz qilish mumkin, deb o'ylashadi. Ammo barcha kosmik kemalar bitta "eshik"dan samoga ko'tariladi va o'sha yerdan qaytib tushadi. Sekundiga 11 kilometr tezlikda parvoz qilayotgan kosmik kema agar o'sha "eshik"dan o'tmasa, yo yonib ketadi, yo ortga qaytadi".

Qur'oni karimning "Toriq" surasi 11-oyatida "...qaytaruvchi osmonga qasam" jumalari keltiriladi. Bu o'rinda koinotda kelayotgan alfa, betta va gamma nurlanishlari ozon qatlamiga urilib ortga qaytishi, radio va uyali aloqa signallarining yana yerga qaytishi ham nazarda tutilgan bo'lsa, ajab emas. Umuman olganda, Qur'oni karim chindanda Allohning buyuk mo'jizasi ekanligi vaqt o'tgani sari tobora ko'proq o'z isbotini topayotir.



MUHAMMAD
SHARIF

JAZO

HIKOMA



— Qo'rboshi, Qo'rboshi!
 — Labbay Mergan!
 — Jinoyatchini tutib keldik, qanday jazo beramiz?
 — Nima gunoh qilgan ekan?
 — Jang maydonini tashlab qochgan.
 — Obbo xunasa! Bizga obdon va xo'p xoinlik qilibdi-ku. Qadimda boshqalarga o'rnak bo'lsin deb bundaylar qoziqqa o'tqazilgan. Ammo-lekin-biroq, biz bu qadar vahshiy emasmizku-a!?

Qo'rdagi "gurr" kulgu ko'tarildi.
 — Toshbo'ron qilsakmikin? — dedi Muqbil toshotar kaftini to'ldirib turgan ko'kish yapasqi toshni irg'itib o'ynab.

— Xiyonatkor xotinlar toshbo'ron qilingan, — dedi Kenja botir og'zining bir chetida qimtib turgan beshta gulbargli ajriq shoxasini aylantirib. — Bunga tuzukroq jazo topish kerak, yigirmata-o'ttizta zo'qata ham kamlik qiladi-yov... Qo'rboshi doimiy maslahatgo'yi bo'lmish Donishga yuzlandi. Donish qari tutning tagida o'tirgancha sira qo'lidan qo'ymaydigan bir quloch do'lana tayog'ining hali tugallanmagan o'yma naqshini sinchiklab ko'zdan kechirardi. Saratonning avj pallasi, ertalabdanoq havo dim, huv tepalikdagi teraklar ortidan bosh ko'tarib chiqqan quyosh tig'lari avvalgilardek badanga yoqmaydi, yantoq tirnagandek terini qichishtiradi. Har tong kunbotishdagi qo'ng'ir tog'lar ortidan yakkash chiqib keladigan, tushdan so'ng osmonning qoq o'rtasida to'planib, issiqdan tuproqlari ko'pchib yotgan qir-u adirlarga bir dam huzurbaxsh soya solib o'tadigan bo'ltak-bo'ltak bulutlardan bugun darak yo'q. Atrof asta-sekin qizib bormoqda, quyosh tikkaga kelganda yerning qizdirilgan tandirdan farqi qolmasa kerak. Donish havoning avzoyiga qarab bir nimalarni o'zicha mulohaza qilib ko'rgandek bo'ldi.

— Xoinni quyoshda kuydirish kerak, — dedi u, keyin Qo'rboshining qulog'iga nimalarnidir pichirladi. Uning gapi Qo'rboshiga ma'qul tushdi:

— Xoin quyoshda jizg'anak bo'lsin. Mol-holiga qo'shib kuydirilsin!

Jazoning ijrosini ko'z oldiga keltira olmagan Kimyogar betoqat bo'ldi:

— Chillashirni yechintirib, oyoq-qo'lini bog'lab tashlab, keyin oftobda kuydiramizmi? — dedi u yuzko'zi oldida g'ujg'on o'ynayotgan pashshalarni haydab.

— Yo'q, shu holicha anovi yaydoq yerda, quyosh tagida o'tiradi. Agar qochib ketsa, ketaversin. Qaytib safimizga olmaymiz. Yakkamoxovga aylanadi,ushmanlarga yem bo'ladi. Bo'linganni bo'ri yer! Agar oramizda qolishni istasa, kunbotishgacha o'sha yerda qilt etmay o'tiradi, joyidan jilsa, bir qultum suv ichsa yoki bir burda non yesa, tamom, haydaladi.

Chuvak, eti suyaklariga yopishib ketgan, bilaklari ketmoncha sopidek ingichka Chillashir yerda cho'k tushib o'tirar, atrofida qo'qqayib turganlarga bosh ko'tarib qarashga botina olmasdi. U uzun bo'ynini osiltirib, bukchayib olganidan beliga bog'langan ko'k farang qiyiq ichidagi barkashdek tandir non, uning ustiga teskari qo'yilgan piyola do'mpayib turar, shu turishida u xuddi beliga toshbaqa kosasini ilib olganga o'xshardi. Bugun saharda tandirdan uzilgan non hidi atrofda gilarining dimog'ini qitiqlardi. Bularni sal naridan kuzatib turgan sakkiz yoki to'qqiz yoshlar atrofida gilarining bolakay ikki kun avval xuddi shunaqa, xamiri sutga qorilgan, hali iliqlicha turgan nonni buloq suvida ivitib yeganini esladi.

Kimyogar iljaygancha Chillashirni tirsagidan tortib o'rnidan turg'azdi, belidagi tugunni yechib olib, tutning shoxiga ildi, o'zini qo'rboshi ko'rsatgan qiyalikdagi toshloq, o't-o'lanlari qovjiragan,





faqat yakkam-dukkam yantoqlar ko'karib turgan joyga o'tirg'izdi. Chillashir bir so'z demasdan hukmga itoat qildi, shu o'tirgancha boshini ko'tarmadi, faqat quyoshga teskari o'girilib oldi, xolos. Kimyogar soyliqdagi ko'm-ko'k ajriqni tili bilan burab-burab yamlayotgan targ'il sigirni yetaklab kelib uning yaqiniga qoziqladi, keyin jonivorning qulog'iga burov solib qo'ydi. Odatda burov faqat yetovda solinardi. Sigir norozi mo'rab maysazor soyliq tomon intildi, biroq arqon tarang tortilib qulog'idagi burov qattiq qisganidan noiloj ortga tisarilib, tuproq va xas-xashakni to'zgitgancha taqir yerni iskay boshladi. Chillashirning sigiri boshqalarnikiga o'xshab chimxo'r emas, ajriq, g'umay, sho'ra, bir chetdan yamlayotgan yutaveradi, shunga yarasha bir chelak sut beradi. Qosh qorayganda qo'r jonivorlarni oldiga solib qishloqqa qaytadi, ana o'shanda qaysi sigirning qorni qappaygani-yu yelini qancha sutga to'lgani haqida bosh qotiriladi. Chillashirning sigiri yelini sutga to'lganidan sonlarini kerib zo'rg'a yuradi, qorni xom beda yeb qo'yan jonivordek shishib turadi. Bunga ko'pchilikning g'ashi keladi, chunki uyga qaytilganda sigirning qorni dami chiqqan koptopdek puchayib tursa achchiq-tiziq gap eshitiladi. Bunday kezlarda Kimyogarning shumligi qo'zib Chillashir yoki uning sigiriga ozor berish uchun bir amallab hiyla o'ylab topardi.

Endi Chillashir jazoga yo'liqdi, o'ziga qo'shilib targ'ili ham qantarildi. Qo'rboshi mahkumning mol-mulki-da musodara etilishini e'lon qildi va uning tuguni o'rtga qo'yildi. Tugun ochilganda atrofga lazzatli hid taraldi. Issiq non ustiga to'ncarilgan piyoladagi kuydirilgan sariyog' erib non xuddi o'rama patirdek yumshab qolgandi, qo'rdagilarga bir bo'ltamdan ulashildi, bolakayga ham berildi. Lekin u sariyog'li bo'ltamni keyinroq yeyish uchun qiyig'idagi suvi qochgan non ustiga avaylab solib qo'ydi.

Muqbil toshotar choy damlash uchun qari tut tanasidagi yoriqdan qorayib, pachoqlanib ketgan temir choynakni oldi, buloq suviga to'ldirib kelib toshlardan yasalgan o'choq ustiga avaylab qo'ndirdi, qurigan shoxlarni tizzasiga urib sindirib o't qaladi. So'ngsalqinda, ajriqqa yonboshlab olgancha kechagi olishuv tafsilotlarini baqir-chaqir muhokama qilayotgan safdoshlariga qo'shildi. Bolakay sal naridagi tut tagida o'tirgancha bularning muhokamasidan kecha o'zi ham qatnashgan ur-surning qanday kechganini endi to'laroq tasavvur eta boshladi. Kecha har zamon bir yuz beradigan janglarning eng ashaddiysi bo'lgandi. Soyning kunbotish tomonidan keladigan raqiblar soni har doimgidan ham ko'payib, suvni bemalol kechib o'tishdi, ulkan baqateraklarni pana qilib bularga ancha yaqin kelib qolishdi. Ayrimlari yon tomondagi pana-pastqam so'qmoqlardan ko'tarilib chiqqandan so'ng bular anchagina ortga chekinishga majbur bo'lishdi. Lekin "Istehkom" deya nomlangan eng baland tepalikni qo'ldan berishgani yo'q. Bolakayning endi bilishicha, ikki nafar g'anim istehkomning chap tarafidagi yandama so'qmoqdan chiqib kelishiga Chillashir yo'l bergan. Merganning gaplariga ko'ra, o'sha ikkovlonni so'qmoqning yarmidayoq ortga chekinishga majbur qilish mumkin edi, biroq Chillashir ularning qorasini ko'riboq ura solib qochgan. So'qmoq ancha tikka, tor va sirpanchiq, undan deyarli emaklab chiqish mumkin, shunda ham bir-ikki qarich ildizi ochilib qolgan yantoq yoki qizil zirkning sertikan shoxlariga osilib olinmasa, ortga sirpanib ketilishi tayin. Merganning gapida jon bor, dushmani chekintirish uchun otning kallasidek kesakni so'qmoqdan yumalatib yuborish kifoya edi. Lekin buning uchun "otning kallasidek yurak kerak-ku", derdi qo'rdagilar har zamon Chillashir tomon imo qilib.

“Dushmanlar” soyning kunbotishdagi qirg‘og‘ida mol-qo‘y boqadigan o‘spirinlar. Ular anchayin jangari, yuziqora va murosasiz. Soyning bular, ya‘ni kunchiqar tomoni o‘rkach-o‘rkach tepaliklar, baland va tikka jarlardan iborat. Soyga shu tepaliklardan solingan nishab, qayrilma so‘qmoq yo‘llar orqali tushib boriladi. Odatda janjal bu deparada yagona bo‘lgan gumdagi cho‘milish chog‘i boshlanadi. Gum deyilgani soyning ilondek buralib kelib kunchiqardagi baland qirg‘oqqa urilib tisarilgan joyi. Bu yerda oqim shiddati pasayib, suvga kalla tashlab cho‘milsa bo‘ladigan chuqur joy hosil bo‘lgan. Ba‘zan katta qurilishlar uchun soydan shag‘al olinganda yangi gumlar hosil bo‘lar va shunda to‘qnashuvlar kamroq yuz berardi. Lekin ko‘klamdagi sel-u toshqinlardan keyin sun‘iy gumlar yo‘qolib soyning har ikki qirg‘og‘ida mol boquvchi o‘spirinlar yana bir joyda cho‘milishga majbur bo‘ladi. Ba‘zan shu atrofda ekin-tikinidan xabar olgani kelgan kattalar janjalga aralashib, tomonlarni murosaga keltirib qo‘yadi, lekin bu uzoqqa cho‘zilmaydi. Kunbotishda mol boqadigan bolalarga cho‘milish payti hamqishloqlari kelib qo‘shiladi, ularning soni ko‘payib ketgandan so‘ng janjal chiqishi tayin gap. Ba‘zan mojaro dahanaki janglar, har ikki qo‘rdan chiqqan da‘vogarlarning yakkama-yakka mushtlashuvidan keyin yakun topadi. Bolakay bir kuni akasidan “nega ular doim ko‘p, biz esa kammiz” deb so‘ragani, akasi esa ajablanib, “shuniyam bilmaysanmi, dushman doim ko‘p bo‘ladi-da” deganini esladi.

Biroq bolakay kechagidek beayov jangni hali ko‘rmagandi. U istehkom, ya‘ni eng baland tepa-

likka o‘rnashib olgan Muqbil toshotarga “o‘q-dori” — toshmi, kesakmi qo‘liga ilingan narsani yetkazib turdi. Muqbil toshotar esa “g‘animlar” tomon tinimsiz kesak g‘irillatar, ora-sira tosh ham otib qo‘yardi. Pastlikdagi daraxt shoxlari-yu butalar orasida changto‘zon ko‘tarilsa kesak otilgan, tarsillagan ovoz chiqsa tosh otilgan bo‘lardi. Raqiblar allaqachon soyni kechib o‘tib, otadigan toshlari jar tepasiga yetadigan masofani egallash uchun daraxtlar ortiga yashirgancha tobora yaqinlamoqda edi. Ular jar tagidagi so‘qmoq yo‘lga chiqqanda Qo‘rboshi endi vaziyat qo‘ldan boy berilganini tushunib, jarning qirg‘og‘ini tepib o‘pira boshladi, boshqalar ham unga qo‘shildi. So‘qmoq chang-u to‘zon, baqir-chaqirga to‘lib ketdi, shu tariqa “dushman” ortga chekinishga majbur bo‘ldi. Chap tomondagi tikka va tor so‘qmoqdan chiqib kelganlar ham safdoshlari chekinganini ko‘rib ortga qaytishdi, ketlaridan chang chiqarib pastga sirpanib tushib ketishdi.

Mana endi Qo‘rboshi kecha raqiblar ustiga paxsa-paxsa kesak o‘pirib tashlagan paytini eslab, og‘zini to‘ldirib maqtanmoqda. U baland bo‘yli, yelkador, oyoq-qo‘llari uzun, ovozi do‘ng‘illab, mo‘ylovi sabza ura boshlagan o‘spirin. Tengqurlari orasida mol boqishga ancha yoshligidan chiqqani, uyi ham soyga yaqinligi bois u o‘zini soyliqlarning egasidek tutar va shundan Qo‘rboshiga aylangandi. Paxta dalalari etagidan toshloq qirlar boshlanadi, ularning oralig‘ida yashil soyliqlar vujudga kelgan. G‘ozaga qo‘yilgan suvning perobi tufayli adirlar qaqrab yotgan paytda ham soyliqlarda o‘t-o‘lanlar gurkirab o‘sib yotadi. Odamlarning ekin-tikinidan ortgan



laxtak-laxtak joylarda mol-qo'y boqiladi. G'ozadan chiqqan loyqa suv yo'lma-yo'lakay zilol buloq suvarlariga qo'shilib soyga quyiladi. Kimdir bu deparada o'z holicha sigir boqmoqchi bo'lsa Qo'rboshi bilan to'qnashishi aniq edi. Gap gapirish usuli-yu kelbatida boshqalardan keskin ajralib turuvchi ayri vajohati bor esa-da, uning birov bilan rostmana yoqalashganini kimsa ko'rmagan.

Mushtlashuv va kurash tushishni miqti, lekin o'lgudek chayir Kenja botirga chiqqan. Qoramag'iz, qiyiq ko'z, kallasi katta bu bola kurashdan qaytgan emas. Landovurroq akalarini himoya qilib yurgani uchun qishloqda Kenja botir laqabini olgan. Muqbil toshotar o'z laqabiga monand, istehkomda turib otgan toshi soyning narigi betidagi o'tloqqa borib tushadi, boshqalar esa soyga zo'rg'a yetkazadi. Mergan hami-

sha bo'ynida cho'zmasi, cho'ntagida bir hovuch toshi bilan yuradi. Uning cho'zmasidan otilgan "o'qdan" qush zoti qutulib ketganini birov eslay olmagani. Bolakayning akasi esa kuch-u hunarda kamtar, lekin oqilona maslahatlari ila Qo'rboshini yo'lga solib yurganidan Donish laqabini olgan. O'rta bo'y, oyoq-qo'li chaqqon Kimyogar na kuchga, na aqlga tayanib ish ko'radi, ichi shumlik va muttahamlikka g'ij to'la. Qo'rdagilar, ayniqsa bolakay uni sira yoqtirmaydi, lekin u Qo'rboshining qarindoshi bo'lganidan chidab kelishadi. Bolakay har gal uni ko'rganida negadir qorayaloq degan qushni eslaydi. Yoshlar orasida mis quvurdan "pang'illoq" yasash urf bo'lib, qo'rg'oshin taqchil bo'lgan kezlarda "qurbaqa bir kun qozonda qaynatilsa qo'rg'oshinga aylanadi" deb hammani ishontira olgani bois u "Kimyogar"ga aylangan. Qolgan yana ikki o'spirin, O'g'ri va To'g'rining laqabidan boshqa esda qolarlik xislati yo'q.

Bolakay bu qo'rga qo'shilguncha qancha-qancha sinovlarga dosh berdi. Akasiga har tong yalinib-yolborish, dastlabki kunlarda kattalarning qo'pol hazillari, huda-behuda boshiga urishlari, qulog'ini burab tortishlariga chidash oson bo'lmadi. Biroq mol boqishdagi sarguzashtlarga ishqibozligi tufayli hammasiga dosh berdi. Axir soyda baliq ovlash, jarda qush tutish, do'lana-yu na'matak, qizil zirk yoki yovvoyi olcha terib yeyish, tushlikka baliqni toshga yopib pishirish yoki chumchuq kabob qilish, bog'-u rog'lardan shaftoli, olma, polizlardan xom-xatala tarvuz va qovunlar o'marish gashtidan kim ham voz kechardi!? Cho'milishdan titrab, lablari ko'karib kelganda hali tafti ketmagan qo'rdagi po'sti kuygan iliq kartoshkaning ta'miga nima yetsin?! Ayniqsa, qishloqda, maktabda dong'i ketgan bu qo'rga a'zoliqi bilan tengqurlari orasida faxrlanib yurish gashti-chi!? Qo'rdagi boshqa o'spirinlar ham ukalarini olib kelgan, lekin hech qaysi biri bolakaydek chidash bermagan. Kattalar soyga cho'milishga tushganda jar tepasida o'tirib narigi sohildagi "dushmanlar"ga ko'z-quloq bo'lish, zo'r kelganda ura qochish, oyog'idan tuflisi tushib qolsa yoki yiqilgandan keyin badanidagi tikanaklarni terish, qantarilgan sigirlarga soatlab qorovul bo'lib qolishning o'zi bo'ladimi. Ba'zi bolalar birinchi kuniyoq yig'lab yuborar, ko'rgan azobi kamlik qilgandek qo'rdagilar oldida sharmanda qilgani uchun akasidan tarsaki ham yerdi. Hech narsadan tap tortmaydigan, abjir, uquvi va zehni baland bolakayga qo'rdagilarning ham mehri tushgan. Uning yordamisiz bitmaydigan ish yo'q, ayniqsa, qush ovi. Qush tutish uchun ko'pchilik jar tepasida qolib, ikki kishi pastga tushadi, so'ng yuqorida turganlarga tayyormiz degandek ishora qiladi. Tepadagilar dupur-dupur sakrab qushlarni



hurkitadi, inida tuxum bosib yotgan qush borki “gurr” uchib chiqadi. Qaysi teshikdan qanday qush uchib chiqqanini eslab qolish lozim. Jarga o'nlab qushlar in qurgan, chumchuq, jarqaldirg'och, yovvoyi kaptar, qulquntuy, ko'kqarg'a, onda-sonda ko'pchik va suv lochini ham uchrab turadi. Bolakay qaysi indan qanday qush uchib chiqqanini aniq eslab qoladi. Ko'kda bezovta charx urgan qushlar oradan ko'p o'tmay iniga qaytadi. Pastda turgan ovchilar uzun ayri xoda uchiga oq qiyiqni sirtmoq qilib bog'lab ohista ining og'ziga olib boradi va tappa yopadi, shundan so'ng tepada turganlar hayqiriq ila yana yer tepishni boshlaydi. Inidan uchib chiqqan qush qopqonga tushadi. Jar balandligi bois uzun xoda kerak bo'ladi, uni ko'tarib turishning o'zi bir azob, shu bois pastga novcha va baquvvatlar tushadi. Bolakay esa ularga “chapga, o'ngga, u emas, narigi, kattaroq teshik, balandroq, yanayam balandroq”, deya buyruq berib turganidan zavqlanadi. Agar xoda kaltalik qilsa, shom payti tepadan kimdir arqonga osilib tushadi, bolakay pastda turib uni ham yo'lga solishi kerak.

Baliq ovlash eng gashtli damlar. Kattalar soyning suvini ko'piklantirib turgan katta toshni o'rab oladi va to'rt tomondan birvarakayiga tosh ostiga qo'l suqadi, so'ng qo'llariga ilinganini chapdastlik ila qirg'oqqa irg'itadi. Bolakay sohilda chopqillab, tipirchilab yotgan baliqlarni terib oladi. Ba'zan baliq o'rniga baqa chiqib qoladi, bir gal suv iloni ham qirg'oqqa otilgan. Kimyogar shumligi qo'zigan paytda atayin bolakay tomonga baqalarni ushlab otadi. Goho qo'ldan sirpanib chiqib ketgan baliq qirg'oqqa yetib bormay suvga shaloplab tushadi, keyin kun bo'yi bu baliqqa ta'rif beriladi. Jar-dagi qush ini, qirg'oqdagi toshloq yoki o'tloqda yo'qolgan baliq, shom qorong'usida birovning ekiniga kirib ketgan sigirni darrov topa olgani uchun bolakayga Lochinko'z deb nom qo'yilgan.

Lekin Lochinko'z bir gal qattiq qo'rqib ketib qo'rdan ajrab qolishiga bir bahya qolgandi. Kattalar soyning oqim kuchli joyida baliq ovlab bo'lishgandan so'ng Kimyogar bolakayning akasidan “ukang qachongacha qirg'oqda yuradi, soyning o'rtasiga ham bir borib ko'rmaydimi”, deb so'rab qoldi. Akasi katta ketdi, “o'rtasiga emas, narigi qirg'oqqa ham borib kela oladi”, dedi. Rosti, bolakay gumda cho'milgan, xolos. Hayqirib, pishqirib turgan soyning o'rtasiga sira bormagan. Lochinko'z hadiksirab akasiga qaradi, lekin uning o'qrayib turgan nigohiga duch keldi. Noiloj suvga qadam qo'ydi, qirg'oqdan uzoqlashganda oyog'i ostidagi balchiq va qumloq sirpanchiq toshlar bilan almashdi, oqim kuchaydi. Bolakayning yuragi hapqira boshladi, lekin soyni kechishda davom etdi. Yurish qiyinlashdi, oqim tizzalarini bukib tashla-

moqchidek zo'r berib oyog'iga urar, suv tubidagi sirpanchiq toshlar surilib, uni munkitib yuborardi. U qo'llarini ikki yonga uzatgancha, oqimga yuzlanib, soy tubidagi yirik toshlarni avval surib ko'rar, agar o'rnidan jilmasa keyin ularga oyog'ini tirab ikkinchi qadamini qo'yardi. Suv beliga ura boshlaganda Lochinko'z chinakamiga qo'rqib ketdi, endi juda katta kuch uni yiqitishga, oyog'ini osmondan keltirishga urinardi. Agar sirpanib ketsa bormi, oqim uni toshlarga olib borib uradi yoki suv yuzida somondek chirpirak qiladi. U oqimga ortiqcha dosh berolmasligini sezdi, qattiq qo'rqib ketdi, ortga qaytmoqchi bo'lib qirg'oqqa o'girildi. Akasi uning niyatini sezdi chog'i, baqirdi:

– Qaytma, yur oldinga! Yur!

Bolakay akasiga mo'ltirab tikilgancha turib qoldi, sovqotgan tanasi madorsizlanib borardi. Bolaning mijjalari yosh quyilib keldi, nahotki o'lib ketganim bilan akamning ishi bo'lmasa, axir oqib ketaman, yo'q bo'lib ketaman bu dunyodan, deb o'yladi. U ortga bir qadam qo'yib akasiga iltijoli boqdi.

– Qaytsang qiz bola bo'lasan. Qo'rroq! Qaytma, qo'rroq! – akasi yana-da qattiqroq baqira boshladi.

Bola tosh qotdi. Akasi or-nomus va g'azabdan qizarib-bo'zarib ketgan, kimlardir xavotir ila yana kimlardir bamaylixotir boqar, Kimyogar esa iljayib turardi. Bolaning ich-ichidan bir nima to'lg'onib keldi, og'zida achchiq ta'm tuydi, o'zidagi kuch qayerdan paydo bo'lganini sezmedi. U pishqirgan, toshdan toshga urilib oqayotgan asov suvni kechishda davom etdi, biroq ikki uch qadamdan keyin chap oyog'ining tomiri tortib qoldi. Boldirida bir narsa tugundek tugilib toshdek qattiqlashganini sezib “ih” deb yubordi. Shu onda muvozanatini yo'qotdi-yu, oqim uni o'z og'ushiga oldi, u ilkis tubsiz o'raga qulagandek bo'ldi. Og'zi burnidan kirgan muzdek suv miyasiga achchiq og'riq-la chiqib borgandek edi. Bola yuragi shuvillab ketgani, shuurida “endi hammasi tamom” degan o'y yilt etgani-yu osmonning haddan ziyod ko'm-ko'kligini ilg'ab qoldi. Bularning bari oniy lahzalarda yuz bergani-yu, mana shu vaqt ichida bola suvda bor-yo'g'i bir marta chir aylanib, keyin qandaydir mo'jiza yuz beribmi, qizg'ish xarsang toshning qirrasidan mahkam ushlab qolganini u bugun aniq-tiniq eslaydi. Keyin bolakay xarsang toshga osilib uzoq turdi, u endi gavdasini tiklab olgan, tomirlari qo'yib yuborgan, lekin hayqiriq bilan oqayotgan soy o'rtasida turgancha alamdan borliqni titratib baqirgisi kelar, biroq baqirmasdi, yuz-ko'zlariga tars-tars urilayotgan shoshqin suv ko'z yoshlarini tinimsiz yuvib turardi, xolos. U soyni kechib o'tdi, alam bilan kechib o'tdi va yana nimalarni kechib o'tganini u hali to'la tushunib yetmasdi.

Bu kechuvdan keyin Lochinko'zning xotirida qo'rqoqliq, or-nomus, g'urur bilan bog'liq bir umrlik his-tuyg'ular muhrlanib qoldi. Mana endi u qo'rning arzandasiga aylangan. Tutning tagida, ajriqqa yon-boshlagan kattalarning haqiqiy qo'rqoqqa jazo berishini tomosha qilmoqda.

Muqbil toshotar tutning kovagiga suqib qo'yilgan jiyda shoxidan bir hovuch barg sidirib olib, vaqillab qaynab turgan choynakka soldi. Yana jiyda bargidan sarg'ish loyqa choy ichishini o'ylab Lochinko'zning qorni bir quldirab oldi. Uydan keltirilgan choy qolib, bular nuqul goh tutning tomiri goh yantoqdan choy damlashadi. Kechki nonushtadan so'ng qo'rdagilar baliq tutib shundan nari cho'milib ham kelishga otlandi. Lochinko'z qorovul bo'lib qoldi, unga Chilla-lashirni kuzatib turishdek ulkan mas'uliyat yuklandi.

— Aka, ularni oftob uradi-ku..? — u akasidan sekin so'radi.

— Nima bo'пти!? Jazosini olsin, — dedi akasi unga xo'mrayib. Bu gapni Kimyogar eshitib qolib mug'ombirona tirjaydi:

— Ha, nima bo'lardi? Ikkovi ham bir hafta “tarillab” yuradi endi.

Bolakay Kimyogarning yuziga qaramaslik uchun uning gapiga e'tibor bermay ortiga o'girildi. Kattalar ketgandan so'ng tugunni ochib, non ostiga yashirilgan, titilib, sarg'ayib ketgan kitobni olib o'qishga tutindi. Bu Daniel Defo degan yozuvchining “Robinzon Kruzo” nomli kitobi edi. Bu kitobni maktabda makulaturaga topshiriladigan qog'ozlar orasidan topib olgan, o'shandan beri qo'li-dan qo'ymaydi. Kitob qadimiy, “bilan” so'zi “blan” yozilgan. Yana shunga o'xshash ayrim farqlari bor.

Lochinko'z uni qo'rdan berkitib o'qiydi, yo'qsa ular ko'rib qolib ustidan kuladi, “professor” yoki “oltin bosh” deb masxara qiladi. Akasi “bunaqa kitoblarni o'qiyverma, miyang suyulib qoladi”, deb so'kadi. Shu sabab ular yo'q paytda kitobni qo'lga oladi. Ba'zan kitobdagi voqealardan zavqi kelib, irg'ib turadi-da, soy tomon solingan ilon izi so'qmoqdan chopadi, changalzorqa monand quyuq daraxtzorga kirib boradi, ko'kka bo'y cho'zgan zabardast baqat-eraklarning baxmal yaproqlari shovullashiga quloq tutadi, balchiq va botqoq kechadi, qiyozorni kesib o'tib sertikan butalar ostidagi so'qmoqdan engashib o'tadi. Jar tubida g'ujg'on o'sgan qizil zirk va na'mataklar ostidagi tulki inini sinchiklab ko'zdan kechiradi, lekin yaqin borishga yuragi betlamaydi. Ba'zan uni daf'atan yovvoyi bir qo'rquv bosadi va zing'il-lagancha ortiga chopadi. Tikka va sirpanchiq tor so'qmoqdan baland tepalik ustiga bu qadar tez chiqa olganidan hayratga tushadi. Yuragi gup-gup uradi. Keyin tepalikda turganchara sharqirab oqayotgan shoshqin soyga, buloq va soy suvi qo'shilgan irmoqlardagi uzundan-uzun, suv parisining sochlaridek sollanib yotgan yashil baqato'nlariga, qirg'oqdagi maysazorga, poyidagi azim daraxtlarga, ularning ostidagi changalzor yanglig' tig'iz o'sgan butalarga suqlik bilan tikiladi, ichidagi qo'rquv tarqab ketadi, qaniydi xuddi Robinzonga o'xshab shu changalzorda faqat bir o'zim yashasam, kunbotishdan keladigan “dushmanlar” sira bo'lmasa edi, deb orzu qiladi. Kecha u Robinzonning oroliga yovvoyi odamlar qayiqda kelib tushganini o'qib rostmana qo'rqib ketgan, o'zini qo'yarga joy topolmagan, kitobni shu joyida to'xtatgandi. Bugun Robinzonning nahotki



o'zim tirik qolishim uchun shuncha yovvoyi odamni o'ldirishim kerak, deya mulohaza yuritayotgan sahifasini o'qimoqda edi. Lochinko'z Robinzonning nima uchun ikkilangani haqida o'ylab, kitobni yoniga qo'ydi. O'zi tirik qolmoqchi bo'lsa, o'dirsa kerak albatta, axir ular yovvoyi, odamxo'r-ku, deb o'yladi. Keyin toshloqda, jaziramadan tobora qiynalib borayotgan Chillashirni kuzatdi. U hamon boshini quyi solganча o'tirar, goho qiziqsinib uchib kelgan qovoqari yoki so'na, oyoqlaridan o'rmalab chiqayotgan chumolilardan o'zini ehtiyot qilish bilan ovora bo'lardi. Ertalab Chillashirga jazo tayinlanayotganda Lochinko'z bu odatdagidek "poshsho-vazir" o'yini bo'lsa kerak degan taxmindagi edi.

* * *

Poshsho-vazir mol-qo'y boqadigan bolalar orasidagi eng ommaviy o'yin. Ba'zan bu o'yin tufayli arazlash, adovat va janjal kelib chiqadi. Unda ajriq shoxalari terib kelinib, beshtadan bittagacha gulbargi qoldiriladi. Shoxa ajriq poyasidan ehtiyotlik bilan sug'urib olinishi lozim, chunki ularning ost qismi bir xil bo'lishi kerak. Kimdir ajriq shoxalarining gulbarg tomonini kafti ichida yashirib, ostki tomonini xuddi gugurt cho'plaridek yuqoriga qilib ushlab turadi, hamma bittadan shoxani navbati ila tortib oladi. Beshta gulbargli shoxani topgan poshsho bo'ladi, to'rttalik vazir, uchtalik bakovul, ikkitalik jallod va bitta gulbargli shoxani tortib olgan o'g'ri bo'ladi. Shundan so'ng tomosha boshlanadi:

– Poshsho, poshsho!
 – Labbay vazir.
 – O'g'rini tutdik, nima jazo beramiz?
 – Nima gunoh qilgan ekan?
 – Xazinadan tilla o'g'irlabdi, – deydi vazir.
 – Unday bo'lsa yigirmata chertmak tayinlansin, – deydi poshsho. Jazoni jallod beradi. Jallod o'g'rining peshonasiga ko'rsatkich, o'rta va shahodat barmog'ini qo'yadi, keyin o'rta barmog'ini rosa kuch bilan tortib shartta qo'yib yuboradi. Tarsillagan ovoz chiqadi, bunday chertmakdan keyin o'g'rining peshonasi anchagacha qizarib yuradi. Jazoning ijrosini bakovul kuzatib turadi. Agar jallod vazifasini chin ko'ngildan bajarmasa, o'zi jazoga yo'liqadi. Jazoning turi ko'p, sigirlarni jildirib kelish, xo'roz bo'lib qichqirish-u eshak kabi hangrashdan tortib to poshshoni yelkasiga mindirib, aytilgan manzilga yetkazishga qadar. O'g'ri cheki har kimga ham chiqishi mumkin, shu bois o'zi o'g'ri bo'lganda sho'ri qurib qolmasligi uchun poshsho ba'zan jazoni o'ylab tayin qiladi. Biroq ayrim hollarda qasdma-qasdigaga og'ir jazolar tayinlash boshlanadi va oxiri o'yin arazlash yoki adovat bilan tugaydi, bunday kezlarda "o'yindan o't chiqdi chiqdi" deyiladi. Jallod vazir-



fasini har kim har xil o'taydi, kimdir chertmakda zo'r, kimdir zo'qatada. Qo'rdagi eng nimjon Chillashirning zo'qatasidan hamma cho'chiydi. Chillashir qoq suyak bo'lganidan uning tirsagi toshdan qattiq. U cho'k tushib o'tirgan o'g'rining ikki kuragi orasiga temirdek tirsagini botiradi, shunda jazoga yo'lliqqan sho'rpehona onasidan ovqat so'ragan olaqanot bolasidek beixtiyor bo'ynini tepaga cho'zganча boshini orqaga tashlaydi. Ana o'shanda naqd orqa miyasiga musht kelib tushadi. Chillashirning uchta zo'qatasidan ortig'iga chidash qiyin.

Yaqin-yaqingacha jazoning eng og'iri zo'qata edi. Lekin Kimyogar uzoqdagi bir qarindoshinikiga borib kelgandan so'ng "hakka chichdi" degan yangi jazo turini topib keldi. Bular shu paytgacha bunaqangi antiqa jazoni ko'rishmagan edi. Mahkum yerda cho'kkalab o'tiradi, jallod uning boshi va iyagidan ushlab ikki qoshining o'rtasidan tupugini oqizadi, xuddi osmondan qushning axlati tushgandek. Tupuk qosh va ko'z o'rtasidan o'tib burunning uchiga oqib kelishi shart. Agar tupuk yo'ldan og'ib ketsa, jallodning sho'ri quriydi, uning o'zi jazoga yo'liqadi. Shu bois jallod jon-jahdi bilan o'g'rining iyagini changalab, boshidan mahkam bosib turishga harakat qiladi-ki, mahkum kallasini qimirlatib tupuk yo'lini o'zgartirib yubormasin.

Rosti, bu jazo faqat bir marta qo'llanildi, xolos. O'shanda Kimyogar shoxalarni tarqatgandi, hiyla ishlatib o'ziga jallod, Chillashirga o'g'ri chekini chiqardi. Biroq bu jirkanchli tomoshadan keyin qo'rdagilarning ikki-uch kungacha poshsho-vazir o'yinini eslashga-da hafsalasi kelmadi. Ayniqsa Kimyogar changalida ojiz qo'zidek tipirchilab, so'ng qilt etolmay ko'zlarini mo'ltiratganicha burnining uchiga kelib qolgan tupukni kuzatib turgan Chillashirning ahvolini eslasa, Lochinko'zning ko'ngli haligacha alag'da bo'ladi.

Bechora Chillashir bugun endi haqiqiy jazoga yuz tutgan. Lekin u ham anoyi emas. Cho'loq turnadek lapanglab kelib "o'g'rining" umurtqasiga tirsagini botirib ezg'ilagan kezlarida ko'zlari shodon porlaganiga Lochinko'z guvoh. Qolaversa, qo'rga yangi kelgan paytlarida bolakayga rosa azob bergan. So'rashganda Lochinko'zning qo'lini ombur solgandek mahkam qisib olganicha qo'yib yubormasdi. So'yloq tishlarini ko'rsatib iljayib turaverar, bechora bolakay ko'zlariga tirqirab kelgan yoshni zo'rg'a to'xtatib, barmoqlari uchidagi og'riq zo'ridan chiyillab yuborardi. Biroq yig'lamagan, hali bir kun boplab o'chimni olaman, deb ichiga tugib yurardi. O'shanda "O'lmas Kashshaydek" xunuk iljaygan Chillashir mana endi qo'rqoqlik qilgani bois jaziramada kuyib o'tiribdi.

* * *

Targ'il sigir tinimsiz mo'rashga tushdi. Chillashir uni tosh bilan urdi, sigir bir-ikki qadam ortga tisariilib, ovozi o'chdi, lekin dam o'tmay qoziq atrofida gir aylanib yana mo'ray boshladi. Chillashir endi sigirining o'kirishiga chidashdan boshqa iloji yo'qligini tushungandek indamay o'tiraverdi. Qolaversa, u shundoq ham yuz-ko'ziga g'uj'g'on yopishayotgan chivin-u pashshalarni qo'rish, ora-sira kelib qoladigan qovoqarini yantoqning shoxi bilan haydash ila ovora. Quyosh ancha tikkaga kelib qolgan, Chillashirning terdan ho'llangan ko'ylagi etiga yopishib ulgurgan, boshidagi do'ppisining mag'zi ham ivib, chetlarida tomchilar paydo bo'lgandi. Lochinko'z undan ko'zini uzib, kitob o'qishga urinmoqchi bo'ldi, lekin kitobni qiyiq orasiga solib qo'ydi-da, Chillashirni kuzatdi. Targ'il sigir qoziq atrofida aylanishdan charchab, egasidan bir-ikki qadam narida to'xtadi. Chillashir boshini ko'tarib bolakayga bir qarab oldi, ketini yerdan ko'tarmay surila-surila sigirning yoniga kelib, uning soyasiga turib oldi. Targ'il yurib ketmasin deb goh-goh uning qornini silab turdi, jonivorni chaqmoqchi bo'lgan so'nalarni do'ppisi bilan urib o'ldirdi. Jonivor boshini tinimsiz sarak-sarak qimirlatib bezovta bo'laverdi. Chillashir sigirning burov solingan chap qulog'ini arqon shilib qonatgani, jarohat o'rnida qora pashshalar g'uj bo'lib

qon so'rayotganini ko'rди. U burovni bo'shatib, bir siqim tuproq oldi-da qonab yotgan joyga surdi, so'ng yana joyiga o'tirdi.

Quyosh tikkaga kelganda targ'il sigirning mo'rashga-da majoli yetmay yer iskab qolgan, har zamon dumini o'ynatib pashshalarni qo'rib turardi, xolos. Jiqqa tergan botgan Chillashirning boshi endi sigirning qorniga tegib turardi, boshqa soya qolmagandi. Chillashir e'tiborsiz qolib sigirni so'na chaqdi chog'i, jonivorning eti bir titrab, dumini qattiq siltadi. Tarsilagan ovozdanda sergaklangan Lochinko'z bular tomon ko'z tashladi. Aftidan sigirning dumi Chillashirning yuz-ko'ziga ham tekkan shekilli u o'zini ortga tashlab, o'ng ko'zini tinimsiz ishqalashga tushdi. Lochinko'zning yuragi jimillab ketdi, molning dumi ko'zga tegsa yomon og'riydi. Endi soyadan quruq qolgan Chillashir boshini ekkani ko'yi ko'zini ishqalab o'tiraverdi.

Oradan qanchadir vaqt o'tgach bolakay chiday olmadi, Chillashirning tepasiga bordi.

— Soyaga o'tib dam olvoling, men hech kimga aytmayman, — dedi.

Chillashir boshini ko'tarib bolakayga qaradi, o'ng ko'zining ichi qip-qizil, qon to'plangandek, qovog'i qizarib shishib ketgan. Boshidan, peshonasidan oqib tushayotgan sho'r terdan ko'zi battar achishmoqda edi. Lablari quruqshab, po'rsildoq ola boshlabdi. U boshini sarak-sarak qilib yo'q, dedi va jiqqa terga botganicha o'tiraverdi. Lochinko'z ortiga qaytib choy-nak tagida qolgan jiydali choy yuqini to'kib tashladi, buloq suviga to'ldirib keldi.

— Ko'zingizni yuvib oling, — dedi u. Chillashir avvaliga ishonqiramay bolakayning ko'zlariga uzoq tikilib qoldi, keyin choynakka yopishib yutoqib suv ichdi, yuz-ko'zini yuvib oldi-da, yana yerga qaraganicha o'tiraverdi. Quyosh rosa tikkaga kelib to'xtab qolgandek edi. Chillashir har zamon g'irillab esib qolgan shab-bodaga yuz tutish uchun holsiz bosh ko'tarar, so'ng kallasi shilq etib yana pastga tushardi. Lochinko'z bu ahvolda uni oftob uradi, ehtimolki, urib bo'lgandir ham, deb o'yladi. Bir paytlar boshi og'rib ichi ketganda onasi "bolani issiq urib, dami ichiga tushib ketibdi" deya sachratqi gulidan damlama ichirgani, boshidan ham quyanini esladi. U do'ppisini to'ldirib sachratqi gulidan terib keldi, o'choqqa o't qalab suv qaynatdi. Damlamani tayyorlab, sovitish uchun choynakni soyliq o'rtasidan oqib o'tayotgan bir bilak loyqa suvga botirib qo'ydi. Yoz chillashirning jazirasida jizg'anak bo'layozgan Chillashirga tikilib, chin dildan rahmi keldi, qo'lini ombur solgandek qimtib qiynaganlarini kechirib yubordi. Ikki kun avval xamiri sutga qorilgan issiq nonini baham

ko'rganida ko'zlari mehribonlikka to'la bo'lganini eshladi. Uni o'ziga juda ham yaqin, qadrdondek ko'ra boshladi. U ertalab avaylab olib qo'ygan yog'li non bo'ltami va alyumin krujkada damlamani olib Chillashirning yoniga bordi. Chillashir batamom holdan toygan, qizargan mijjalari, po'rsillagan lablariga yopishgan xira pashshalarga deyarli e'tibor ham bermay qo'ygandi. Lochinko'z unga damlamani tutmoqchi bo'lgan edi, birdan ortidan hayqiriq yangradi:

— Sotqin! Sotqin, oramizdan sotqin chiqibdi!

Lochinko'z o'g'rilik ustida qo'lga tushgandek qo'rqib ketdi, pastdan hayqirishib kelayotgan qo'rga qaragancha qotib qoldi. Birinchi bo'lib hansillagancha akasi yetib keldi, keldi-yu bolaning qo'lidagi krujkani urib uchirdi.

— Nima qilyapsan, sotqin! Sen ham shu qo'rqqoqa o'xshab yakkamoxov bo'lmoqchimsan!

Akasi tarsaki tortmoqchi edi, ortidan yetib kelgan Kenja botir qo'lini ushlab qoldi.

— Qo'y nima qilasan, yosh bola-ku, — dedi. Biroq Kimyogar kelib olovga moy sepd.

— Jazo, jazo! Sotqinga jazo! — deb Qo'rboshining atrofida gir aylandi. Qo'rdagilar nima qilishni bilmay bir-birlariga qarab qolishdi. Chillashir allaqachon boshini tizzalari orasiga yashirib olgandi. Faqat Kimyogar jonsarak. Qo'rboshi qanday jazo tayinlashni Donishni o'zi hal qilsin, dedi.

— Zo'qata, zo'qata. Yo'q, hakka chichdi, hakka chichdi, — deya Kimyogar yana ayyuhannos sola boshladi.

Lochinko'z bu manzarani kuzatar ekan, ilkis badanida qo'rquvdan asar ham qolmagani, muz qotgan tomirlarida endi qaynoq bir narsa jo'sh urib kelayotgani, shu asnoda bularning bari be'mani, mayda narsalardek tuyulganini sezdi. Ko'z oldidan g'izillab turli manzaralar o'ta boshladi: sharqiragan soy shovqini qulog'ini batang qildi, ko'ziga o't-o'lanlar orasida tipirchilayotgan baliqlarning oppoq qorni ko'rinib ketdi, jordan potirlab uchib chiqqan son-sanoqsiz qushlarning nag'masini eshitdi, chopganda qiyoqlarning tizzalariga tarsillab urilganini his qildi, tulki in qurgan g'or atrofidagi sirli sukunatga quloq tutdi, hovuchidagi muzdek buloq suvining tiniqligi, suv parisining sochlaridek to'lg'onib yotgan quloch-quloch baqato'nlarning quyosh nurlarida jilva qilishi ko'zini oldi. Qizil zirkning nordon, ituzumning chuchmal ta'mini tuydi, na'matakning shira boylagan mevasi ichidagi tuklari tilini yorgandek bo'ldi. Biroq mana bu o'qrayib turgan nigohlar, Kimyogarning tilla topgandek quvonchdan jilpanglashi, yer-u ko'kdan urayotgan issiqdan sop bo'lgan Chillashirning shamdek erib, tobora bukilib borishi tasavvuridagi manzaraga sira sig'mas edi.



Lochinko'z bir so'z demay kattalardan nari ketdi, tutning tagiga bordi, qo'qqis toshdan yasalgan o'choqning kulini to'zg'itgancha tepib, buzib tashladi, keyin qiyig'ini beliga bog'ladi-da, boshini yuqori ko'tarib yo'lga tushdi. Bolakayning bu qiligidan kattalar lol qoldi.

— To'xta, qayt ortingga, sotqin! Qo'rqqoq! — baqirdi akasi.

Bola bir dam to'xtab akasiga o'girildi. Jahldan qizargan-bo'zargan akasi unga yeb qo'ygudek qarab turardi. Bolaning pishqirgan soy o'rtasida qo'rquv iskanjasiga tushib qolgan payti yodiga tushdi. Akasining vajohati hamon o'sha-o'sha edi. Biroq bu gal bolaning ichida boshqa his-tuyg'ular tug'yon urardi. O'zini qo'rquv va qo'r oldidagi majburiyatlardan ozod sezgan Lochinko'z qushdek yengil qadam tashlab keta boshladi. Ortidan alam bilan baqirib qolgan akasiga zarracha e'tibor bermadi. Shu damgacha boshini tizzasidan ko'tarmagan Chillashir endi uzun bo'ynini cho'zib Lochinko'zning ortidan hayrat ila tikilib qoldi.

Мир вокруг нас исходит тревогой. Он сжимается, душит, оставляет человека в страшных тисках между утилитарной необходимостью выживать и священной потребностью творить. Тяжелее всего тем, кто обречен на внутренний поиск – людям мысли, искусства, предельного духовного напряжения.

Вспоминаются слова Бхактиведанты Свами Прабхупады западной публике: его учение доступно лишь тем, кто обладает особой внутренней предрасположенностью, людям «брахманического» склада или избавленным от нищеты. В этой религиозной формуле сокрыта великая правда о человеческой природе. Существует особый антропологический тип – духовные брахманы. Это не сословие, это способ бытия. Для них материальный расчет ничтожен, их жизнь – созерцание смысла, рефлексия, улавливание скрытой структуры мира. Они неизбежно отчуждены от практической логики толпы.

И здесь разворачивается подлинно экзистенциальный разрыв. Пытаясь сохранить верность внутреннему закону, человек духа ломает социальные нормы. Цена этого отпадения от мира огромна, и платит за нее сам творец и его близкие. В этой страшной трещине между земным «надо» и метафизическим «необходимо» задыхается творчество. Оно не исчезает, но становится болезненным, превращается в надрыв, в судорогу.

Девятнадцатый век оставил нам поразительную историю

ТРАГЕДИЯ
ДУХА В
МЕЩАНСКОМ
БОЛОТЕ:

ОДИНОЧЕСТВО ТВОРЦА ПЕРЕД ЛИЦОМ СИСТЕМЫ

(3000)



Деятнадцатый век оставил нам поразительную историю. Эдуард Мане пишет для мецената Эфрусси натюрморт – «Пучок спаржи». Простой овощ под кистью гения вдруг оживает, вибрирует, являет собой чистое эстетическое бытие. Потрясенный меценат вместо восьмисот франков платит тысячу. И тогда Мане присылает ему крошечный холст с одной-единственной веточкой и записку: «Из вашего пучка спаржи одна упала...»

В этом жесте – великое торжество свободы духа. Искусство здесь абсолютно автономно. Мане не просто шутит, он обнаруживает скрытую жизнь в ничтожной детали. Он возвращает долг не монетой, а бытием.

Какое трагическое падение видим мы сегодня! Эпоха «позднего капитализма» совершила страшное преступление: она растоптала автономию духа, превратив искусство в шестеренку культурной индустрии. Творческий акт цинично встроен в систему производства и потребления. То, что сегодня выбрасывается на массовый рынок, больше не требует от человека катарсиса или художественного напряжения. От него требуют лишь узнаваемости, комфорта, потребительской легкости.

Механизмы отбора стали слепыми, непрозрачными и жестокими



Сложные, радикальные, внутренне напряженные формы духа выброшены на обочину или задушены институциями, которые сами диктуют рамки дозволенного. Задумайтесь: возможны ли в нынешнем культурном поле авторы масштаба Кафки, Беккета, Пинчона или Джойса? Пробились бы к нам Годар, Антониони или Фассбиндер? Никогда. Бездушные алгоритмы рынка и структуры видимости отсекают все живое. Вопрос уже не в том, что создается, а в том, кому позволено быть замеченным.

Происходит дьявольский обман. Внешне культурное производство демократизировалось – «публиковать может каждый». Но эта свобода мнимая. Шанс быть услышанным в океане шума стал ничтожным. Рождается новое, изощренное неравенство. Истинное творчество по-прежнему требует царской роскоши – тысяч часов сосредоточенности и экономической независимости. Доступ к развитию распределен глубоко несправедливо. Свобода духа оказалась в рабской зависимости от социального положения.

Механизмы отбора стали слепыми, непрозрачными и жестокими. Голосов стало больше, но власть над ними сконцентрирована в руках единичных центров. И все же искусство не умерло. Оно продолжает жить, но теперь это подпольное существование, жестокая битва за внимание, каторжный труд вопреки удушающей системе.

Акмальжон ЮЛДОШЕВ
журналист

Tinch yashasak bo'lmaydimi?

Insoniyat tarixida urushlar, epidemiyalar va global xavflar doimo odamlarni yashirin va xavfsiz joylar qurishga majbur qilgan. Ana shunday inshootlarning eng mashhurlaridan biri bu – bunker. Bugun bunker deganda ko'pchilik ko'z oldiga yadroviy urushdan saqlanish uchun qurilgan qorong'i yerosti xonalarini keltiradi. Ammo bunkerlar tarixi bundan ancha chuqur va qiziqroq.

Bunker odamlarni urush, yadroviy hujum, biologik xavf, tabiiy ofat yoki boshqa katastrofal vaziyatlardan himoya qilish uchun yer ostida quriladigan maxsus mustahkam inshoot. Masalan, sovuq urush davrida AQSH va SSSR minglab bunkerlar qurgan. Ba'zilari shunchalik katta bo'lganki, ichida kasalxona, elektrostansiya, radio markaz, oziq-ovqat ombori va boshqa zaruriy sharoitlar yo'lga qo'yilgan. Lekin hozirda bunker nafaqat harbiy obyekt, milliarderlar, hukumatlar va hatto oddiy odamlar ham o'zi uchun qurib olayotgan panagohga aylangan. So'nggi yillarda ayrim boyvachchalar pandemiya, iqlim inqirozi, global urush kabi xavflardan qo'rqib, shaxsiy bunkerlar sotib olishni boshladi. Bunda yillar davomida tashqariga chiqmasdan, hatto oziq-ovqat yetishtirish ham mumkin. Bunkerlar oddiy boshpanadan tortib, yer ostidagi haqiqiy "mini-shahar"largacha bo'lishi mumkin. Tarixiy bunkerlarga misol qilib, Turkiyaning Mardin viloyatidan topilgan qadimga yerosti shaharni



Yer ostida 5 yulduzli mehmonxona qurishmoqda

aytish mumkin.


Quduq, ibodatxona hamda uzun yo'laklardan iborat ulkan shaharning milodiy II-III asrlarga taalluqli ekani aytiladi. Unda 60-70 kishi jon saqlashi mumkin bo'lgan. Turkiyadagi Derinkuyu yerosti shaharchasining chuqurligi esa 60 metrni tashkil etib, unda 20 ming kishi bimalol siqqan. Ikkinchi jahon urushi (1939-1945) davrida Germaniya, Buyuk Britaniya va boshqa davlatlar bombardimonlardan himoyalash uchun minglab bunkerlar qurdi. 1945-yilda Yaponiyaning Hiroshima va Nagasaki shaharlariga atom bombasi tashlangach, dunyo yadroviy urush xavfini his qila boshladi va bunkerlar qurish sur'ati oshdi. Masalan, 1961-yilda Britaniyada "York Cold War Bunker" yadroviy portlashlarni kuza-tish uchun qurilgan. Kanadadagi "Diefenbunker" esa hukumatning favqulodda boshqaruv markazi sifatida ishlatilgan. Dunyodagi eng mashhur harbiy bunker esa "Cheyenne Mountain majmuasi" - AQSh Koinot kuchlarining Kolorado shtati, Kolorado-Springs shahri yaqinida joylashgan yuqori darajada himoyalangan harbiy obyekt. Taxminan 610 metr chuqurlikdagi granit qoyalar ostida ko'milgan bu majmua yadroviy portlashlar va elektromagnit impuls-larga bardosh bera oladigan Sovuq urush davridagi "qiyomat bunkeri" sifatida mashhur. Tashqi dunyodan uzilib qolgan taqdirda xodimlarni uzoq muddat ta'minlash uchun o'z elektrostansiyasi, yerosti suv omborlari, yotoqxonalari, tibbiyot punkti va oshxonasiga ega. Bugungi kunda u muhim zaxira qo'mon-

donlik markazi va global keskinlik kuchaygan paytda to'liq ish rejimiga qaytishga tayyor strategik obyekt hisoblanadi.

Shu uchun, majmua jamoatchilik uchun butunlay yopiq, u yerga sayyohlik ekskursiyalari tashkil etilmaydi.

Zamonaviy bunkerlar qanday quriladi? Haqiqiy bunker qurish juda murakkab muhandislik loyihasi hisoblanadi. Avvalo, chuqur joy qaziladi. Temir armaturali beton karkas yasaladi. Portlashga chidamli eshiklar va havo filtrlash tizimi o'rnatiladi. Elektr generatorlar joylashtiriladi. Suv va kanalizatsiya tizimi shakllantiriladi. Radiatsiyadan himoya qatlami qo'shiladi. Ko'pgina bunkerlar beton, po'lat, granit kabi materiallardan quriladi. Biroq devorlar oddiy beton emas, balki polimer va po'lat tolalar bilan mustahkamlangan, portlash to'liqini qaytaruvchi maxsus betondan quyiladi. Bunker ichidagi xonalar tashqi devorga tegib turmaydi, ulkan prujinalar yoki gidravlik amortizatorlar ustiga o'rnatiladi. Elektr manbasi uchun ko'p yoqilg'ili generatorlar, geotermal energiya manbalari yoki uzoq muddat xizmat qiluvchi maxsus batareyalar o'rnatiladi. Yadroviy yoki kimyoviy xavf paytida tashqaridagi havo

xavfli bo'lishi mumkin. Shu sabab havoni kimyoviy, biologik, radiologik va yadroviy zarralardan tozalaydigan ko'p bosqichli havo regeneratsiya tizimlari qo'llanadi. Umuman olganda, hozirgi zamonaviy bunkerlar harbiy va yuqori texnologiyali muhandislik yutuqlariga tayanadi. Ular nafaqat yadroviy zarbalardan, balki kiberhujumlar, biologik tahdidlar va sun'iy intellektga asoslangan zamonaviy qurollardan himoya qilish uchun quriladi. Zamonaviy premium bunkerlar ichida basseyn, kinozal, internet, sport zali, sun'iy bog', tibbiyot markazi ham bo'lishi mumkin. Ba'zilar bir necha oy, hatto yillar davomida mustaqil yashash uchun mo'ljallangan. Ya'ni dunyo milliarderlari o'zlari uchun oddiy mudofaa inshooti emas, balki yer ostidagi 5 yulduzli mehmonxonalarni eslatuvchi hashamatli majmualar qurdirmoqda.





Odamga o'xshab yashash nega qiyin?

Meta kompaniyasi rahbari Mark Zuckerberg Gavayining Kauai orolida joylashgan "Ko'olau Ranch" deb ataladigan 270 million dollarlik, taxminan 465 kvadrat metr maydonga ega ulkan yer osti bunkerini barpo etmoqda. U portlashga bardoshli, beton bilan to'ldirilgan metall eshiklar, shaxsiy energiya va oziq-ovqat tizimlari hamda qochish lyuki bilan jihozlangan. Bunkerda 30 dan ortiq yotoqxon va hammom, katta oshxona, sport zal, basseyn, sauna va spa, tennis korti, o'z suv tizimi va qishloq xo'jaligi maydonlari mavjudligi aytiladi. Zuckerberg bu yerlarni 2014-yildan boshlab sotib ola boshlagan. Dastlab qurilish qiymati taxminan 100 million dollar deyilgandi. Keyinchalik umumiy xarajat 270-300 million dollardan oshgani haqida ma'lumotlar chiqdi.

Bunker qurish narxi uning hajmi, chuqurligi, himoya darajasi va hashamatlilik darajasiga qarab farq qiladi. Oddiy va tayyor bunkerlarning narxi 40,000 va 200,000 AQSH dollari orasida bo'ladi. Bular zavodda po'lat yoki shisha tolali materiallardan tayyorlanib, hovli ostiga ko'miladigan kichik bunkerlardir. Bunday bunker oilaviy, ya'ni 4-6 kishiga mo'ljallangan bo'lib, asosiy havo filtrlari, kichik oshxona va kravatlar bilan jihozla-



nadi. O'rta darajadagi va jamoaviy bunkerlarning narxi esa 1.5-4.5 million AQSH dollari atrofida bo'ladi. Bu narx ichiga 3-5 yillik oziq-ovqat zaxirasi, internet va barcha umumiy qulayliklar kiradi.

Ultra hashamatli va milliarderlar bunkerlari narxi taxminan 8 million dollardan boshlanib, \$100 million dollar va undan yuqori hisoblanadi. Oppidum kompaniyasi tomonidan quriladigan eng arzon maxsus hashamatli bunkerlar \$8 milliondan boshlansa, eng qimmatli \$60 milliondan oshadi.

Xullas, bugungi notinch dunyoda boylarning ham paytavasiga qurt tushgan - o'lim qo'rquvi hech kimni chetlab o'tmaydigandek ko'rinadi. Biroq bor-u yo'g'idan ayrilib bo'lgan, yer bilan bitta bo'lib yotgan uyidan bir qadam ham jilmaydigan xalqlarning yuragida qanday uchqun borki, xavf bilan qo'rqmasdan yonma-yon yashab keladi. Ha, dunyo odamlari turfa, kimdir juda ehtiyotkor, kimdir tavakkalchi. Biroq o'zini emas, oila a'zolarini emas, butun xalqi, kechirasiz, butun yer yuzidagi insonlar hayoti uchun, hech bo'lmaganda, odamga o'xshab yashash nega shunchalar qiyin ekan-a? Ana shunday ozod yashashni bilmagan, shunday yashaylik deguvchilarga quloq solmaydigan kaslarning dastidan ham yakka o'zing kimsa topmas joylarda xavfsiz uy qurging, bolachaqang bilan tinch yashagin keldi-yey! Deylik, ikki agressor davlat rahbari bir-biriga yadroviy kuchlari, bombalari bilan vayronkor zarbalar bermasdan, minglab begunoh odamlarni qirmasdan, shunchaki o'rtaga tushib yoqalasha bo'lmaydimi? Ha, bu kulgili-a? Kulgili bo'lsa mumkin emas, qayg'uli bo'lsa, mumkin, shundaymi?

Ha, mayli, pulim ko'p bo'lsa, qachonlardir men ham bunker quraman...

Bobur RUSTAMOV
jurnalist

12 APREL

- DAVLAT VA JAMOAT ARBOBI,
AVANGARD YOZUVCHI

**MUROD
MUHAMMAD
DO'ST**

TUG'ILGAN KUN!



Arbob adib deydi ki...



O'tish davrida yashagan odamlarning sho'ri qursin, degan gap bor. Sizlarning avlodlaringizning chekiga shunday davr tushdi. Parokandalik boshlandi, qalayi-qalbaki daholar paydo bo'ldi. Vatandarparvarlikka ortiqcha urg'u berib, hech keraksiz fanlarni kiritib tashladik. Ura-patriotizm avj oldi. "Mustaqillik" so'zini xor qilib tashlamaslik kerak. "Mustaqilligimiz" deb boshlashi bilan, demak, sen hali to'liq mustaqil emassan, deb o'ylayman. Nima keragi bor? So'zning qadri yo'qolib ketdi. Qanchalik kam ishlatsak, bu tushunchaning qadri o'shancha baland bo'ladi.



Ichki senzurani yengib o'tish kerak. Bilasizmi, sho'ro davridan boshlab jamiyatni hadik bilan yashashga o'rgatib qo'ydik. Bu hadik hali ko'ngildan chiqib ketgani yo'q. Ijtimoiy-siyosiy passivlikni oqlaydigan o'zbek maqollari ko'p: "Och qornim — tinch qulog'im", "Yarimta non — rohati jon". Bularni fazilat sanashadi. Aslida bu fazilat emas, qusur.



Siyosatchi Mahatma Gandiga o'xshashi kerak. Bitta dovoti, bitta ruchkasi... lekin shippagi ikkita bo'lgan! Yana bir "noto'g'ri" ishga yo'l qo'yganlar, Londonga borganda plashch kiyganlar. Chunki sovuq. Odamning atrofida qarindosh-urug'lar bo'lmasa, juda katta ishlar qilishi mumkin. O'shanda xalq ham ishonadi. Gandi manfaatlarni sidirib tashlab, o'zini hindlarning ravnaqiga bag'ishlagan ShAXS-da! U — ideal! Yetib bo'lmaydi. Lekin unga yetishish haqida o'ylash kerak.



Endi qo'rqitish, bilak kuchi bilan ish bitmaydi. Baribir peshonangga miltiq tiragani bilan sen o'ylaydiganingni o'ylaysan-ku. Hozir ijtimoiy tarmoqlar bor. Men buni jahannam deb aytaman. Yaxshiyam kiradi, yomonam kiradi. "Alhamdulillah" deb boshlaydi-da, sal turib ota-bobosini axtarib ketadi. Odamlardagi ilg'or g'oyalarni olib, ko'nglidagi niyatini ilg'ab, ulardan oldinroq ijro qilish bilan xalqning ko'nglini topish mumkin. Hozir xalqning kayfiyati qanday ekanini bilish juda oson. Va qaysi tomonga qarab yo'naltirishni, ya'ni boshqarishni ham bilsa bo'ladi.

(Adibning publitsist Iqbol Qo'shshayeva bilan suhbatidan parchalar)

* * *

...Ey qiz,
quyosh yanglig' botarman endi,
quyoshday yog'dular to'karsan, ey qiz.

Ey qiz,
tuproq bo'lib yotarman endi,
osmondan osmonga o'tarsan, ey qiz.

Shavkat RAHMON

Abdulhaq Abdullayevning 1956-yilda ishlangan "Bog'dagi qiz" kartinasi

